

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Fuqarolik jamiyati va huquq ta'lifi kafedrasи**



**"O'zbekistonda milliy demokratik taraqqiyotning  
falsafiy-huquqiy masalalari"  
fanidan**

**O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA**

5111600 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi yo'nalishi  
4 –bosqich talabalari uchun

**Namangan-2023**

O‘quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan bilan 2023 yil avgustdagi - sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

**B. Talapov** – falsafa fanlari doktori, professor v.b.

**Taqrizchilar:** **T. Ismoilov**, NamDU, pedagogika fanlari doktori, professor v.b.

O‘quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashininig 2023 yil "... avgustdagi 1 - son yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

## Mundarija

Nº	Tarkib mazmuni	
1.	O‘quv materiallar (ma’ruza matni)	
2.	Amaliy mashg‘ulotlar materiallari	
3.	Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari materiallari	
4.	Glossariy	
5.	Ilovalar: -O‘quv dasturi (namunaviy) -Ishchi fan dasturi -Traqatma materiallar -Testlar -Baholash mezoni	

**O‘quv materiallar (ma’ruza matni)**

## **1- MAVZU: Demokratiya va demokratik taraqqiyot: ilmiy-nazariy konsepsiylar tahlili**

### **Reja**

- 1. Demokratiya tushunchasi, ushbu tushunchaning ijtimoiy – siyosiy adabiyotlardagi talqini**
- 2. Demokratiya va demokratik taraqqiyotga oid konsepsiylar va ularning mazmuni**

**Tayanch so‘z va iboralar :** Demokratiya, demokratiya - shaxs erkinligi, Liberal demokratiya konsepsiysi, Partitsipator demokratiya, Elitar demokratiya, Konsotsial demokratiya, Plyuralistik demokratiya, Elektron demokratiya, Delegativ demokratiya, Vakillik demokratiyasi, Poliarxiya.

Bugun ilmiy adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalari va turli anjumanlarda eng ko‘p ishlatilayotgan tushuncha «demokratiya» bo‘lib qolmoqda. Demokratiyaning etimologik va semantik tahlili ko‘rsatadiki, u «siyosiy-demokratiya», «iqtisodiy demokratiya», «demokratik qadriyatlar», «demokratik davlat», «demokratik jamiyat», «demokratik boshqaruv», «demokratik taraqqiyot» kabi rang-barang ijtimoiy sohalar va faoliyat yo‘nalishlariga nisbatan qo‘llanilmoqda. AQShlik siyosatshunos D.Xeldaning «Demokratiya modellari» asarida qayd etilishicha, bugun ijtimoiy va siyosiy-falsafiy adabiyotlarda demokratiyaning o‘nga yaqin u yoki bu guruh mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladigan modellari mavjud.<sup>1</sup>

Demokratiya nazariyasini yaratishga intilgan tadqiqotchilarning konseptual g‘oyalari quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

**-ko‘pchilikning ijtimoiy-siyosiy voqelikda qatnashishi.** Ushbu konsepsiya Platon, Aristotel va Afina demokratiyasiga borib taqaladi. Shuning uchun ham ko‘pchilik tadqiqotchilar «demokratiya» tushunchasini yunoncha «demos»-xalq, «kratos»-hokimiyat so‘zlaridan kelib chiqishiga urg‘u beradilar.

**-vakillik organlari yoki xalq vakillari orqali davlat va jamiyat hayotini boshqarish.** Ushbu konsepsiyanı ingliz faylasufi va iqtisodchisi D.S. Mill ilgari surgan. Uning fikriga ko‘ra, kapitalistik siyosiy iqtisod asosini raqobatga qodir vakillar-ishlab chiqarishda faol ishtirok etuvchilar tashkil etadi.<sup>2</sup>

**-tiymoq va qarama - qarshi kuchlarni murosada ushlab turmoq.** Ushbu konsepsiyanı Yevropalik siyosatshunos K. Medison taklif etgan. Uning fikriga ko‘ra, demokratiya siyosiy manfaatlariga ega turli, goho bir-biriga zid tomonlarni murosada ushlab turish vositasidir.<sup>3</sup>

**-siyosiy yetakchilar va elit guruqlar o‘rtasidagi raqobat, konkurensiya.** Ushbu konsepsiya nemis sotsiologi, siyosatshunosi K.Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi demokratiyani siyosiy hokimiyat va mavqe uchun elit

<sup>1</sup> Қаранг: Held.D. Models of Democracy.-Oxford, 1987. P. 12.

<sup>2</sup> Қаранг: Милль Д.С. Основы политической экономии.-М: Политиздат, 1981-С,17-21.

<sup>3</sup> Қаранг: Social Science Concept: A Systematic Analysis-London. 1984-P.146.

guruqlar o'rtasidagi raqobat, kurash - deb hisoblaydi.<sup>4</sup>

**-iqtisodiy musobaqa, raqobat vositasi.** Mazkur g'oyani R.Dal ilgari surgan. Uning fikriga ko'ra, demokratiya turli iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida raqobatni, musobaqani yuzaga keltiradi va shu tarzda iqtisodiy demokratiyaga, poliarxiyaga aylanadi.<sup>5</sup>

**-markazlashgan boshqarishni mahalliy va o'zini o'zi boshqarishga aylantirish.** Ushbu fikrni fransuz sotsiologi Aleksis de Tokvil ilgari surgan. Uning yozishicha, «demokratik xalqlarda davlat ichida bir-biri bilan muloqot qiluvchi ko'p sonli mayda doiralar mavjud bo'ladi.»<sup>6</sup>

**-demokratiya-ijtimoiy tenglik.** Ushbu konsepsiya A.Smit, D.Rikardo, K.Marks tomonidan ilgari surilgan. Ularning fikriga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tengsizlik kishilar o'rtasidagi nizolarni, kurashlarni antagonistik voqelikka aylantiradi, demokratiya esa jamiyatda ijtimoiy tenglikni shakllantiradi. A.Smit bilan D. Rikordoning «demokratik hayot» g'oyasi utopiya edi, K. Marksning yondashuvida esa «sotsial revolyusiya» ustun turgan.

**-demokratiya - shaxs erkinligi.** Mazkur konsepsiyani Nobel mukofoti laureati, taniqli iqtisodchi F.A.Xaek va uning safdoshi filosof, sotsiolog K. Popper ilgari surishgan. Masalan, F.A.Xaek, jamiyat shunchalik rang-barangki, inson turli yo'llar bilan unga bog'liqdir. Demokratiya ushbu bog'liqlikni qonunlar va shaxs qiziqishlarini ijtimoiy qiziqishlar bilan muvofiqlashtirish vositasidir. Shaxs «iqtisodiyot shaxmat doskasining peshkasi emas», balki o'z huquqlariga ega «ijtimoiy kuchdir». «Odam, - deb yozadi u - hech qachon o'z taqdirining egasi bo'limgan va bo'lmaydi ham: uning aqli idroki yangi narsalarga o'r ganuvchi noma'lumga va kutilmaganga intilib mudom kamol topib boradi». Insonning ushbu intilishda erkin bo'lishini demokratiya ta'minlaydi.

**-demokratiya – davlat va ijtimoiy hayotni boshqarish shakli.** Deyarli barcha g'arb davlatlarining Konstitutsiyalarida xalqning qabul qilinadigan qonunlar va qarorlarga ta'siri, ijtimoiy hayotga, davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlariga taalluqli masalalarni muhokama qilishdagi ishtiroki demokratiyaning mohiyati sifatida talqin etiladi<sup>8</sup>

**-demokratiyani ijtimoiy yuridik voqelik sifatida qarash.** Yurisprudensiyada xalq hokimiyatchiligi, parlamentarizm, hokimiyatning taqsimlanishi, so'z erkinligi, xususiy mulkka ega bo'lish, hurfikrlik, o'zini -o'zi boshqarish, dunyoviy davlatchilik, fuqarolarning siyosiy va madaniy erkinliklari, gender tenglik, turar joyini erkin tanlashi, mitinglar va uyushmalar faoliyatida qatnashishi kabilar demokratik qadriyatlar sifatida qaraladi.<sup>9</sup>

**-sotsiologik voqelik sifatida qarash.** Sotsiologlar fikriga ko'ra,

<sup>4</sup> Қаранг: Globale Dynamik, lokale Lebenswelten: der schwierige weg in die weltg.-Muench, Richard, Aufl, Suhrkamp, 1998-P.11.

<sup>5</sup> Қаранг: Даль Р. Введение в экономическую демократию. -М.: 1991.

<sup>6</sup> Токвиль де Алексис. Демократия в Америке. -М.: Прогресс, 1992-C.438.

<sup>7</sup> Хайек Ф.А. Общество свободных .- London, 1994- C.259.

<sup>8</sup> Қаранг: Конституционное (государственное) право зарубежнқх стран. Т.1 – М.: Юрид. Лит-ра, 1993.

<sup>9</sup> Қаранг: Satori Q. The theory of democracy Revisited. Part. The Classical Issues. – Chatam. 1987;

Конституционное право. – М.: Юристъ. 1997; Ковлер А. И. Кризис демократии? Демократия на рубеже XXI века . – М.: Юристъ, 1997 . Нуденко А.А. Теория демократии. – М.: Юристъ, 2001.

demokratiya xalqni davlat hokimiyatining manbai sifatida tan oluvchi ijtimoiy hokimiyat, davlat shaklidir.<sup>10</sup> Shuning uchun sotsiologik adabiyotlar davlat hokimiyatidagi lavozimlarga saylovlar o'tkazish, mansabdor shaxslarning saylovchilarga hisob berishi, davlat boshqaruvi organlarining jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishi, siyosiy partiya larning faoliyati, nodavlat tashkilotlarining mavjudligi va ularning to'laqonli ishlashi uchun yaratilgan imkoniyatlar, ommaviy axborot vositalarining faolligi, o'zini o'zi boshqarish organlarining aholi hayotidagi o'rni masalalarini o'rganadi.

**-demokratiyani ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida tadqiq etish, o'rganish.** «Demokratiya - mudom xalq va uning qiziqishlari bilan bog'liq, o'tkinchi, tarixiy xarakterga ega, hokimiyatga, davlat va jamiyatni boshqarishga taalluqli voqelikdir. Taniqli siyosatshunos R.Aronning ushbu fikri<sup>11</sup> u yoki bu ifodada deyarli barcha siyosatshunoslikka oid adabiyotlarda keltiriladi.»<sup>12</sup>

**-demokratiyani ijtimoiy taraqqiyot, sotsium orzu tilaklarini ro'yobga chiqarish, shaxs iroda erkinlilagini ta'minlash vositasi sifatida qarash.** Bu falsafiy yondashishdir. Bizning asosiy diqatimiz ushbu yondashuvni ochib berishga qaratilgan, kelgusi mavzularda ham uning xususiyatlari haqida batafsil to'xtalamiz. Bu o'rnida shuni aytib o'tishimiz zarurki, demokratiyaning falsafiy talqini boshqa sohalardagi ta'riflarni mutloq rad etmaydi, balki ularni ijtimoiy - falsafa konsepsiysi nuqtai nazaridan umumlashtiradi va ularga yaxlitlik, keng qamrovlik baxsh etadi. Yuqoridaq talqinlar va yondashuvlar ayrim olgan xolda demokratiya konsepsiyasining ma'lum bir, o'ziga xos jihatlarini idrok etishga, ochib berishga qaratilgan. Ushbu talqinlar va yondashuvlar faqat ijtimoiy falsafa pog'onasida yaxlit konsepsiya darajasiga ko'tariladi. Shunday yondashuvning yo'qligi sababli tor sohalar mutaxassislari «nima demokratiya, nima demokratiya emas degan savolga javob berish xanuz muammoligicha qolmoqda»,<sup>13</sup> deb yozadilar. Xatto demokratiya nazariyasini maxsus tadqiq etgan L.A.Nudenko ham, demokratiya rang-barang voqelikni ifoda etgani, turlicha talqin qilinayotgani uchun unga «barchaga ma'qul keladigan ta'rif va tushuncha berish mumkin emas»,<sup>14</sup> degan xulosaga keladi. Bizning fikrimizcha, bu demokratiyaga ijtimoiy falsafiy yondashuvning yo'qligi oqibatidir. Mutaxassislar o'zining tor gnoseologik qiziqishlaridan kelib chiqib, aslida bu salbiy hodisa emas, demokratiyaga keng yondashish ham mumkinligini esga olmaganlar, natijada ular keng va rang-barang siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy-madaniy voqelik bo'lgan demokratiyani o'zlarining tor gnoseologik tasavvurlari va qiziqishlari doirasida talqin qilganlar. Shu bilan birga ular demokratik taraqqiyotning milliy xususiyatlari ham mavjudligini umuman hisobga olmaydilar. Vaholanki, har qanday ijtimoiy voqelik ma'lum bir etnomadaniy va etnosotsial munosabatlар in'ikosi, ifodasidir. Ushbu xususiyatlarni hisobga olmaslik demokratiyani mavhum, xatto kosmopolistik g'oyaga aylantiradi, natijada demokratiyaning umuminsoniy mohiyati bilan

<sup>10</sup> Қаранг: Российская социологическая энциклопедия.- М.: Норма-инфра.- М.1998.-С. 117.

<sup>11</sup> Қаранг: Арон Р. Демократия и тоталитаризм. – М.: ACT., 1993. – С. 9.

<sup>12</sup> Қаранг: Исаев Б.А. Теория политики. – СПб. «Питер», 2008; Салмин А.М. Современная демократия: Очерки становления. – М.: АСПЕКТ-ПРЕСС,2004.- С.28-31.

<sup>13</sup> Қаранг: Политология. Курс лекций.- М.: Изд.: Зеркало, 1999.- С.234.

<sup>14</sup> Нуденко Л. А. Теория демократии.- М.: Юристъ, 2001.- С.5.

etnomadaniy, etnosotsial borliq o‘rtasida ziddiyatlar, qarama - **qarshiliklar** kelib chiqadi.

Demokratiyaning davlat va jamiyatni boshqarish bilan bog‘liq voqelik ekanı u yoki bu tarzda, ifodada barcha tadqiqotchilar tomonidan tan olinadi. Demokratiya siyosiy tuzum bilan bog‘liq, aynan siyosiy tuzum «shaxsning siyosiy erkinligini va demokratik huquqlarini, rasmiy konstitutsion va huquqiy normalarning siyosiy reallikka muvofiq kelishini»<sup>15</sup> ta’minlaydi. Shu bilan birga siyosiy tuzum keng qamrovli va rang-barang siyosiy jarayonlarni ifoda etibgina qolmay, u, bir tomondan, davlat, siyosiy tuzum va siyosiy guruhlar manfaatlarini ifoda etadi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-siyosiy voqelikni, reallikni, ommaviy harakatlarni, fuqarolik institutlarining faoliyatini umumiyligi demokratik taraqqiyot nuqtai nazaridan tashkil etadi.<sup>16</sup> Demak, demokratiya o‘zidan o‘zi yuzaga keladigan, xatto ko‘pchilik xohishini ifoda etishga da’vogar guruhlar harakati emas, u ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlariga rioya qiladigan va ushbu qonuniyatlarini o‘zining faoliyatiga singdirgan, anglangan faoliyat natijasidir. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot ko‘rsatadiki, mazkur faoliyat sub’ekti eng avvalo davlat, siyosiy tuzumdir. Chunki, davlat, siyosiy tuzum xatto ular «totalitar yoki monarxiya bo‘lganida ham u yoki bu darajada kishilarning institutlashtirilgan jamoasi orqali amalga oshiriladi, davlat, siyosiy tuzum tafakkuri mudom jamoaviyidir. Davlat hokimiyati tizimi ichidagi tafakkur jarayonlari taxminan boshqa antropomegamashinalarniga muvofiq qurilgandir».<sup>17</sup> Biroq barcha siyosiy tuzum, davlat ham demokratiyaga, jamoaviy boshqarishga tayanavermaydi, lekin ularda ijtimoiy taraqqiyotga intiluvchi elementlar, kuchlar mudom mavjuddir. Ushbu elementlar, kuchlar nazarda tutgan ijtimoiy taraqqiyotning nazariy modellarini qo‘llab-quvvatlanganida demokratik taraqqiyotga real imkoniyat yaratiladi.

Tadqiqotchilar demokratik rivojlanishning xususiyatlarini o‘rganib, ularni ikki guruhga - imoralistik demokratiya va integralistik demokratiyaga klassifikatsiya qiladilar.<sup>18</sup>

**Integralistik demokratiya marksizm nazariyasiga asoslangan sotsialistik, xalq, kommunitar demokratiyani o‘z ichiga oladi.** Ushbu yo‘nalish, konsepsiya tarafdarlarining fikricha, xalq o‘zidan o‘zi jamiyat va davlatni boshqara olmaydi, uni yetaklaydigan, qaerga borishini ko‘rsatib siyosiy rahnomolik qiladigan kuch kerak. Bunday kuch kommunistik partiya yoki kommunistlardir. Aslida xap kim rahnamolik qilganida emas, chunki jamiyat va davlat bunday kuchga immanent tarzda muhtojdir, balki u (kuch) qanday siyosiy strategiyaga, maqsadga ega, ushbu maqsadga qanday yo‘llar, vositalar bilan erishishni ko‘zlaganidadir. Ekspluatatorlarni ekspropriatsiya qilish, ya’ni hukmron sinfni sinf sifatida tugatish integralistik konsepsiyaning maqsadi edi. G‘ayriinsoniy ushbu yondashish XX asr oxiriga kelib inqirozga uchradi, plyuralistik konsepsiya esa

<sup>15</sup> Теория демократии. – М.: Юристъ, 2001.- С. 7.

<sup>16</sup> Ўша жойда.

<sup>17</sup> Даҳин А.В. Альтернативнеке метафорқ глобализации// Космополис, 2003, №3(5). – С. 153-154.

<sup>18</sup> Каранг: Эзенштадт. Ш.Н. Парадокс демократических режимов: хрупость и изменяемость// Полис, 2001, № 1.- С. 72-73.

turli sinflar, guruqlar va shaxslar manfaatlarini uyg‘unlashtirgani, hisobga olgani uchun o‘zining ijtimoiy taraqqiyotga mos kelishini tasdiqladi.

Bugungi **demokratiya liberal, partitsipator, elitar, konsotsial, delegativ, elektron demokratik konsepsiyalarga, vakillik demokratiyasi va poliarxiyaga** bo‘linadi.<sup>19</sup> Ushbu konsepsiylar yuqoridagi yo‘nalishlarda qisman o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, lekin ularda demokratiyaning ichki immanent xususiyatlari ochib berilmaydi. Demokratiyani konceptual g‘oyalar sifatida tahlil qilish uchun esa mazkur klassifikatsiyaga tayanish va undan kelib chiqish zarur.

**Liberal demokratiya konsepsiysi.** Mazkur konsepsiyaning falsafiy-huquqiy asoslari Gobbs(1588-1679), Spinoza(1632-1677), Lokk(1632-1704), Bentam(1748-1832), Mill(1806-1873), Konstan(1767-1830), Aleksis de Tokvil(1805-1859), Gumbold(1767-1835) kabi mutafakkirlarning gnoseologik va siyosiy-falsafiy izlanishlari bilan bog‘liqdir.

Liberalizmning falsafiy-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarga oid masalalari ilmiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan.<sup>20</sup>

Shaxs erkini yuqori qo‘yish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, inson huquqlarini demokratik taraqqiyot mezoni sifatida qarash, ushbu huquqlarni davlat tomonidan emas, balki sud hokimiyati tomonidan himoya qilish tizimini shakllantirish, inson erki siyosiy hayotda emas, balki davlatning shaxs hayotiga aralashmasligida deb qarash, inson huquqini ta’minlash uchun fuqarolik institutlari va uyushmalarini paydo qilish kabilar mazkur konsepsiyaning ichki xususiyati, mohiyati hisoblanadi. Shaxsning erki va huquqlari liberal demokratiya targ‘ib etadigan, himoya qiladigan qadriyatlardir.

Liberal demokratiya g‘arb mutafakkirlarining nazariy-falsafiy konsepsiya sifatida qaralsa-da, S.Adilxodjaeva va B.Umarovlar fikriga ko‘ra, uning Yaponiya, Xitoy va O‘zbekistondagi kabi sharqona ko‘rinishlari ham mavjuddir.

«To‘g‘ri, - deb yozadi falsafa fanlari nomzodi B.Umarov,- keyingi vaqtida liberalizm ta’limotining inqirozga yuz tutayotgani, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar yo‘lida g‘ov bo‘layotgani haqida mulohazalar ko‘payib bormoqda. Ayrim mualliflar bu ta’limotni ma’naviy qadriyatlar va oilaning ahloqiy asoslariga putur yetkazishda ayblayotgan bo‘lsa, boshqalari uning jahonda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarga xolisona baho bera olmayotgani, mazkur jarayonlarga ikki xil andoza bilan yondashayotganini ta’kidlamoqda... Darhaqiqat, liberalizm zamirida shaxs huquq va erkinliklarining mutlaqlashtirilishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy-ma'rifiy hayoti faqat liberal g‘oya va qarashlar asosida baholanishi o‘sha davlatlarning milliy qadriyatlari, an’analari, xatto mustaqil rivojiga putur yetkazishi mumkin. Bu hol o‘tgan asrning oxirida mustaqillikka erishgan sobiq Ittifoq respublikalari iqtisodiy , ijtimoiy-siyosiy va madaniy

<sup>19</sup> Теория политики. Под. ред Б.А. Исаева. – СПб., «Питер» , 2008, - С. 144-160.

<sup>20</sup> Қаранг: Arneson R. J. Liberalism. // An Elgar Reference Collection. USA, 1992; Melhnish K. J. Western liberalism – A history in documents from Locke Grone – London, 1078; История политических и правовых учений . - М.: Норма, 2000; Антология мировой политической мысли.- М.: Мысль, 1997. Т.1.; Nayek F.A. Law Legislation and Liberty. – Chicago. Chicago university press, 1962; Адилходжаева С.М. Либерализм: эволюция идей от прошлого до настоящего(теория и практика). – Т. ТГЮИ, 2002; Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари: иктиносидий , ижтимоий ва маънавий жиҳатлари.- Т.: Маънавият, 2006 ва б.

hayotida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ldi».<sup>21</sup> Demak, liberal demokratiya har doim ham milliy taraqqiyot qonuniyatlariga mos kelavermaydi, xatto u shaxsni ijtimoiy tuzumga, tarixiy-madaniy an’analarga qarshi qo‘yishi mumkin.

**Partitsipator demokratiya**. Demokratiya nazariyasida «partitsipator» tushunchasi qatnashish, ishtirok etish ma’nolarida qo‘llaniladi. Partitsipator demokratiya genezisi Afina va «ibrido demokratiya» davrlariga borib taqaladi. Ushbu konsepsiya siyosatshunoslar K.Peytman, B.Barber, P.Baxrax, N.Bobbio, K.Makferson, J.Simmerman tomonidan ishlab chiqilgan.

K.Peytman fikriga ko‘ra, kishilar demokratik jarayonlarda bevosita ishtirok eta turib, demokratiyaga o‘rganadilar.<sup>22</sup> Davlat va jamiyatni boshqarishda bevosita ishtirok etmaslik oxir natijada ayrim guruhlar yoki «kamchilik tiraniyasi»ga aylanadi.<sup>23</sup> Shuning uchun ushbu konsepsiya tarafдорлари demokratiyaning ibrido demokratiya va Afina davridagi klassik demokratiyaga qaytish g‘oyasini ilgari suradilar. Faqat partitsipator jamiyatdagina kishilar siyosiy jarayonlarda, jamiyat hayotiga oid asosiy masalalarni hal etishda bevosita ishtirok etib, o‘zining siyosiy faolligini, boshqarish ishlaridan va sotsium hayotidan xabardor ekanini namoyon qiladilar. «Tepaning avtoritar bosqiniga pastdagi kuchli hokimiyat qarshi turishi mumkin».<sup>24</sup> Faqat shu taqdirdagina kishilar davlat va jamiyat hayotini boshqarishda teng imkoniyatdan tashqari muhim qarorlar qabul qilishda har kuni, mudom ishtirok etadilar.<sup>25</sup>

Partitsipator demokratiyani mavjud jamiyatlarda amalga oshirish qiyin, shuning uchun unga kelajakdagi model, ideal sifatida qarash mumkin. Shu bilan birga u shaxs erkini, huquqlarini chegaralab qo‘yishga ham yo‘l ochib beradi. Lokal voqelik sifatida keladigan partitsipator demokratiyaning ijtimoiy, umumiyligi taraqqiyotni ta’minlashini tasavvur etish ham mushkuldir.

**Elitar demokratiya.** Elitar demokratiyani ma’lum bir guruhlar, ya’ni davlat va jamiyatni boshqarish xususiyatlaridan yaxshi xabardor, maxsus bilimga va tayyorgarlikka ega kishilar shakllantiradi. Ushbu konsepsiya tarafдорлари g‘arb siyosatshunoslari va faylasuflari Y.Shumpeter, T.Day, L.Zinger kabilardir. Masalan, Y.Shumpeterning fikriga ko‘ra, «demokratiya xalqning boshqarishni amalga oshiradigan kishilarni qabul qilish yoki qabul qilmaslik imkoniyatidir».<sup>26</sup> Biroq boshqarish jarayonini xalq, omma emas, balki professional bilim va ko‘nikmalarga ega elitar guruhlar amalga oshiradi. Elitar demokratiya pastdan tepaga emas, balki tepadan pastga qarab yo‘naltirilgani uchun barcha boshqarish mexanizmlari, vosita va usullari elitar guruh qo‘lida jamlanadi.

Davlat va jamiyatni boshqarishda professional bilim va ko‘nikmaning o‘rnini, ahamiyatini inkor qilish mumkin emas. «Ko‘p narsani biladigan-hech nimani bilmaydigan kishidir», degan naql bor. Boshqarish eng avvalo ma’lum bir sohani chuqur bilishni taqazo etadi, boshqarish haqida shunchaki qarashga, ko‘nikmaga ega bo‘lish yetarli emas, yuzlab, minglab kishilar taqdiriga taalluqli

<sup>21</sup> Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари...- Т.: «Маънавият», 2006.- 70-716.

<sup>22</sup> Карап: Теория политики. Под. ред. Б.А. Исаева.- СПб., «Питер», 2008.- с. 142.

<sup>23</sup> Ўша жойда.

<sup>24</sup> Карап: Теория политики. Под ред. Б.А. Исаева. – СПб.- «Питер», 2008 – С.142.

<sup>25</sup> Ўша жойда.

<sup>26</sup> Шумпетер Й. Капитализм, социализм и демократия.- М.: Юристъ, 1995.- С.372.

qarorlar qabul qilish uchun professional tajriba zarurdir.<sup>27</sup>

Shu bilan birga elitar demokratiyada ko‘pchilik xohish, irodalarini mensimaslik, cheklashga intilish uchun imkon ham bor. Ijtimoiy taraqqiyot, bizning fikrimizcha, elitar demokratiyani plyuralistik demokratiya bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

**Konsotsial demokratiya** konsepsiyasining tarafdori AQShlik siyosatshunos A.Leypxartdir.

Mazkur konsepsiaga muvofiq zamonaviy jamiyatlar «segmentar farqlarga ega» turli guruhrilar, uyushmalar, koalitsiyalar, assotsiatsiyalar, konfessiyalardan tashkil topgan. Shuning uchun konsotsial demokratiya ushbu ijtimoiy uyushmalarni birlashtirishni, jamiyatda barqarorlik, bag‘rikenglik, hamkorlik, kuch ishlatmaslik kabi qadriyatlarni qaror toptirishga undaydi. Shu bilan birga A.Leypxart konsotsial demokratiyani elita yoki elitar guruhrlar amalga oshiradi,-deb hisoblaydi.<sup>28</sup> To‘g‘ri, u xalqni, ko‘pchilikni demokratik boshqarishdagi o‘rnini inkor etmaydi, balki xalqni ko‘pchilikni segmentar farqlarning sub’ekti deb biladi. Ammo, u muhim qarorlar qabul qilish va demokratik boshqarishni bevosita amalga oshirishni elita bilan chegaralab qo‘yadi. Xalqni, ko‘pchilikni demokratik boshqarishning quyi pog‘onasi bilan chegaralab qo‘yish demokratik taraqqiyot qonunlar va extiyojlariga muvofiq kelmaydi.

**Plyuralistik demokratiya** jamiyatdagi barcha guruhrilar, uyushmalar, partiya lar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kishilarning ijtimoiy-siyosiy hayotda teng huquqli ishtirok etishini nazarda tutadi. Hokimiyat uchun siyosiy partiyalar kurashga kirishadi va har bir partiya o‘zining siyosiy maqsadi, programmasi uchun targ‘ibot va tashviqot olib boradi. Plyuralistik demokratiya barcha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda erkin qatnashish imkonini beradi, har bir fuqaro Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan huquqlarini to‘la ro‘yobga chiqarishi mumkin. Mazkur demokratiya polietnik xarakterga ega davlat va jamiyatlar uchun qulay, maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga ushbu konsepsiyanı tanqid qiluvchilar ham bor, ularning fikricha, u, ya’ni konsepsiya shaxs erkini yetarli e’tiborga olmaydi, manfaatlar kurashi siyosiy tuzumning to‘laqonli yashashiga zarar yetkazishi mumkin.<sup>29</sup>

**Elektron demokratiya** deganda kishilarning jamiyat va davlat hayotida informatsion-texnologik vositalar orqali ishtiroki nazarda tutiladi. Kompyuter, internet orqali siyosiy muloqot olib borish, saylovlarda qatnashish, u yoki bu siyosiy informatsiyalarni tarqatish bugun jamiyat va davlat hayotiga keng kirib kelmoqda.<sup>30</sup>

**Delegativ demokratiyani** amalga oshiruvchi sub’ekt xalq tomonidan saylanadigan, hokimiyatga yo‘llanma oladigan siyosiy liderdir. Bu vakillik demokratiyasi emas, balki Konstitutsiya asosida xalq irodasi va xohishi bilan

<sup>27</sup> Қаранг: Дай Т., Зингер Л. Демократия для элитк. Введение в американскую политику. – М.: Прогресс, 1984.- с.149.

<sup>28</sup> Қаранг: Дай Т., Зингер Л. Демократия для элиты. Введение в американскую политику.- М.: Прогресс, 1984.- С.149.

<sup>29</sup> Қаранг: Теория политики. Под ред. Б.А. Исаева. – СПб., «Питер», 2008.- С.154-155.

<sup>30</sup> Қаранг: Грачев М. Н., Мадатов А.С. Демократия : методология исследования, анализ перспектив.- М.: Интер-пресс, 2004.- С. 92-93.

hokimiyat tepasiga chiqarilgan, delegatsiya (lotincha so‘z bo‘lib jo‘natilgan, tayinlangan, yuborilgan degan ma’nolarni anglatadi) qilingan siyosiy lider orqali jamiyat va davlatni boshqarish usulidir.<sup>31</sup>

**Vakillik demokratiyası** xalqning deputatlari yoki saylangan rahbarlari orqali jamiyat va davlat hayotida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qatnashishini ifoda qiladi. Buning uchun demokratik jamiyatlarda saylov institutlari tashkil etilgan bo‘lib, ular ma’lum bir davrda va tartibda o‘tkazilib boriladi.

**Polarxiya** (ko‘pchilik hokimiyati) konsepsiyasini AQShlik siyosatshunos Robert Dal ilgari surgan. Uning fikriga ko‘ra, ko‘pchilik saylovlari orqali rahbarlarni saylash va lavozimidan bo‘shatish imkoniga ega bo‘lish zarur. Saylovlari jarayonida lavozimga da’vogarlar va saylovchilar alternativ manbalardan xabardor bo‘lishi, ulardan erkin foydalanishi mumkin. Ko‘pchilikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda erkin qatnashishi jamiyatni plyuralistik yo‘nalishida taraqqiy etishiga yordam beradi.<sup>32</sup>

Ijtimoiy taraqqiyot hech qachon ma’lum bir nazariy modellar, konsepsiyalarga muvofiq kechmagan, jamiyat hayotida davlat boshqarishida kutilmagan hodisalar, korreaktiv holatlar mudom, har kuni uchraydi. Shuning uchun ijtimoiy taraqqiyot rang-barang boshqarish usullaridan foydalanish natijasidir, ammo bu jamiyatni, davlatni ma’lum bir konsepsiylar nuqtai nazaridan taraqqiy ettirish zarurligini inkor qilmaydi.

## **2-MAVZU: Demokratiya va demokratik taraqqiyotning Sharqona xususiyatlari**

### **Reja**

- 1. Sharqona demokratiyaning mazmun-mohiyati**
- 2. Sharqona demokratiyaga oid konsepsiylar va ularning mazmuni**

**Tayanch so‘z va iboralar :** Etnomadaniy va etnosotsial xususiyatlari; Integratsiya; ijtimoiy ideal muammosi; Etatizm konsepsiysi; Teokratiya konsepsiysi; Kommunitarizm konsepsiysi; Etikokratiya konsepsiysi.

Xalqlar, millatlar o‘rtasidagi tarixiy – madaniy aloqalar, integratsiya jarayonlari hech qachon to‘xtamagan, har bir tarixiy taraqqiyot bosqichi ularni yangi pog‘onaga ko‘tarib, insoniyatni yaxlit ijtimoiy birlikka aylantirgan. Demokratiya va demokratik taraqqiyotni umuminsoniy voqealik sifatida tadqiq etgan g‘arb olimlari asosan ushbu prinsipdan kelib chiqadilar. Ammo ushbu prinsipga tayanishda muhim kamchilik bor – u etnomadaniy va etnosotsial xususiyatlarni nazarga olmaslikdir. Darvoqe, X. Sulaymonova yozganidek: « Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib, o‘z holicha yashagan emas, aks xolda hech qanday taraqqiyot bo‘lmadi. Eng

<sup>31</sup> Карап: Теория политики. Под ред. Б.А. Исаева.- СПб., «Питер», - С. 159-160.

<sup>32</sup> Карап: Даль Р. Демократия и ее критики. – М. Инфра.- М., 2003.- С.356-358.

qadimiy va antik davrlarda uzoq masofalarni ot-ulovda bosib o'tish ancha mushkul bo'lgan vaqtarda ajdodlarimiz Misr, Bobil, Markaziy Gretsiya, Yunoniston kabi mintaqalar bilan aloqa qilganlar. Ipak yo'lining ko'p qismi mamlakatimizdan o'tishi hunarmandchilik, savdo-sotiqning erta va keng rivojlanishiga olib keldi. Ajdodlarimiz shunchalik ishchan va uddaburon bo'lganlarki, Vizantiya imperatorlari uzoq vaqtarga qadar o'zlarining diplomatik va moliya ishlariga samarqandliklarni, umuman, vatanimiz vakillarini jalg etganlar.»<sup>33</sup> Integratsiya ob'ektiv zaruriyat bo'lsa-da, taraqqiyot negizida mudom etnomadaniy va etnosotsial omillar yotgan. Antroposotsiogenez ham umumiy negizga ega, lekin tarixiy-madaniy taraqqiyot harbir xalqning, etnosning ijtimoiy tajribasi natijasidir. Liberal demokratiyaning sharqona va g'arbona xususiyatlari, belgilari borligini ta'kidlab B. Umarov quyidagilarni yozadi: «Ta'kidlash joizki, so'nggi qirq - ellik yillik taraqqiyot mobaynida liberal demokratiyaning turli shakllari paydo bo'ldi. Ularni asosan ikki guruhga ajratish mumkin. Biri inson haq-huquq va erkinliklari hamda manfatlarini ma'muriy tizim tazyiqidan himoya etadigan g'arbona liberal demokratiya shakli; ikkinchisi – shaxs haq-huquq va erkinliklarini inkor etmagan holda, uning faoliyatini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yaponcha yoki kengroq olganda, sharqona liberal demokratiya modeli». <sup>34</sup>

Demak, integratsiya va globallashuv tarixiy-madaniy o'ziga xoslikni batamom yo'q qila olmaydi, balki, aksincha ular milliy negizda qo'llab-quvvatlansa, etnomadaniy va etnosotsial paradigmalar bilan uyg'unlashsa, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Demokratiyaning Sharqona xususiyatlari falsafa fanlari doktorlari Sh.O. Mamadaliev, S. A'zamxodjaeva va F. Musaevlarning maxsus ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. Sh.O. Mamadaliev demokratiyaning Sharqona belgilarni xalq hokimiyatchiligi institutidan izlaydi. Buning uchun u Sharq xalqlari ongi, turmush tarzi va mentalitetida chuqr o'rinni olgan hind-buddaviylik, konfutsiylik, zaroastrizm va islom ijtimoiy-diniy konsepsiylariga murojaat etadi.<sup>35</sup> Tadqiqotchining keltirishicha, Sharqda demokratiya elitar va etatistik xarakterga ega, ya'ni odil podshoh, davlat xalq farovonligini, ma'naviy – madaniy taraqqiyotni ta'minlovchi institutdir. Shuning uchun Sharq mutafakkirlari «Sharqona turmush tarziga va tafakkuriga tayanib, odil podshoh, muruvvatli hukmdor va ezgulik jamiyati haqida turli g'oyalar, konsepsiyalarni ilgari surganlar. Agar ushbu qarashlarda teokratik yondashuvlar ustunlik qilgan bo'lsa, XIX asrga kelib davlatni boshqarish ishlariga dunyoviy bilim va zamonaviy usullar nuqtai nazaridan yondashishlar ko'zga tashlanadi, jahon, ayniqsa Yevropa tajribalariga murojaat qilish paydo bo'ladi.»<sup>36</sup>

S. A'zamxodjaeva ijtimoiy ideal muammosini tadqiq qilgan. U ijtimoiy idealni teokratik konsepsiylar nuqtai nazaridan tadqiq etadi va ulardagi davlat

<sup>33</sup> Сулеймонова Х. Шарқ ва фарб.- Т.: «Ўзбекистон», 1997. - 36.

<sup>34</sup> Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари.- Т.: «Маънавият», 2006.- 526.

<sup>35</sup> Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт.- Т.: ИИВ Академияси,2003.- 25-476.

<sup>36</sup> Ўша асар.- 476.

va jamiyatni boshqarish usullarini o‘rganib, quyidagi xulosaga keladi: «Eng muhimi shundaki, Sharq va O‘rtal Osiyo mutafakkirlari mavjud tuzumdagi nopolik, zo‘ravonlik vaadolatsizliklarni tanqid qila turib, ular kishilar kelajagini baxtiyor hayot, adolatparvar tuzum, ezgu amalli va niyatli hukmdor bilan bog‘lab tasvirlaydilar. Gumanizmga, tenglikka, mehr-oqibatga, shaxs bilan jamiyat, davlat o‘rtasidagi aloqalarini umumxalq manfaatlariga qurishga intilish ularning ideal jamiyat va ideal davlat haqidagi qarashlarining mohiyatini tashkil etadi.»<sup>37</sup>

Muallif demokratik boshqarish muammosini tadqiq etmasa-da, uning yuqorida fikrlari Sharq xalqlari va mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy hamda tarixiy-madaniy tajribasini ifoda qiladi.

Sharqona demokratiyaning o‘ziga xos xususiyat va belgilari F. Musaev monografiyasida morfologik tarzda ochib berilgan. U Sharqona demokratiyaning quyidagi belgilarini sanab ko‘rsatadi:

- 1) subordinatsiya va ierarxik munosabatlarda kam tajribali va kam bilimli kishining tajribaliroq, bilimliroq kishiga itoat etishi;
- 2) davlat va jamiyatni boshqarishda avvalo ahloqiy, ma’naviy me’yorlarga rioya etilishi;
- 3) ajdodlar tajribasiga asoslangan odatiy huquqlarning saqlanib turishi;
- 4) fiqhda tarixiy an'analar(Qur'oni karim, hadislar) va analoglarga tayanib huquqiy muammolar erkin hal etilishi;
- 5) podshoh(monarx, shoh) saroyida davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga oid muammolarni hal etishda ishtirok qiladigan kengash(a'yonlar kengashi, vazirlar kengashi, olimu – fuzalolar kengashi) mavjud bo‘lishi;
- 6) podshoh(monarx, shoh)ning nafaqat o‘z hayoti, xuddi shuningdek, fuqarolarning turmushi, ma’naviyati, ishonchu e'tiqodi uchun Alloh oldida javobgarligini his etishi;
- 7) ijtimoiy-siyosiy hayotni tadrijiy rivojlantirishga moyillik;
- 8) inson va jamiyat hayoti siyosiy mafkuralar tazyiqidan xoli tarzda kechishining ta’milanishi;
- 9) insonning ma’naviy hayotini, ma’naviy dunyosini boyitish, takomillashtirish boshqaruv ishlaridagi asosiy vazifa sifatida qaralishi;
- 10) inson-jamiyat – davlat silsilasi uyg‘unlikda qaralishi;
- 11) jamoa hayoti va manfaatlarining ustuvorligi<sup>38</sup>

Ushbu belgilarni klassifikatsiya qilgan xolda to‘rt guruhga ajratish mumkin.

## I. Etatism konsepsiysi

Mazkur yondashuvga muvofiq ijtimoiy munosabatlar va shaxs hayoti davlat manfaatlaridan kelib chiqadi. Davlat eng yirik siyosiy institut sifatida nafaqat

<sup>37</sup> Аъзамходжева С. Ижтимоий идеал ва маънавий хаёт.- Т.: Фалсафа ва хукуқ институти нашр., 2007.- 296.

<sup>38</sup> Мусаев Ф. Демократик давлат куришнинг фалсафий-хукуқий асослари.- Т.: «O‘zbekiston», 2007.-376.

<sup>2</sup> Фадеева И.А Концепция власти на Ближнем Востоке.- М.: «Восточ. лит-ра»,2001.- C.4.

ijtimoiy, shuningdek shaxslaro munosabatlar mohiyatini belgilab beradi. Masalan, quyidagi kishilarning yuqori pog‘onalarga so‘zsiz itoat etishi norma hisoblanadi. Yuqoridagilarga, davlatga xizmat qilish qahramonlik sifatida qaraladi.<sup>39</sup>

Etatizm ayrim olgan guruh yoki hukmdorning xohishi, irodasi emas, u ijtimoiy-tarixiy va madaniy taraqqiyot mahsuli edi. Sharqda ko‘plab etnik konglomeratlar, xalqlar yashagan, issiq o‘lkalarda aholining tez ko‘payishi kuzatilgan. Ushbu rang-baranglikni uyg‘unlashtirish, ma’lum ijtimoiy institut, ya’ni davlat atrofida birlashtirish mudom davr talabi bo‘lib qolgan.

Hukmdor bir urug‘dan bo‘lsa-da, u mavjud nomzodlar ichidan tanlangan. Tanlash aslida demokratiya usulidir. Ushbu usulga ko‘ra, urug‘ ichida taxtni egallashga loyiq kishilar keltirilib, ularning ijtimoiy-ahloqiy, shaxsiy va davlat ishlariga muvofiq keladigan fazilatlari o‘rganilgan. Shundan keyin hukmdorni taxtga o‘tkazishgan.

Ba’zi mualliflar Osiyoda hukmdorning xohish va istaklari barcha uchun hukm edi, mohiyatan bu despotiyadir, degan qarashlarni bildirishadi.<sup>40</sup> Ba’zi tadqiqotchilar esa etatizm ijtimoiy-tarixiy va madaniy-ma’naviy hayot ilgari surgan talablar, xatto ular o‘rtasida ochiq to‘qnashuvlargacha borib yetish hollar natijasidir degan fikrni bildiralar.<sup>41</sup> Lekin ularning hech biri etatistik yondashuvning mutlaq salbiy hodisa sifatida qaramay, balki uni ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida, ichki omillar natijasi sifatida yuzaga kelgan siyosiy voqelik ekanini e’tirof qiladi.

Etatizmga tarixiy esxatologik qarashlar nuqtai nazaridan ham yondashish mumkin. Rus faylasufi N.A.Berdyayev, tarixni «fojeaviy jarayonlar» sifatida qarash mumkin, shu nuqtai nazardan u qandaydir markazni, butun tarixiy voqelikni o‘z atrofida birlashtiruvchi kuchni taqozo etgan,<sup>42</sup> deb yozadi. To‘g‘ri ushbu, kuchni, markazni u, o‘zining diniy-falsafiy yondashuvidan kelib chiqqan holda, dinda ko‘radi. Aslida shunday markaz Sharqda ham, g‘arbda ham davlat instituti bo‘lgan.

Etatizmning ijtimoiy mohiyatini kuchli hokimiyat, davlat tarafdori bo‘lgan Qadimgi Xitoy siyosiy traktati «Shan viloyati hukmdori Kitobi» aniq ifodalab bergen. «Kuchli hokimiyat, -deb yozadi falasafa fanlari doktori A.S.Panarin mazkur yondashuvni sharhlab - qonunga itoatkor va sodiq fuqarolariga, zaif hokimiyat esa o‘z uyida aggressiv, ammo tashqi dushman oldida qo‘rqoqlarga ega bo‘ladi. Shuning uchun Osmon ostidagi hukmdorning boshqarish usullari jamoalar o‘rtasidagi nizolarni keltirib chiqarishdan xalqni qo‘rkitishga, ammo uni tashqi dushman bilan jangda botirlik ko‘rsatishga undashi kerak».<sup>43</sup> Haqiqatan ham, ijtimoiy-tarixiy jarayonlar davlat institutini o‘ta murakkab,

<sup>40</sup> Қаранг: Васильев Л.С. Феномен власти-собственности. Типы общественных отношений на Востоке в средние века.- М: Восточ. лит-ра.1982. -С.48-51.

<sup>41</sup> Қаранг: Желтяков А.Д, Иванов С.М. Исторические корни политики этатизма в Турции (постановка проблем). Туркологический сборник, 1978-М:1978.-С. 42-48.

<sup>42</sup> Бердяев Н.А. Смысл истории. –Paris, YMPA-Press, 1969-C.44.

<sup>43</sup> Панарин А.С. Политология. О мире политики на востоке и на западе.-М: «Книжний дом Университет», 1999.- С.267.

goho boshqarilishi qiyin siyosiy va geosotsial munosabatlar, aloqalar markazida bo‘lib kelganini, xalqning, etnosning taqdiri uning harakatlariga, strategik maqsadini dadil amalga oshirganiga bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda g‘arbdagidek davlat institutini zaiflashtirishga, xatto uni yo‘q qilishga qaratilgan anarchistik g‘oyalar uchuramaydi. Sharqona boshqarish, demokratiya ushbu siyosiy an'anaga, etatizmni qo‘llab-quvvatlash tajribasiga tayanadi.

## II. Teokratiya konsepsiysi.

Sharq xalqlarida diniy-spiritualistik g‘oyalar juda rang-barang, hech bir xalq, millat o‘zini dindan tashqari qaramaydi. Jahon dinlarining o‘zi ham Sharqda paydo bo‘lgan, keyinchalik g‘arb dunyosining diniy-mafkuraviy va ma’naviy merosiga aylangan.

«Teo»-din, «kratiya»-hokimiyat degan ma’nolarni anglatadi. Demak, teokratiya dinga, diniy tasavvurlar va dogmalarga asoslangan yoki tayanadigan boshqarish usuli, davlat shaklidir.

«Biz Sharqdagi siyosatni ham, Sharqona davlatchilikni ham xaloskor g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan diniy-mistik tomoniga e’tibor bermay anglay olmaymiz,- deb yozadi faylasuf A.S.Panarin -g‘arbdagi texnokratiya va emansipatsiyaga asoslangan utopiyalar qanday muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, Sharq siyosiy hayotida sharqona xaloskorlik utopiyasi ham shunday muhim ahamiyatga ega». <sup>44</sup>

«Sharqda davlat va jamiyatni boshqarish tamoyillari ilohiyashtirilgan. Bir qarashda diniy dogmani tan olish demokratiya tamoyillariga zid ko‘rinadi. Ammo xudoni tan olish ijtimoiy-siyosiy va etnik-madaniy hayotdagi rang-baranglikni, u yoki bu oqimga xayrixoh bo‘lishni taqiqlamagan. Masalan, islam dinida turli mazhab va oqimlarning mavjudligi unda o‘ziga xos xurfikrlik, demokratiya mavjudligini ko‘rsatadi». <sup>45</sup> Mazkur fikrini Movaraunnaxr fiqh ta’limotiga tadbiq etib F.Musaev yozadi: «Movaraunnahr fiqh ta’limoti namoyondalari o‘lka xalqlarining huquqiy an’analari, urf-odatlari, rasm-rusumlarini umumislomiy nuqtai nazardan tahlil qilganlar. Shu tariqa Movaraunnahr xalqlarining ma’naviy, axloqiy, huquqiy an’analari islam madaniyati va shariat ahkomlarida o‘z aksini topgan. Bu esa o‘z navbatida muayyan bir tarixiy sharoitda o‘ziga xos, ya’ni sharqona demokratiya tamoyillariga mos muhitga singib ketgan». <sup>46</sup>

Demokratiya, erkinlik barchani ham o‘zidagi ijobiy-ahloqiy fazilatlarini namoyon qilishga undayvermaydi. Ba’zan kishi his-tuyg‘ularga, destruktiv ta’sirlarga beriladi, o‘z manfaatlarini qondirishga intilish esa uni ochko‘zlikka, kuch ishlatishga, riyokorlikka undaydi. Ushbu salbiy illatlardan hukmdor va siyosiy institutlar ham xoli emas. Shuning uchun ham Sharqona davlatchilikda xudodan qo‘rqish g‘oyasi ilgari surilgan. Xudodan qo‘rqish va xudo oldida o‘zini mas’ul sezish kishini yomonlik, zo‘ravonlik, nafs va fahsh kabi illatlarga

<sup>44</sup> Ўша жойда - С.274.

<sup>45</sup> Мусаев Ф. Демократик хукукий давлат қуришнинг фалсафий хукукий масалалари.-Т.: O‘zbekiston,2007.-426.

<sup>46</sup> Ўша жойда

berilishdan saqlab turadi. «Alloh taolo oldida, - deb yozadi Nizomulmulk, - podshohlarning gunohidan ko‘ra kattaroq gunoh yo‘q. Ularning haq ishlari Alloh taolo ne’matlarini qadrlab, raiyatni himoya etib, sitam yetkazuvchi qo‘llarni adl bila qisqartirishdan iboratdir. Kim xudodan qo‘rqmasa, davlatdan, podshohdan ham qo‘rqlaydi, kimki xudodan qo‘rqlasa, unga munosib in’om bor.» Bu teokratik yondashuv aslida borliqdagi tartib-qoidalarni, garmoniyani, bog‘liqlikni, yaxlitlikni saqlashga qaratilgandir. Sharqona demokratiya bu yaxlitlikni, umumiylilikni rad etmaydi, aksincha, ushbu garmoniya qonunlariga muvofiq rang-baranglik bo‘lishini yoqlaydi. g‘arbda demokratiya, ayniqsa liberal demokratiya, individ manfaatlarini umummanfaatlarga qarshi qo‘yadi, shaxs erkini, kishilar o‘rtasidagi raqobatni, har kim o‘z dini ulug‘laydi». <sup>47</sup> Demak, teokratiya faqat xudoning yakkaligini, ulug‘ligini tan olishga qaratilgan boshqarish emas, u xudo, ilohiy obraz orqali hukmdorni, siyosiy institutlarni va nihoyat shaxsni g‘ayriinsoniy va g‘ayriaxloqiy illatlardan xalos etish, barcha kishilarning yaratgan oldida tengligini e’tirof qilib murosada, ahillikda yashashga undash usuli hamdir.

### **III. Kommunitarizm konsepsiysi.**

Qadimdan Sharqda jamoa bo‘lib. bir-birini qo‘llab-quvvatlab, umummanfaatlarga rioya etib yashash hayot tarzi, xalqlarning tarixiy-madaniy xususiyati hisoblangan. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda ushbu xususiyat kommunitarizm deb ataladi. <sup>48</sup> Aynan kommunitar hayot tarzi, mentalitet Sharq demokratiyasidagi maftunkor tomonlardan biridir.

Kommunitar uyushmalarga mahalla, ovul bo‘lib yashash, ma’lum bir qiziqishlar atrofida birlashish (ijodiy, diniy, mazhabiy, siyosiy va b.), jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok qilish uchun ixtiyoriy tashkilotlar tuzish, birgalashib mahalliy muammolarni halqilishni ko‘zlagan qisqa muddatli guruhlar, komissiyalar tuzish kabilar kiradi. Ushbu ixtiyoriy uyushmalarning maqsadi jamoa bo‘lib, birlashib u yoki bu muammoni hal etishdir.

«Sharq tafakkuri va hayot tarzida – deb yozadi F.Musaev, kommunitar (jamoaviylik) g‘oyalar, tasavvurlar ustun turadi, shaxsning o‘zini namoyon etishi, hayotiy maqsadlariga erishishi, davlat va jamiyatga qarshi chiqishi, ularni inkor etuvchi g‘oyalarni ilgari surishi mumkin, lekin Sharqda bunday harakatlar takabburlik, jamoaviy an’analarni va manfaatlarni mensimaslik deb qabul qilinadi. Sharqda «hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun» tamoyili amal qiladi». <sup>49</sup>

Haqiqatan ham Sharq kommunitarizmi g‘arb individualizmidan ko‘ra ijtimoiy, demokratik taraqqiyotga xizmat qilishini asosladi. AQShlik tadqiqotchilar A.Etsioni, M.Kastels, F.Fukuyama individualizm ijtimoiy birlikka, taraqqiyotga xavf soladi deb hisoblaydilar, shuning uchun individualizmni kommunitarizm bilan uyg‘unlashtirish g‘oyalarini ilgari suradilar. Xatto sotsiolog va nazariyotchi F.Fukuyama «AQSh avval boshda

<sup>47</sup> Ўша жойда . 43-446.

<sup>48</sup> Қаранг: Etzonia. The Spirit of Community: Rights and Responsibilities and the Communitarian Agenda.- London,1995.

<sup>49</sup> Мусаев Ф. Демократик давлат куришнинг фалсафий-хукукийасослари.-Т.:O`zbekiston, 2007-456.

individualistik jamiyat bo‘lmaq»<sup>50</sup> deb yozadi. Shuning uchun u, posindustrial jamiyat, demokratik taraqqiyot uchun «ratsional hisob-kitob» emas, balki kommunitar an’analarga asoslangan ahloqiy burch, majburiyat, mas’uliyat kabilar bilan boyitilishi zarur<sup>51</sup> deb hisoblaydi.

Kommunitar uyushmalar fuqarolik jamiyatining boshlang‘ich institutlari sifatida demokratik qadriyatlarni shakllantirishga va qaror topishiga yordam beradi. Ular davlatni aholining real manfaatlariga xizmat qilishga undaydi va demokratiyani markazlashgan boshqarish prinsiplari bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Kommunitarizm o‘zini - o‘zi boshqarishga tayanadi, xurfikrlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash orqali boshqarishning samarali amalga oshirilishiga erishadi. Kommunitar institutlar tarqoq, faqat o‘z manfaatlarini qylovchi individlarni ma’lum bir ijtimoiy maqsadlar atrofida birlashtiradi va o‘zining dasturlari, faoliyati, da’vatlari bilan hokimiyat diqatini jalb etadi.

#### **IV. Etikokratiya konsepsiysi.**

Ushbu konsepsiyada davlat va jamiyatni boshqarishda ma’naviy-ahloqiy, hukmdorda ham, oddiy fuqaroda ham gumanistik qarashlarni rivojlantirishga e’tibor beriladi. Agar g‘arbda pragmatizm ulug‘lansa, demokratik taraqqiyot vositasi sifatida qaralsa, Sharq ijtimoiy-ahloqiy fazilatlarni yuksaltirishni maqsad qilib qo‘yadi. Shuning uchun, Sharqdagi birorta krateologik ta’limot ma’naviy-ahloqiy masalalarni chetlab o‘tmagan, balki u ijtimoiy taraqqiyotni ma’naviy-ahloqiy barkamollik mahsuli deb qaragan.

Nemis faylasufi K.G.Ballestr g‘arb krateologiyasida etikokratik yondashish hayrat uyg‘otish haqida ajalanib yozadi: « prezident Karterning inson huquqlarini xurmat qilish amerika tashqisiyosatining asosiy mezoni, bundeskansler Kollning siyosatda ma’naviy-ahloqiy o‘zgarishlar qilish haqidagi fikrlari ushbu mualliflarning yo soddaligi yoki soxta avliyoligi bois shubhalarga duch kelgan. Siyosatchilar esda tutishi zarurki, bequsur avliyolar emas, balki ularni mudom turli jirkanch ishlarda shubhaga oluvchi kishilar o‘ragan bo‘ladi». <sup>52</sup> Italiyalik siyosatshunos N.Makiavelliga borib taqaluvchi ushbu fikr g‘arbda ahloqiy qadriyatlар siyosatdan allaqachon siqib chiqarilganidan guvohlik beradi. Ushbu sohada Sharq boshqacha, ya’ni g‘arbning Makiavellizmidan farq qiluvchi ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarga tayanadi. Sharqona demokratiya ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga va jamiyatda ahillik, inoqlik, murosani ta’minalashga qaratilgan etikokratik qadriyatlarga asoslanadi. Ushbu qadriyatlarni Sharqona siyosiyedeyish ham mumkin.

O‘z paytida Monteske siyosat va ahloq bir-biriga qarshi voqeliklar ekanini ta’kidlagan edi.<sup>53</sup> Siyosat mudom aniq xati-harakatlarni, yondashuvlarni taqazoetadi, etika, ahloqiy tasavvurlarda esa mavhumlik, amaliyotdan uzoqlik bor. Aynan ushbu farqlar siyosat va ahloqni biri-biriga zid voqealar sifatida qarashga undagan. To‘g‘ri, ayrim faylasuflar siyosat va ahloqni

<sup>50</sup> Fukuyama F. Trust. The social Virtues and the Creation of Prosperity.-N.Y.1996-P.29.

<sup>51</sup> Ўша асар.-P.11.

<sup>52</sup> Власть мораль (основная проблема политической мысли ), Философские науки,1991. № 8.-С.84.

<sup>53</sup> Ўша жойда. - С.85.

uyg‘unlashtirish haqida bosh qotirganlar. Masalan: Aristotel yozadi: «Insonning farovonligi bilan bog‘liq intilishi davlatning maqsadi bo‘lsa, unda siyosat va ahloq uyg‘unlashadi»<sup>54</sup> Lekin ushbu fikr keyinchalik rivojlantirilmadi, balki ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar, qonunlar va pragmatizm bilan almashtirildi, shaxsnинг ichki ruhiy boyligi emas, balki ishchanligi, normalar doirasidagi egoizmi ijtimoiy, demokratik taraqqiyot mezoniga aylandi. Sharqda, masalan, Forobiy ta’limotida, har qanday zo‘ravonlik rad etiladi va tabiiy ehtiyojlar haqidagi g‘oyalar ilgari suriladi. «Tabiiy ehtiyoj kishilarni bir-birlari bilan birlashtirishga, jamoa sifatida uyushishga, o‘zaro hamkorlikka olib keladi. U davlatga – o‘z aholisini baxt-saodatga yetaklovchi vosita sifatida qaraydi va bunday vosita inson, jamoa ehtiyoji bilan bog‘liq ahloqiy omillarni ochib beradi».<sup>55</sup> Forobiyning o‘zi yozadi: « Kishilarning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliq hokimi mutlaq bo‘lmaydi, ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan eng oljanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo‘ladilar, xatto hammaning manfaatini o‘zlarining manfaatidan ortiq ko‘radilar, umumning manfaati uchun o‘zlarining shaxsiy manfaatlaridan kechadilar...».<sup>56</sup> Ammo ba’zi davlatlarda hukmdorlar o‘z manfaatlarini qylaydi. Shuning uchun ular qo‘l ostida ishlagan kishilar «turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birlarini ko‘rolmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo‘ladi, Ana shunday shaharxalqlaridan xislatlari, mayllari turlicha bo‘lgan avlod tug‘iladi.»<sup>57</sup>

Ushbu fikrlarda Sharqona demokratiyaning ma’naviy –ahloqiy fazilatlar bilan chambarchas bog‘ligi ochib berilgan.

Sharqona demokratiyaning u yoki bu belgilari va xususiyatlari «Avesto», Yusuf Xos Xojib, Beruniy, Ibn Sino, G‘azzoliy, Ibn Irid, Jaloliddin Rumiy, Nizomulmulk, Alisher Navoiy, Bobur, Koshifiy, Davoniy, Xja Samandar Termizi, Avaz O‘tar, Bedil, Ahmad Donish, Muqimiy, Fitrat kabi ijodkor-mutafakkirlar tomonidan ochib bergen. O‘zbekistonda zamonaviy demokratik qadriyatlarni shakllantirish xalqni falsafiy-huquqiy, siyosiy va ma’naviy nuqtai nazarida ma’rifatli qilishda jadidchilarning qqshgan hissasi kattadir. Demak, Sharqona demokratiya va demokratik taraqqiyot masalalarini maxsus tadqiq etish uchun bizda manbalar ham yetarlidir. Muammoni falsafiy retrospektiv tadqiq etish demokratiya nazariyasining etnomadaniy va etnosotsial jihatlarini to‘la tushunishga yordam beradi.

### **3-MAVZU : G‘arbona demokratiya: yutuqlari va ziddiyatlari**

#### **Reja**

<sup>54</sup> Аристотель. Соч. в 4-х т. Т. 4.- М.: «Мысль», 1984.- С. 55

<sup>55</sup> Алимардонов Т. Сиёsat ва ахлоқ.- Т.: Фан, 2005.- 30-31б.

<sup>56</sup> Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри.- Т.: А. Қодирий номидаги Ҳалқ мероси нашр., 1993.- 190б.

<sup>57</sup> Ўша жойда - 192 б.

- G'arbona demokratiya mohiyati, uning o'ziga xos jihatlari**
- G'arbona demokratiya sohasidagi ilmiy yondashuvlar va ularning mazmuni**

**Tayanch so'z va iboralar :** G'arbona demokratiya genezisi; Kosmologik, mifologik tasavvurlar; Afina demokratiyasi; Perikl; Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi xurfikrlik.

G'arbona demokratiya genezisi antik davrlarga borib taqaladi. Kosmologik, mifologik tasavvurlardan asta-sekin davlat va jamiyatni boshqarishda dunyoviy tasavvurlarga o'tilishi, olamni idrok etishda hayotiy tajribaga, ratsionalga tayanilishi antik dunyo kishilarining tasavvurlarini o'zgartirib yuborgan. Ayniqsa, er. avv. 431-404 yillarda ro'y bergan Peloponnes urushi Afina va Spartadagi polis ijtimoiy-siyosiy tuzumini, davlat va jamiyatni boshqarish haqidagi qarashlarni, ahloq, tartib, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tanazzulga olib kelgan. Mavjud polis tuzumi, uning idora usullari, ahloqiy tushunchalari tanqidiy, ratsional fikrlovchi kishilar tomonidan qayta baholandi. Jamiyat bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tayotganida yangi fikrlarga va yondashishlarga bo'lgan extiyoj kuchaydi, nafaqat mavjud tuzumni va munosabatlarni tanqid qilish, shuningdek, yangi qadriyatlarni, ijtimoiy taraqqiyot modellarini taklif etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ellada duch kelgan tanazzuldan chiqish yo'llarini izlashda Suqrotning o'rni katta bo'ldi. Suqrot «qat'iy va izchil tarzda o'z izlanishlarining gumanistik yo'nalishda ekanini ta'kidladi, u jamiyat kamolotini, antik davr ratsionalizmi usulida va yo'nalishida, inson kamolotini, antik davr ratsionalizmi usulida va yo'nalishida, inson kamolotini bilan bevosita bog'lab qo'ydi.»<sup>58</sup>

Antik davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, polislar va fuqarolar o'rtasidagi kurash, boylar bilan kambag'allar, demokratlar bilan oligarxlar, quidorlar bilan qullar o'rtasida davom etgan kurashlar oxir natijada biror yakunga, jamiyat taraqqiyotini yangi bir modelga olib kelishi shart edi. Aynan ana shu davrda ideal davlat, ideal jamiyat, ideal hukmdor va ideal shaxs haqidagi g'oyalar paydo bo'lgan. Ijtimoiy-siyosiy fikr, krateologik izlanishlar jamiyat va davlat boshqarishining ideal modelini yaratishga intilgan.<sup>59</sup> Ushbu izlanishlar natijasi sifatida Afina demokratiyasi yuzaga kelgan. Ushbu o'zgarishni qayd etib X.Muhamedov yozadi: «Afinada xalq majlislari tomonidan yangi demokratik qonunlarning qabul qilinishi tartibi miloddan avvalgi 6 asrda Solon va Klisfen islohotlari bilan joriy qilingan. Rimda esa an'anaviy huquqiy odatlar qayta ishlanib, XII jadval qonunlarida yozib qo'yilgan. Mazkur qonunlar, shuningdek, xalq majlislarining qarorlari qonun hisoblanadi, degan qoida nazarda tutilgan.»<sup>60</sup>

Antik davr demokratiyasi keskin to'qnashuvlar, kurashlar natijasi sifatida

<sup>58</sup> Фролов Э.Д. Огни диоскуров. Античные теории переустройства общества и государства.- Ленинград, изд. Ленинградского ун-та, 1984.- С.4.

<sup>59</sup> Қаранг: Колоба М.К, Из истории раннегреческого общества.- Л.: ЛГУ, 1951; Утченко С.Л. Идейно-политическая борьба в Риме накануне падения республики.- М.: Наука, 1952; Кошеленко Г.Г. Греческий полис на элленистическом Востоке.- М.: Наук, 1979; Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва хукуки тарихи.- Т.: Адолат, 1999.

<sup>60</sup> Мухаммедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва хукуки тарихи.- Т.: Адолат, 1999.- 191б.

shakllanganini aytib o'tish zarur, u xayolparast kishilar o'ylab topgan nazariya, model, ta'limot emas edi. Xatto Platon va Aristotel demokrtya haqida so'z yuritganlarida Ellada kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ahloqiy, falsafiy va huquqiy izlanishlarni o'z asarlarida tasvirlaganlar. Shuning uchun ularning asarlaridagi g'oyalar, modellar Elladada kechgan o'zgarishlar va izlanishlar in'ikosidir.

Polis o'z atrofiga bir necha qishloqlarni birlashtirgan, o'zini-o'zi boshqarish prinsipiqa qurilgan, boy-badavlat fuqarolar o'z mulkidan soliq to'lashi, qolganlar esa ijtimoiy-harbiy ishlarda ishtirok qilishi, ishlab berishi shart bo'lgan birlik edi. Bu har bir shaharni respublika xususiyatiga ega boshqarish usullari bilan yashashini ta'minlagan. Polis hayotida mayda korporativ guruhlar, uyushmalardan tashqari butun polisga taalluqli «polis fuqarosi» tushunchasi muhim o'rinn tutgan. Ushbu «bosh belgi» atrofiga fuqarolar birligi, uyushqoqligi, isonomiya (qonunlar oldida tenglik), isegoriya (so'z erkinligi) va «polis vatanparvarligi» ham qo'shilib, harbir fuqaroning polis hayoti bilan aloqalarini, ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashish imkoniyatlarini belgilab, xarakterlab bergan.<sup>61</sup> Aynan polis demokratiyasi, boshqarish usullari keyinchalik ijtimoiy-siyosiy institatlarning yirik idora sub'ektlari sifatida shakllanishida, krateologik ta'limotlarning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qilgan.

Afina demokratiyasining ichki ziddiyatlarga to'la voqelik sifatida shakllanishini Perikl misolida ko'rishimiz mumkin. Mashhur tarixchi Fukididning yozishiga ko'ra, Periklni nafaqat xalq boshqardi, shuningdek, u xalqni boshqardi. «So'zda bu demokratiya edi, aslida esa hokimiyat birinchi fuqaro-Perikl qo'lida edi.»<sup>62</sup> Ba'zi tadqiqotchilar Periklni avtokratizm, xatto monarhiyaga moyillikda ayblasthga intilishadi, biroq urush, ocharchilik, tanqislik sharoitida xalqni dushmanga qarshi safarbar etishni kimdir o'z ustiga olishi kerak edi-da. Aynan ushbu omillar bois Afinada ijtimoiy-siyosiy tuzum almashib, goh monarxiya, goh avtokratiya, goh demokratiya ko'rinishiga o'tib turgan. Shuning uchun ham, ushbu ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan kelib chiqib, qadimgi yunon shahar-davlatlarini Platon: 1) monarxiya-bir kishining hukmronligi yoki uning ashaddiy ko'rinishi tiraniya; 2) aristokratiya-ayrim, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdan xabardor kishilar boshqaruvi yoki uning ashaddiy ko'rinishi-oligarxiya; 3) demokratiya-xalq tomonidan boshqarilishi kabilarga klassifikatsiya qiladi. Eng muhimi shundaki, Platon demokratiyaga past nazar bilan qaragan va uni boshqarishning «eng yomon ko'rinishi» deb atagan.<sup>63</sup> K.Poper fikrlariga tayanib falsafa fanlari doktori V. Alimasov yozadi: «Demokratiya –deb yozadi Platon yo'qsillar g'olib chiqib, ular o'zining bazi dushmanlarini yo'q qilgan, boshqalarni badarg'a etib, qolganlarini huquqiy tenglashtirgach, lavozimlardagini almashtirgach yuzaga keladi.» Ajablanarli hol shundaki, Platonning umumiyy-nazariy qarashlaridan yulib olingan ushbu so'zlar uchun asrlar davomida

<sup>61</sup> Қаранг: Кошеленко Г.А. Греческий полоис на эллинистическом Востоке.- М.: Наука,1979.-12-14; Фролов Э.А. Огни диоскуров . Античнке теории переустройства общества и государства. Ленинград, Изд. Ленинградского ун-та,1984.-С. 13-14.

<sup>62</sup> Қаранг: Фролов Э.А. Огни диоскуров... С.16.

<sup>63</sup> Платон.Сочинения. т.4.- М: Мкель, 1994.-С.74.

faylasuflar, yozuvchi ahli uni «demokrat» atab keladi. Aslida Platon demokratiyaning ashaddiy dushmani bo‘lgan. Buni uning demokratlarni «ahloqsiz, ziqna, bezbet va sharmsizlar, qutirgan yovvoyi hayvonlar, nopol havaslarini qondirish uchun yashaydigan nafs quillari» deb atagan ta’riflaridan bilish mumkin. Hatto, Platon Afina demokratiyasi quillikni bekor qilishga borib yetganini ham hisobga olmay, xalq hokimiyatini eng qabih iboralar bilan haqoratlashdan qaytmaydi.<sup>64</sup>

Ushbu tanqidiy fikr K. Popperni, «Platon demokratiyaning ashaddiy dushmani»,<sup>65</sup> degan xulosaga olib keladi. Ba’zi mutaxassislarga, ayniqsa Platondan «hayot hikmati» va «ideal jamiyat» haqidagi dogmalar izlovchi faylasuflarga javoban aytish o‘rinlik, g‘arb falsafasi, ijtimoiy-siyosiy ta’limotlari bir-biriga tanqidiy yondashib, bir-birini nazariy boyitib rivojlanib keladi. K. Popperning o‘zi ham har qanday fikr tanqid qilinishi, ijtimoiy-siyosiy va gnoseologik tajribalar nuqtai nazaridan qayta baholanishini zarurligini uqtiradi: «biz o‘z xatolarimizdan o‘rganishga qodirmiz».<sup>66</sup>

Aristotelning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ustozni Platonnikiga yaqin bo‘lgan. «Aristotel ustozining yetuk davlat va uni faylasuflar boshqarishi haqidagi nazarlarini ham davom ettiradi. To‘g‘ri, u ibtidoiy davrga qaytishni talab etmaydi, aristokratiya, feodal va demokratiya idora usullarini murosaga keltirish tarafdori sifatida fikr yuritadi. Ko‘proq esa feodal idora usuliga yon bosadi. Bu borada u Platonning ayrim nazarlarini tanqid qiladi, ammo Aristotel hech qachon demokrat bo‘lmagan.»<sup>67</sup> Aristotelning ayollar va hunarmandlarga past nazar bilan qaragani<sup>68</sup> ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

«Agar Gesiod tarixni «oltin», «kumush», «mis», «yarim xudo-qahramonlar» va «temir» bosqichlariga bo‘lib, harbir davrga xos boshqaruvi usullari bo‘lganligini va faqat «oltin davr»gina demokratiyaga moyil bo‘lganligini ta’kidlasa, «etti donishmand» (Fales, Pittak, Periandr, Biant, Solon, Kleobul va Xilon) qarashlarida hammaning qonunlarga birdek itoat etishi zarurligi g‘oyalari ilgari surilgan. Solon (mil.avv. 6 asr) esa fuqarolar huquqini kamsituvchi va quillikni yoqlovchi Drakont («Drakon» ham deyiladi) qonunlarini bekor qilib, Afina fuqarolari davlatning idora ishlarida qatnashish huquqini, sud ishlarini esa xalq yig‘ini olib borishini ta’kidladi hamda Xalq Kengashini esa qonunlar qabul qiluvchi oliy hokimiyat deb e’lon qildi. Biroq quillar, xotin-qizlar va metek (kelgindi) lar bu organlar faoliyatida qatnashish huquqiga ega emas edilar».<sup>69</sup>

Sh.O.Mamadaliev antik davrdagi Elladada yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy tuzumlarni, jamiyat va davlat boshqarish usullarini, xalq hokimiyatchiligining genezisi bilan bog‘liq institutlar faoliyatini tahlil qilgan, o‘rgangan konsepsiylar borasida quyidagilarni deydi: «Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi xurfikrlik davlat, hokimiyat va jamiyat haqida turli nazariy konsepsiyalarni yuzaga keltirdi. Agar Xalkedonalik Faley yer-mulkka egalik qilishda tenglikka erishish g‘oyasini ilgari

<sup>64</sup> Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи.- Т.: Фалсафа ва хукуқ институти нашр.,2007.-126.

<sup>65</sup> Ўша жойда.

<sup>66</sup> Қаранг: Поппер К. Предложения и опровержения. – М.: ACT, 2004.-С.11.

<sup>67</sup> Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоғи.- Т.: Фалсафа ва хукуқ институти нашр., 2007.-16 б.

<sup>68</sup> Аристотель . Сочинение в 4 т. Т.4. – М.: Мысль, 1983.-С.272.

<sup>69</sup> Қаранг: Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт.- Т.: ИИВ Академия, 2003.- 48-49 б.

sursa, Gippodam (mil.avv. 5-asrning 2 yarmi) davlat hududlarini ilohiy, ijtimoiy va shaxsiy ko‘rinishlarga ajratib, ularning har birida o‘ziga xos idora usullari bo‘lishi zarurligini aytadi. Megaralik Feognid (mil.avv 6-5 asrlar) esa demos hokimiyatini inkor etib, bunday davlatni «xuddi boshqarib bo‘lmash kema»ga o‘xshatib, oljanob (aristokrat) kishilar boshqaradigan davlatda yashashni baxt-saodat deb hisoblaydi. Demokrit (mill.avv. 470-360 yillar) qul uchun ozodlik qanday qimmatli bo‘lsa, xalq uchun demokratiya ham shunchalik zarur, ammo davlatni yuksak aql va ahloq egalari boshqargani afzal, degan fikrni bildirsa, Pratogor (mil.avv. 481-411 yillar) hamma narsaning me’yori, o‘lchovi-inson; deb hisoblagan». <sup>70</sup> Demak, antik davr demokratiyasi zamonaviy talqindagi demokratik emas edi. Unda Konstitutsiya, davlat hokimiyatining taqsimlanishi kabi fundamental ahamiyatga ega yuridik normalar amal qilmagan.<sup>71</sup> Shuning uchun ham, «yunon mutafakkirlarining davlatni mustahkamlash, boshqarishni ahloq, aql, bilim bilan uyg‘unlashtirish haqidagi qarashlari real hayotda o‘z ijrosini topavermadı. Bunga nafaqat davlat, butun ijtimoiy-siyosiy hayot ham tayyor emas edi».<sup>72</sup>

Afina demokratiyasi va Rim respublikasi an’analari taxminan mil. I-asrgacha davom etdi, Yuliy Sezar diktaturasi davrida esa butunlay barham topdi. Shu davrdan boshlab Yevropada o‘z mavqeini mustahkamlashga, fuqarolarni o‘zining manfaatlariga xizmat qildirishni maqsad qilib qo‘yan davlat institutlari yuzaga keldi. Faqat VII asrga kelib avval Skandinaviya va Shveytsariyada, keyinchalik Venetsiya, Florensiya, Islandiya, Angliya, Niderlandiya, Belgiya kabi mamlakatlarda xalq xokimiyatchiligi institutlari paydo bo‘la boshlaydi. XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshiga kelib Yevropada zamonaviy demokratiyaga asos bo‘lgan siyosiy-falsafiy va huquqiy g‘oyalalar shakllanadi. Ushbu g‘oyalarda, davlat, hokimiyat «kishilar bilan murosa qilishi va ularning yordamiga muhtoj»,<sup>73</sup> degan fikr ilgari surildi. Demak, hokimiyatni xalqqa yaqinlashtirish, ular o‘rtasida hamkorlikni shakllantirish zarur. Shunday hamkorlik, yaqinlik bo‘lmasa, davlat, hokimiyat, zo‘ravonlik instituti sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotni mutlaq o‘ziga tobe etadi, fuqarolarning erkin yashashiga, oxir natijada ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘ladi. Bu borada J.Lokk, Sh.Monteske, J.J.Russo, G.Grotsiy, E.Vattel, Gelvetsiy, Didro, Golbax, Mele, G.Babef, A.Gamilton, T.Jeferson, T.Pen, XIX-asrda Kant, Fixte, Sen-Simon, Fure, Ouen, B.Konstan, I.Bentam, O.Kont, L.Shteyn, K.Marks, F.Engels, Aleksis de Tokvil, I.G.Gerder, Nitshe XX-asrda esa R.Shtammler, V.Diltey, V.Vindelband, R.Kroner, B.Kroche, U.Spirito, G.Kelzen, Y.Messner, E.Volf, K.Yaspers, R.Marchich, G.Xart, P.Shtrasser, N.A.Berdyaev, B.Rassel, E.Gibon, K.Popper, F.A.Xaek, R.Aron, R.Dal, A.Arendt, T.Adorno, G.Almond kabi tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy va falsafiy-huquqiy konsepsiylarini eslash o‘rinlidir. Ular shunchalik rang-barang va goho bir-biriga zidki, mazkur mavzuda ularni ochib berishning imkoniy yo‘q. Shunday bo‘lsada, biz tadqiqotimiz konsepsiyasidan kelib chiqib ulardagi eng muhim g‘oyalarni quyidagi yo‘nalishlarga ajratib, qisqacha bo‘lsada, to‘htalib

<sup>70</sup> Ўша асар.- 50 б.

<sup>71</sup> Гаджиев К.С. Политическая философия . - М.: Экономика, 1999.- С.18.

<sup>72</sup> Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт.- Т.: ИИВ Академия, 2003.- 52-536.

<sup>73</sup> Теория политики. Под ред. Б.А. Исаева.- СПб., Питер, 2008.- С.146.

o‘tishimiz mumkin.

## **I. Jamiyat va davlat ishlarida, boshqarishda, fuqarolar bilan munosabatlarda, adolatni ta’minlashda qonunlarga rioya etish.**

Ushbu yondashuv, g‘oya tabiiy va iroda ifodasi bo‘lgan huquq tarafdarlari bo‘lgan G.Grotsiy, J.Lokk, J.J.Russo, T.Jeferson tomonidan ishlab chiqilgan va ilgari surilgan. Masalan, G.Grotsiyning fikriga ko‘ra, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar fuqarolar tomonidan ishlab chiqilishi va ular tomonidan qabul qilingan normalar (fuqarolik huquqi) bilan belgilanishi mumkin. Bu o‘rinda davlat «erkin kishilarning yetuk ittifoqi»<sup>74</sup> sifatida keladi, bunday ittifoqni kishilar umumiy foyda va huquqlarga rioya etish uchun zarurdir.<sup>75</sup> Eng muhimi shundaki, G.Grotsiy ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-huquqiy ta’limotlar ichida birinchi bo‘lib «xalq huquqini» o‘rgandi va uni davlat huquqi, ilohiy huquq, tabiiy huquqlar bilan bir qatorda qaradi. Uning davlat va fuqarolar o‘rtasida tuziladigan «shartnoma konsepsiysi» davlat institutini, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, demokratlashtirish tomon tashlangan yirik qadam edi.

## **II. Davlat institutining fuqarolarning shaxsiy hayotiga, ayniqla iqtisodiy faoliyatiga aralashishini cheklash, liberal-iqtisodiy demokratiyanı qo‘llab-quvvatlash va shakllantirish.**

G‘arbona demokratiya davlatning shaxsiy hayotga, fuqarolarning iqtisodiy faoliyatiga, ayniqla xususiy mulkni shakllantirish bilan bog‘liq faolligiga aralashmasligining tarafdiridir. Ushbu fikrini A.Smit, I.Bentam, J.S.Mill, B.Konstan kabi tadqiqotchilar himoya qilib chiqqan.

Ushbu g‘oyani tarix sahnasiga chiqayotgan burjuaziya qo‘llab-quvvatladidi. Erkin savdo-sotiq, tovar ishlab chiqarish, mehnat jarayonlarini tashkil etish, xususiy mulk dahlsizligiga erishish kabi tartiblar burjuaziya manfaatlariga va jamiyat taraqqiyotiga mos kelardi. Masalan, K.Bentam fikriga ko‘ra, davlatning iqtisodiyotga aralashishi nomaqbul holdir, «chunki u salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin».<sup>76</sup>

Ushbu g‘oyaning ijtimoiy taraqqiyotga ta’sirini o‘rganish ko‘rsatadiki, u «davlat va jamiyatni boshqarish tamoyillari sifatida shakllanib, hokimiyatni taqsimlash, parlamentarizm, nodavlat tashkilotlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining konstitutsion asoslarini yaratishga olib keldi. Natijada davlatning, ayniqla ma’muriy idoralarning fuqarolar hayotiga, tashabbusiga bo‘lar-bo‘lmas aralashishini cheklash, kishilarning hukumat faoliyati ustidan nazoratini o‘rnatish imkonи yaratildi. «Iqtisodiy erkinlik inson (shaxs) ning siyosiy va fuqarolik huquqlari zaminidir. Shuning uchun ham mumtoz liberalizm xususiy mulkni himoya qilishni, uning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratishni o‘zining bosh vazifasi deb biladi.»<sup>77</sup>

Hozirgi paytda ushbu g‘oyadagi individualizm va utilitarizm tanqid qilinmoqda, ularning jamiyatda k eskin tabaqlanishga olib kelishi qayd etilmoqda.

<sup>74</sup> Гороцкий Г. О праве войны и мира .- М.: Изд. юрид. лит-ры, 1956.-С.74.

<sup>75</sup> Ўша асар. – С. 48.

<sup>76</sup> Адилходжаева С.М. Либерализм: эволюция идей от прошлого до настоящего(теория и практика). Т.: ТГЮИ, 2002.- с.18.

<sup>77</sup> Алимасов В.. Фалсафа ёхуд фикрлаш чанқоги. – Т.: Фалсафа ва хуқук институти нашр., 2007.- 159-160 б.

Shuning uchun Nobel mukofotining laureati F.A.Xaek davlatning iqtisodiyotga, ijtimoiy boyliklarni adolatli, qonuniy va umumiy taraqqiyot nuqtai nazaridan taqsimlashga aralishishi zarur deb hisoblaydi. Chunki xususiy sektor barcha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish imkoniga ega bo‘la olmaydi.»<sup>78</sup>

### **III. Siyosiy partiylar, nodavlat tashkilotlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ixtiyoriy, ijodiy uyushmalar-fuqarolik institutlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning keng tarmoqlarini shakllantirish.**

Demokratiyani fuqarolarning siyosiy va madaniy-ijodiy faolligisiz tasavvur etish qiyin. Uni siyosiy madaniyat ham deyishadi. Ushbu g‘oya XIX asrdan beri siyosiy-falsafiy adabiyotlarda uchrab kelsada, uni ilmiy konsepsiya, nazariya sifatida ishlab chiqishi Aleksis de Tokvil, G.Almond, S.Verbi, R.Inglxart, U.Rozenbauem kabi tadqiqotchilar nomi bilan bog‘liqdir.

G.Almond va S.Verbinning fikriga ko‘ra, fuqarolarning siyosiy madaniyati, faolligi demokratik jamiyatning bosh ko‘rsatkichi va mezoni hisoblanadi. Ular «kognitiv yo‘naltirilganligi», «affektiv yo‘naltirilganligi» va «baholash nuqtai nazaridan yondashishi» kabi komponentlarni kiritishadi.<sup>79</sup>

Rossiyalik A.I.Solovev, B.A.Isaev, R.T.Muxaev, K.S.Gadjiev, E.Xeyvud, G.G.Diligenskiy, A.Ramazanov, A.V.Gluxova, I.Xakamada, M.M.Lebedova, M.G.Anoxin, V.V.Ilin, L.A.Nudenko, K.Kostyuk, A.I.Denisov, N.M.Keyzerov, L.Tixomirov kabi tadqiqotchilar<sup>80</sup> siyosiy madaniyatga taalluqli muammolarning u yoki bu qirralarini o‘rganishgan. Ulardagi asosiy fikr, konsepsiya shundaki, g‘arb demokratiyasi ham, Rossiya siyosatshunosligi va krateologiyasi ham fuqarolik jamiyatida siyosiy partiya lar-davlat-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar qaysi-g‘arb demokratiyasiga mos individual-liberalizmmi yoki avtokratizm, monarxiyaga olib keluvchi kommunitarpaternalizm yo‘nalishida kechadimi degan savolga xali javob topgani yo‘q. AQSh o‘zining global liderlik funksiyasini bajarishga intilayotgan bo‘lsa-da, undagi demokratiya usullari, saylov jarayonida olib boriladigan ko‘zbo‘yamachilik, g‘irromlik va laqillatishlar, k eskin tabaqlanish<sup>81</sup> mazkur tuzumning yetuk emasligidan dalolat beradi. Lekin barcha tadqiqotchilar fuqarolik institutlarini kengaytirish, siyosiy faoliyat orqali kishilarni demokratik o‘zgarishlarga jalb etishning ilmiy, shu jumladan, etnomadaniy mexanizmlarini yaratish zarur degan fikrda bir-birini qo‘llab-quvvatlaydilar.

Tajriba ko‘rsatadiki, siyosiy madaniyati va faolligi past xududda, aholi qatlamida demokratik o‘zgarishlar qiziqish uyg‘otmaydi. Shuning uchun ushbu «jarayonlarning kim (shaxs, jamiyat, xalq, davlat) tomonidan, qanday usullari (avtoritar, demokratik va boshqa) bilan boshqarilishiga qarab, jamiyatning strategik maqsadini, taraqqiyot modelini aniqlash mumkin.»<sup>82</sup>

### **IV. Kuchli davlat yaratish va milliy davlatlarning kuchli bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash**

<sup>78</sup> Ўша жойда -159-161 б.

<sup>79</sup> Қаранг: Антология мировой политической мысли. В 5 –ти т. Т.2.- М.: Инфра, М., 1997.- С.594-595.

<sup>80</sup> Ушбу тадқиқотчиларнинг асосий асарлари китоб охиридаги «Фойдаланилган адабиётлар рўйхати»да келтирилган.

<sup>81</sup> Қаранг: Флинт Л. Секс, ложь и политика. Голая правда.- М.: ACT, 2006

<sup>82</sup> Мусаев Ф. Демократик хуқукий давлат куришнинг фалсафий-хукукий асослари.- Т.: O’zbekiston, 2007.- 250 б.

Demokratiya sharoitida davlatning kuchli bo‘lishi e’tiroz uyg‘otishi mumkin. Ammo ushbu g‘oyani siyosiy-falsafiy konsepsiya sifatida asoslanishini AQShlik mashhur faylasuf, sotsiolog va futurolog F. Fukuyama amalga oshirgan.

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, keyingi o‘ttiz yil ichida davlat institutini zaiflashadirishga intilishdi. Bu demokratiya, inson huquqlari, fuqarolik jamiyatni qurish, bozor iqtisodiyoti, liberal qadriyatlarni shakllantirish, totalitar tuzumlarni yo‘q qilish kabi shiorlar, da’vatlar, fikrlar ostida amalga oshirildi. Natijada zaif davlatlarda insoniyat hayotiga xavf soluvchi-terrorizm, OITS, qashshoqlik, ekstremizm kabi global illatlar paydo bo‘ldi. AQShda 2001 yil 11 sentyabrda sodir etilgan mash‘um hujum zaif davlat global illatlarni bartaraf etishga qodir emasligini ko‘rsatdi. «Faqat davlat, - deb yozadi F. Fukuyama - faqat kuchli davlat tartibni ta’minlovchi kuchlarni birlashtirishi va maqsadga muvofiq joy-joyiga qo‘yishi mumkin. Bunday kuchlar mamlakat ichida qonunlar boshqarishini va xalqaro tartibni saqlashni ta’minalashi mumkin.»<sup>83</sup>

Shuning uchun yangi paydo bo‘lgan milliy davlatlarga va muammolarni hal etishga zaif davlatlarga yetuk davlatlar, eng avvalo AQSh, demokratiyani shakllantirishga yordam berishi zarur. To‘g‘ri, F. Fukuyama AQSh demokratiyani ushbu davlatlarga joriy etishi kerak degan fikrni bildirmaydi, ammo uning «etuk demokratik davlatlar» deganida eng avvalo AQShni nazarda tutayotganini sezishi qiyin emas. Biroq faylasufning milliy davlatlarni kuchaytirishni nafaqat xalqaro tartibni, xavfsizlikni ta’minalash, shuningdek, milliy davlatlarda demokratik qadriyatlarni shakllantirish sharti sifatida qaragani ijobjiy holdir. Ayniqsa ayrim tadqiqotchilar, siyosatshunoslar AQShni global lider, demokratik qadriyatlarni umumplanetar miqyosda shakllantirishga qodir yagona davlat sifatida qarayotganida, milliy davlatlar ustidan AQSh gegemonligini o‘rnatishga da’vat etayotganida<sup>84</sup> F. Fukuyamaning konsepsiyasi maqtovga loyiqidir.

Yuqoridaqilardan ma’lum bo‘ladiki, g‘arbona demokratiyaga oid konsepsiyalarda ijobjiy tomonlar bilan birga ziddiyatli fikrlar ham mavjud. Lekin ularda ham demokratiya va demokratik taraqqiyotning etnomadaniy va etnosotsial jihatlari e’tibordan chetda qoladi. Aynan ushbu kamchilik «sivilizatsiyalar to‘qnashuvi» ni keltirib chiqarayotgan bosh sabablardan biridir.

#### **4- MAVZU : Soxta sotsialisik demokratiyadan haqiqiy milliy demokratik taraqqiyotga o‘tish-ob’ektiv ijtimoiy zaruriyat**

##### **Reja**

- Sotsialistik demokratiyaning mazmun-mohiyatiga yondashuvlar**
- Milliy demokratik taraqqiyotga o‘tishning ob’ektiv ijtimoiy zaruriyatligi**

**Tayanch so‘z va iboralar :** Soxta sotsialisik demokratiya; ob’ektiv ijtimoiy

<sup>83</sup> Фукуяма Ф. Сильное государство: Управление и мировой порядок в XXI в. – М.: АСТ, ХРАНИТЕЛЬ, 2006.-С.199.

<sup>84</sup> Карапг: Сорос Дж. О глобализации.- М.: ЭКСМО,2004; Флинт.Л. Секс, ложь и политика. Голая правда.- М.: АСТ,2006.

zaruriyat; Tranzitologiya; Totalitar tuzum; Dinamik sistemalar; ijtimoiy tenglik g‘oyasi; N.Makiavelli.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida muhim ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlar ro‘y berdi - kommunistik dogmaga qurilgan, SSSR deb atalgan totalitar tuzum tarqatilib, uning o‘rniga mustaqil milliy davlatlar yuzaga keldi. Yurtboshimiz so‘zlari bilan aytganda: «Jahon yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davrning o‘ziga xos belgilari, bir tomonidan, davlatlar va xalqlar o‘rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning yuzaga kelishi, yagona xalqaro me’yorlar (normalar), qoidalar va andozalarga o‘tish bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, unitar tizimlar o‘rnida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishidir.»<sup>85</sup> Ushbu fikrlarini davom ettirib I.A.Karimov qayd etadi: «SSSR parchalanib ketgani, boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik uslubini targ‘ib etuvchi va yuqoridan ko‘rsatma bilan (direktiv) rejalashtirishga hamda resurslarni markazlashtirilgan tartibda, o‘zboshimchalik bilan taqsimlashga asoslangan sotsialistik xo‘jalik yuritish usulining tarixiy tajribasi barbod bo‘ldi.»<sup>86</sup>

Totalitar tuzumning barbod bo‘lgani ijobiy va qonuniy hol, albatta. Chunki u milliy davlatlarning ichki ehtiyojlari, etnomadaniy va etnosotsial talablariga muvofiq rivojlanishiga yo‘l ochib beradi. Biroq aqlo idrok, ayniqsa ilmu tafakkur ushbu fikrni shunchaki qabul qilmaydi, u butun insoniyatni, ijtimoiy borliqni larzaga va hayratga solgan yemirilishning sabablarini, etnologiyasini bilishni, anglashni istaydi. Bu shunchaki gnoseologik qiziqish yoki o‘tkinchi xohishni qondirish uchun emas, balki murakkab munosabatlarga qurilgan dinamik tizimlarning yuzaga kelishi, yuksalishi va rivojlanishi qonunlarini anglash, kelgusida shunday yemirilishlar, fojealar yuz berishining oldini olish uchun zarurdir. Busiz jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minalash ham, davr talablariga muvofiq demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish ham qiyin.

Sho‘rolar hukumi, kommunistik mafkura jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minalash uchun harbiy qudratini oshirish bilan birga sotsialistik demokratiya g‘oyasini jamiyatga singdirishga intildi. Shu maqsadda u umuminsoniy demokratiyaning, o‘zining sinfiylik konsepsiyasiga muvofiq, ikkiga - taraqiyparvar va xalqparvar sotsialistik demokratiya hamda g‘ayriinsoniy burjuva demokratiyasiga ajratdi.

Markscha-leninchcha nazariyaga ko‘ra, sotsializmda kishilar asosiy mehnat faoliyatidan keyin bo‘sh vaqtlarida, ixtiyoriy tarzda jamiyat va davlatni boshqarish

<sup>85</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон : миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т.: «Ўзбекистон», 1996.- 274 б.

<sup>86</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон : миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т.: «Ўзбекистон», 1996.- 275 б.

ishlari bilan shug‘ullanadilar. Ushbu vazifani aholining faol, ongli qismiishchilar (proletariat) amalga oshiradi. Shuning uchun ham sho‘rolar davrida vakillik organlaridagilarning 70-75%ni ishchilar tashkil etgan.

Leninning «har bir kuxarka davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etadi» degan bashoratining to‘g‘riligini tasdiqlash uchun davlat hokimiyatining quyi organlaridan tortib to‘oliy organlargacha boshqarish ishlaridan behabar, goho unga hech qanday ko‘nikmasi yo‘q KPSS a’zosi, slesarlar, mexanizatorlar, partiya siz, ammo ko‘p bolali uy bekalari tortilgan. Har bir partiya s’ezdlarida partiya safiga, boshqaruv idoralari va vakillik organlariga qancha ishchi -dehqon tortilgani e’lon qilinib, bu bilan sotsialistik demokratiyaning afzalligi, yutuqlari ko‘z-ko‘z qilingan. Sho‘rolar amal qilgan huquqiy nigelizm, «davlat va huquqiy hayotni tashkil etishda chuqur demokratik an’analarning yo‘qligi, davlat organlaridagi mas’ul shaxslarda siyosiy va huquqiy ong hamda madaniyatning yuqori emasligi, joylarda siyosiy hayotning rivojlanmagani, jahon revolyusiyasi natijasida kommunizmga o‘tishda davlat va huquqning amal qilishi haqidagi qarashlar, barchani tenglashtirish, ishlab chiqarishni va taqsimlashni markazlashtirish» o‘zbek xalqi va jamiyatini demokratik talablarga muvofiq tashkil etish haqda davlatini boshqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.<sup>87</sup> Demak, SSSR- ning yemirilishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilangina bog‘liq emas, u sistemali xarakterga ega. Inqiroz butun tuzum, sistemanini, butun tizimlarni qamrab olgan edi.

SSSR qo‘llab-quvvatlagan sotsialistik demokratiya, jamiyatni muqim, barqaror, tekis ishlab turishga qaratilgan. Ijtimoiy taraqqiyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, mudom muqim, barqaror, tekis hayot kechiradigan sistema o‘zidagi rivojlanishga, o‘zgarishga moyil kuchlarni bosib turishga majbur. O‘ta muqim sistema rivojlanish qonunlariga zid, u xatto evolyusion o‘zgarishlarga toqat qilolmaydi.<sup>88</sup> Bunday sistema totalitar boshqarish usullarini ma’qullaydi, va ayni vaqtida qat’iy normalar, tartiblar, tashqi va ichki omillar talablarini tan olmaydi.. Sho‘rolar hukumatining xurfikrlikni, erkinlik sevadigan, o‘zining aqlu idrokiga ijodiy va intellektual kuchiga ishonadigan kishilarni, ziylolarni qatog‘on qilgani totalitar tuzumning ijtimoiy o‘zgarishlarni yoqtirmasligining yaqqol natijasi edi. Xalqlarni tashqi olamdan, boshqa xalqlar, millatlar bilan integratsiyaga kirishib yashashdan mahrum qilish ham ana shu siyosatning mahsulidir. Demak, ijtimoiy taraqqiyot mutlaq qotgan, mutlaq muqim sistemanini, ayniqsa jonli munosabatlarga asoslanadigan dinamik sistemanini, ya’ni mutlaq barqarorligini rad etadi. Faqat tashqi muhit va ichki omillar dinamikasi, o‘zaro ta’siri sistemaning yashovchanligini ta’minlaydi. Sho‘rolar hukumi ijtimoiy - dinamik sistemaga xos bo‘lgan ushbu qonuniyatni rad etdi, jamiyatni ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga muvofiq emas, qotib qolgan, kabinetda yaratilgan sotsialistik demokratiya g‘oyasiga muvofiq yashashini ta’minlamoqchi bo‘ldi.

Dinamik sistemalar bir-birlari bilan to‘qnashib, raqobatga, musobaqaga kirishib turadigan, ichki ijodiy kuchlarni izlanishga undaydigan qismlardan iborat

<sup>87</sup> Халилов Э. Высший законодательный орган Республики Узбекистан: от формального представительства до реального парламентаризма.- Т.: Ўзбекистон,2001.- С.34.

<sup>88</sup> Каранг: Переходы и катастрофы: опыт социально-экономического развития.- М.: Экономика, 1994.- С.11-14.

bo‘ladi. Natijada sistema ichida sistemani shakllantiruvchi va sistemani o‘zgartiruvchi jarayonlar kechadi.<sup>89</sup> Agar keyingi jarayon birinchisidan ustun kelsa, sistemada ularni uyg‘unlashtiruvchi «integrativ impuls», kuch bo‘lmasa, sistema bir kunimas bir kuni o‘z muvozanatini, barqarorligini yo‘qotadi.<sup>90</sup> Agar ushbu ijtimoiy taraqqiyot qonuni sho‘rolar davriga tadbiq qilsak quyidagi holni kuzatamiz.

Sho‘rolar hukumatining g‘ayri milliy va g‘ayri insoniy siyosatiga ongli, ma'rifatli, erkparvar va xalqparvar kishilar mudom qarshi chiqqanlar, ular hukumatni insoniylashtirish va demokratlashtirishga da’vat etganlar. Bu o‘rinda jadidlarni eslash mumkin. Ammo sho‘rolar hukumati ma'rifatparvar, taraqqiyotparvar jadidlarning da’vatlariga emas, balki ularni «xalq dushmanlari» deb atagan stalinistlarni qo‘llab-quvvatladi. Jadidlar jamiyatni dinamik tarzda o‘zgartirishga, mavjud ijodiy kuchlardan unumli foydalanishga da’vat etdilar, biroq turg‘unlik, muqimlik, o‘ta barqarorlik tarafдорлари bo‘lgan, ammo hokimiyatni o‘z qo‘liga to‘plagan stalinistlar ularni jismonan yo‘q qilish bilan o‘z niyatlariga erishdilar. Ammo bu muvafaqqiyat pirovard natijasida sarob, vaqtincha bo‘lib chiqdi.

Dinamik sistemalardagi «beqaror muvozanat» asosan adaptatsiya-moslashishning uch turi orqali ro‘y beradi:

- 1) qismlar (podsistemalar) ning bir-biriga moslashuvi;
- 2) qismlarning alohida yoki uyg‘un, birlashgan xolda keng sistema talablariga, rivojlanish yo‘llariga moslashishi;
- <sup>3)</sup> keng sistemaning o‘zidan keng sistemalar talablariga yoki taraqqiyot yo‘llariga adaptatsiyasi, moslashishi.<sup>91</sup>
- 4)

Agar adaptatsiya qonunlari buzilsa yoki o‘zgarishlar boshqa tizim (podsistema) lar yoki umumiyligi tizim (sistema) talablariga mos kelmasa, o‘zining ochiqligini, dinamik hodisa ekanini namoyon qila olmasa to‘qnashuvlar, nizolar, noroziliklar, oxiri, natijasida esa inqiroz yuzaga keladi. Adaptatsiya jarayonlarining tuzilishi yoki adaptatsiya qonunlarining buzilishi taraqiyparvarlar yoki destruktiv kuchlarning noroziligiga yoki bosh ko‘tarishiga sababchi bo‘ladi.

Sho‘rolar davrida siyosiy soha (tizim, podsistema) iqtisodiy soha (tizim, podsistema) talablariga, ular esa ma’naviy-madaniy soha (tizim, podsistema) talablariga mos kelmagan. Masalan, siyosiy sistema dunyoda tezroq kommunizm qurishni, sotsialistik demokratiyani shakllantirishni istagan. Shuning uchun, u harbir farroshni siyosiy faol qilishga, davlat ishlarini boshqarishga jalb etishga intilgan. Ushbu g‘ayrihayotiy talabni u ma’muriy yo‘l bilan, yo‘q narsani bor qilib ko‘rsatish, soxta demokratiya yaratish bilan amalga oshirdi. Boshqarish ishlariga jalb qilinganlarning vazifalari esa tepadan tushirilgan qarorlarni yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlashda ularga bir ovozdan ovoz berishlarida ham ko‘zga tashlanadi.

<sup>89</sup> Галкин А.А. Стабильность и изменения сквозь призму культуры мира // Полис, 1998, №5.- С.84-86.

<sup>90</sup> Володенков С.В. Модели динамики политических процессов в условиях переходного периода // Вестник Моск.ун-та, 1999, №6.- С.37.

<sup>91</sup> Украинцев В.И. Самоуправляемые системы и причинность.- М.: Мысль, 1972; Пригорожин и., Стенгерс И. Порядок из хаоса.- М.: Прогресс; Галкин А.А. Стабильность и изменения сквозь призму культуры мира // Полис, 1998, №5

Surxondaryo yoki Qoraqalpog‘istondagi chekka bir qishloq yoki ovuldagi kishilar nomini ham eshitmagan, ko‘rmagan ammo markazda ishlaydigan, politbyuro a’zosini partiya s’ezdlariga, oliv vakillik organlariga saylashga majbur qilingan. Bu siyosiy tizim (soha, podsistema) ning boshqa soha (tizim, podsistema) qiziqishlarini, talablarini mensimaganiga, ulardan o‘z qiziqishlarini ustun qo‘yganiga misoldir. Siyosiy, harbiy sohalarga ajratilgan mablag‘lar yildan yilga oshgani holda, madaniyatga, maorifga ajratiladigan mablag‘ kamaytirilgan, atigi milliy daromadning 2,3-3% ni tashkil etgan. Siyosiy, harbiy sohaga ajratilgan mablag‘lar esa ular 3-4 barobar ziyod edi. Xullas, sho‘rolar hukumati sohalar (tizim, podsistema) o‘rtasidagi muvozanatni hisobga olmagan, ularni qo‘llab-quvvatlovchi stimullarni o‘zboshimchalik bilan o‘zining strategik maqsadi - dunyoda kommunizm qurish, kapitalistik tuzumni, burjua demokratiyasini yengishga qaratgan.

Soha (tizim, podsistema) lar alohida yoki uyg‘un xolda umumiyligi tizim, keng sistema bilan munosabatlarga kirishib, ijtimoiy hayotni dinamik tarzida o‘zgartirib, boyitib, rang-baranglashtirib turadi. Shuning uchun ushbu munosabatlar paralel holda, ya’ni keng sistemadan sohalarga, sohalardan keng sistemaga yuz beradi. Totalitar tuzumda ushbu munosabatlar keng sistemadan, ya’ni tepadan pastga, ichki qismlarga yuboriladi. Bu aslida ma’muriy-buyruqbozlik boshqarish usulidir.

Siyosiy tizim, ma’muriy boshqarish usuli sistemaga hos bo‘lgan adaptatsiya qonunlarini hisobga olmaydi, balki uning o‘zi adaptatsiya qonunlari yaratadi. Shuning uchun u KPSS s’ezdlari qabul qilgan dasturlar va rezolyusiyalarni, siyosiy byuro tasdiqlagan ko‘rsatmalar va rejalarini, markaziy idora ishlab chiqqan normalarni tepadan pastga yuborib, sun‘iy adaptatsiya mexanizmlaridan foydalangan. Milliy o‘lkalar va Respublikalar bilan markaz o‘rtasidagi to‘qnashuvlar aslida ana shu adaptatsiya qonunlarini buzilishi, ya’ni ichki qism (tizim, podsistema) larga o‘z tasavvurlarini, qarashlarini, normalarini zo‘rlab singdirish sababli yuzaga kelgan.

Adaptatsiyaning uchinchi turi dinamik sistemalar mohiyatan ochiq ekanini ifoda etadi. Dunyo, insoniyat, xalqaro aloqalar adaptatsiyani eng yuqori bosqichga ko‘taradi. Ya’ni alohida olgan (xalq, davlat) boshqa sistema (xalq,davlat)lar bilan integratsiyaga kirishmay, umumjahon taraqqiyoti talablariga moslashmay yashay va taraqqiy eta olmaydi. Sho‘rolar tuzumi tor sistema edi, u o‘z lageridagi sistemalar bilangina aloqa o‘rnatgan. Kapitalistik yo‘ldan borayotgan tuzumlarning o‘zining dushmani deb bilgan, shuning uchun ular bilan aloqa qilgan yoki chet mamlakatlarga borib kelgan, chet tillardagi OAV larini oladigan, ulardagi ahborotlardan foydalanadigan kishilarni alohida nazorat ostida ushlagan. Xullas, jamiyatning barqaror rivojlanishi sistema ichidagi «beqaror muvozanat»ga, ya’ni ichki va tashqi omillar ta’siriga muvofiq sistemaning dinamik o‘zgarishiga, rang-barang integratsiya talablariga moslashishiga bog‘liqdir.<sup>92</sup> Mutlaq barqaror, mutlaq muqim, mutlaq o‘zgarmas sistema yo‘q, evolyusion o‘zgarish dinamik sistemalarning ichki qonunidir. Sotsiumning ichki va tashqi tasirlarga

<sup>92</sup> Шабров О.Ф. Политическое управление: проблема стабильности и развития.- М.: ЭКСМО – ПРЕСС, 1997.- С.18-21.

munosabatida sistemaning taraqqiyotga yoki turg'unlikka, tanazzul moyilligi aks etadi.<sup>93</sup> Shuni ham esda tutish kerakki, o'zgarishga, notejis rivojlanishga moyil dinamik sistema (jamiyat, davlat) o'tish davriga duch keladi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotga mutlaq yangi qadriyatlarni qaror toptirish, taraqqiyotning yangi modelini joriy etish ob'ektiv zaruriyatga aylanganida sistema revolyusion, tub islohotlarni o'tkazishga majburdir.

Ilmiy adabiyotlarda totalitar tuzumdan milliy taraqqiyotga o'tish, ilg'or davlatlarda qaror topgan demokratik boshqarishni joriy etish tranzitologiya nomini olgan. Tranzitologiyani goho avtokratizmdan demokratizmga o'tish deb ham talqin qilishadi, xullas, «demokratik tranzit» atamasi bugun ilmiy iboraga kirgan.<sup>94</sup>

To'g'ri, ba'zi mualliflar va tadqiqotchilar «yangi demokratiya», «shakllanayotgan demokratiya», «taqlidona demokratiya», «infantil demokratiya», «global demokratiya» kabi atamalarni ham ishlashishadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonga nisbatan, uning etnomadaniy va etnosotsial o'ziga xosligini himoya qilayotganidan kelib chiqib, «milliy demokratiya» yoki «milliy demokratik taraqqiyot» atamasini qo'llash to'g'ridir.

Mustaqillikka erishgan davlatlar soxta demokratiyadan birdaniga voz kechish imkoniga ega emas, chunki mavjud sotsialistik an'analar va shakllantirilgan institutlar ijtimoiy hayotda mustahkam o'rnatish olgan edi. Bu esa qator muammolarni, milliy demokratik taraqqiyotga o'tishning strategik maqsadlari aniq belgilab olish bilan bog'liq ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Ushbu muammolar va ziddiyatlarni mavzu doirasida sanab o'tish, ko'rsatish va qisqa bo'lsada, ular mohiyatini ochib berish lozim. Ana shunda demokratik tranzitning soxta sotsialistik demokratiyadan farqli jihatlari va ahamiyati yoritiladi. Ular quyidagilarda aks etadi:

**Birinchisi**, shundaki, yangi demokratiyaga ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviyma'naviy va siyosiy sohada tub o'zgarishlar o'tkazish jamiyatda barqarorlikni, birlikni, internatsional aloqalarni saqlashga to'g'ri keldi. Bir tomondan, ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirish, islohotlar o'tkazish, ikkinchi tomondan, turli nizolardan jamiyatni asrash, mavjud pozitiv aloqalarni, ijtimoiy birlikni saqlash lozim edi. Ushbu vazifaning nihoyatda murakkab qaltis ekanini Rossiya, Tojikiston, Qирг'истон, Gruziya, Ukraina kabi davlatlarda yuzaga kelgan ichki nizolarni, siyosiy guruhlar o'rtasida kechayotgan kurashlardan sezish mumkin. Ular bozor demokratiyasiga o'tish va ijtimoiy-siyosiy borliqni birdaniga o'zgarishi xom xayol narsa ekanini ko'rsatdi. Bir-biriga zid bo'lган, yuqoridaq ikki yo'naliш demokratik o'zgarishlar qilish uchun ma'lum va aniq sub'ekt zarurligini, ushbu sub'ekt, kuch ijtimoiy hayotga ta'sir eta olish qudratiga, imkoniga va salohiyatiga ega bo'lishi zarurligini ko'rsatdi. Tabiiy ravishda, bunday kuch davlat bo'lishi mumkin edi. Biroq, yuqoridaq o'lkalarda davlat mavqeini pasaytirish, uni oddiy, xatto ixtiyoriy, havaskorlik uyushmasi darajasiga tushirib qo'yish, zaiflashtirish an'anasi yuzaga keldi. Mustaqillik barcha muammolarni o'zidan o'zi hal qiladigandek tuyuldi, ko'tarinlik, his-hayojonga berilish, o'tmishni va o'tmish

<sup>93</sup> Карапт: Сергеев В.М., Бирюков Н.И. В чем секрет «современного общества» //Полис, 1998, №2.- С.46-47.

<sup>94</sup> Карапт: Мельвиль А.Ю. Демократические транзиты (теоретико-методологические и прикладные аспекты).- М.: АСТ-РИПОЛ, 1999.- С.3-5.

yaratgan institutlarni, qadriyatlarni nigilistcha rad etish og‘ir fojealarga olib kelishi anglab yetilmadi. Jamiyatlarni, ijtimoiy hayotni bosh-boshdoqlik, buzg‘unchilik, bir-birini talash, boshqarishda esa xaos yuzaga keldiki, mustaqillikning dastlabki paytlarida yuzaga kelgan ko‘tarinkilik, quvonch va umidlar o‘tkinchi tuyg‘ular ekani, real demokratiya, tub o‘zgarishlar mutlaq yangilik, voqelik ekani ayon bo‘ldi. Mustaqillikni, u tufayli uyg‘ongan ezgu, oljanob maqsad va tuyg‘ularni reallikka aylantiruvchi sub’ekt, kuch, institut-davlat kerak edi. Jahonda yuz bergen «demokratlashtirish to‘lqinlari» ko‘rsatadiki, davlatning zaifligi, uning siyosiy kuchlar o‘rtasidagi kurashlar manbaiga aylanishi, tub o‘zgarishlar o‘tkazishga qodir kuchlarning yo‘qligi yoki yetarli emasligi har qanday ezgu, oljanob maqsad va tuyg‘ularni yo‘qqa chiqargan.<sup>95</sup> Demak, soxta sotsialistik demokratiyadan haqiqiy plyuralistik demokratiyaga o‘tish o‘zidan o‘zi ro‘y bermaydi, ushbu jarayonni amalga oshirishga tayyor va munosib siyosiy kuch-uyushgan, to‘laqonli ishlaydigan, ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qilishni hayotiy maqsadiga aylantirgan davlat darkor.

**Ikkinchisi**, sotsialistik demokratiya ijtimoiy tenglik g‘oyasini o‘ziga shior qilib olgan edi. Sodda kishilar uchun bu g‘oya maftunkor, jozibali va adolatli ko‘rinadi. Azaldan oddiy xalq, kishilar ijtimoiy tenglikni orzu qilib kelgan. Markscha-leninchha falsafa esa ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltirgan «adolatsizlikni» kuch bilan bartaraf etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladи va sotsialistik demokratiyani ushbu qarashiga asos qilib oldi. Ha, ijtimoiy tenglikdan, adolatdan hech kim, hech bir davr voz kechmagan, kishilar adolatsizlikni tiyish, jilovlash va bartaraf etish uchun jonini tikkanlar. Biroq sotsialistik demokratiya o‘ziga asos qilib olgan ijtimoiyadolat jamiyatning ongli, o‘qimishli, ijtimoiy hayot qonuniyatlaridan habardor qatlamni, burjuaziyan yo‘q qilishga, uni sinf sifatida tugatishga, bir sinf, ya’ni proletar demokratiyasini o‘rnatishga qaratildi. Ijtimoiy qatlamlar, sinflar, guruhlar o‘rtasidagi farqlarni bo‘rttirib, ularni bir-birini yo‘q qilishga da’vat etgan demokratiyani anglash, tushunish qiyin. Milliy demokratik taraqqiyot bunday yondashishni rad etadi, har qanday ijtimoiy munosabatlar insonni ulug‘lashga, uning sha’ni va huquqlarini ta’minalashga qaratilishi zarur deb biladi.

Shuningdek, mutlaq ijtimoiy tenglik yo‘q. Chunki kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishdagi ishtiroti, qo‘shadigan hissasi va nihoyat qobiliyati, ko‘nikmasi, faolligi harxildir.<sup>96</sup> Shuning uchun ijtimoiyadolat hamma uchun barobar, teng «mutlaqadolat» bo‘lishi mumkin emas.<sup>97</sup> Sotsialistik demokratiya ushbu «mutlaqadolat» ni o‘rnatmoqchi bo‘ldi, bu esa uni yuqorida gidek repressiv chora-tadbirlar ko‘rishga, insonning xususiy mulkka ega bo‘lish xohishini, iqtisodiy demokratik huquqlarini paymol qilishga olib keldi.

Milliy demokratik taraqqiyot esa insonning xususiy mulkka ega bo‘lish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda erkin va faol qatnashish huquqini tiklaydi. Mehnat nafaqat ijtimoiy, shuningdek, xususiy mulk, boylik yaratish manbaidir.

<sup>95</sup> Карапг: Теория политики. Под ред. Б.А. Исаева.- СПб., «Питер», 2008.- С. 292-296.

<sup>96</sup> Карапг: Хайек Ф.А. Общество свободных.- London,1990.- С.105-107.

<sup>97</sup> Карапг: Гаджиев К.С. Политическая философия .- М.: «Экономика», 1999.-С.388.

Kishini ushbu stimuldan mahrum qilish uni ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan ham mahrum qilish demakdir; bunday kishida yaratishga, qurishga, ishlashga qiziqish bo‘lmaydi.

**Uchinchisi** shundaki, o‘tish davrini boshidan kechirayotgan barcha davlatlar, xalqlar bir tomondan, ijtimoiy hayotini demokratlashtirish, liberallashtirish va modernizatsiyalashni ko‘zlasa, ikkinchi tomondan, o‘zining tarixiy-madaniy an’analarni, ma’lum bir sabablar bilan unutilgan yoki chetlab o‘tilgan siyosiy, iqtisodiy, diniy-ma’naviy qadriyatlarini qayta tiklashga intiladi. Ba’zi tadqiqotchilarda bunday tajriba e’tiroz uyg‘otadi, chunki traditsionalizm bilan modernizatsiyani uyg‘unlashtirish qiyin.<sup>98</sup> Haqiqatan ham, ushbu yondashishda e’tiroz uyg‘otadigan jihatlar mavjud. Traditsionalizm jamiyatni orqaga tortmaydimi? Jamiyatni o‘z an’analari qobig‘ida yashashga olib kelmaydimi? Modernizatsiyalash ijtimoiy munosabatlarni, hayotni mutlaq yangi, zamonaviy usullar va texnologiya asosida qayta qurish bo‘lsa, traditsionalizm bunday o‘zgarishlarga g‘ov bo‘lmaydimi?

O‘tish davrining barcha xalqlar, davlatlar uchun bir xildek ma’qul keladigan shaklini topish, yaratish qiyin. Biroq, bizning fikrimizcha, hech bir xalq, millat o‘zining etnomadaniy va etnosotsial tajribasidan voz kechgan holda, mutlaq yangi, xatto u boshqa o‘lkalarda, davlatlarda ijobiy natijalarga olib kelgan, ijtimoiy hayotini o‘zgartirgan bo‘lsa-da, paradigmmani to‘la qabul qilolmaydi. Evolyusion taraqqiyotga etnomadaniy va etnosotsial tajribalarga tayanish orqaligina erishish mumkin, demokratiya eksport qilish nafaqat xalqlar boshiga kulfatlar keltiradi, shuningdek, demokratiyaning o‘zini ham qadrsizlantiradi.

Sotsialistik demokratiyada ma’lum bir ijobiy tomonlar mavjudligini unutib, rad etib bo‘lmaydi. Masalan, xalq vakillarining takliflari ijroiylar hokimiyat tomonidan shu zahoti e’tiborga olinib, bajarilgan. Deputatlarning tashabbuskorligi, faolligi vatanparvarlik, xalqparvarlik va adolatparvarlik timsoli sifatida ko‘pgina yoshlarda havas uyg‘otgan, ularga hayot yo‘lini tanlashda ibrat, ideal bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu ijobiy jihatlarni milliy demokratik taraqqiyot unutishi mumkin emas.

**To‘rtinchisi** huquqiy davlat barpo etish bilan hokimiyatni personizatsiyalashdirish an’anasining yuzaga kelayotganida ko‘zga tashlanadi.<sup>99</sup>

O‘z paytida N.Makiavelli, yangi davlat shakllanayotganda kuchli shaxsga, hukmdorga ehtiyoj seziladi, degan edi. Totalitar tuzumdan mustaqil rivojlanishga, ayniqsa soxta sotsialistik boshqarishdan haqiqiy, milliy demokratik davlat barpo etishga o‘tish kuchli irodali, islohotlarni dadil amalga oshiradigan va o‘z atrofiga taraqqiyarvar kuchlarni yig‘ib, birlashtirib, ijtimoiy hayotni taraqqiyot sari yetaklaydigan siyosiy liderga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Kuchli davlatsiz yangi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va yangi demokratik qadriyatlarini

<sup>98</sup> Қаранг:Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию.- М.: АСПЕКТ-ПРЕСС, 1999.- С. 427-429.

<sup>99</sup> Қаранг: Васович В. Переход к демократии в посткоммунистических странах(парадоксы перехода - демократизации)// Вестник . Моск. ун-та,1998, №2.- С.31.

qaror toptirish mumkin bo‘lmanidek, kuchli siyosiy lidersiz ham kuchli davlatni tasavvur qilish qiyin. Demak, yangi ijtimoiy demokratik taraqqiyot qanday kuchli davlatga ehtiyoj sezsa, u kuchli siyosiy liderga ham shunday extiyoj sezadi. Kuchli davlat eng avvalo kuchli siyosiy lider yoki liderlar faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi mulohaza va fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, O‘zbekistonning soxta sotsialistik demokratiyadan haqiqiy, xalqimizning etnomadaniy va etnosotsial an’analari, tajribalariga mos keladigan milliy demokratik taraqqiyotga o‘tishi ob’ektiv zaruriyat edi.

## 5- MAVZU: O‘zbek davlatchiligi: tarixi, nazariyasi va qayta tiklanishi

### Reja

- 1.O‘zbek davlatchiligi shakllanishiga oid yondashuvlarning mazmuni
2. O‘zbek davlatchiligining qayta tiklanishi

**Tayanch so‘z va iboralar :** O‘zbek davlatchiligi; Tarixiy-arxeologik topilmalar; Amir Temur; Yevropotsentrizm; “Avesto”; Xoja Ahror Vali.

I.A.Karimovning o‘zbek davlatchiligini qayta tiklanishdagi o‘rni beqiyosdir. Buni hatto uning muxolliflari ham ochiq tan olishadi. Ammo uning ushbu beqiyos xizmati hali ilmiy, ayniqsa falsafiy-huquqiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan.

“O‘zbekiston tarixida, – deydi mustaqillikning ilk kunlarida I.A.Karimov, – yangi davr boshlanadi. Biz mustaqillikni qo‘lga kiritib, endilikda uni mustahkamlash va shuning asosida yangi,adolatli jamiyat qurish yo‘liga o‘tdik. Tarix shuni ko‘rsatdiki, istiqlolning qadri doimo baland bo‘lgan. Bugungi sharoitimidni oson deb bo‘lmaydi. Biz juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirdik. Oldinda yana qanchadan-qancha sinovlar turibdi. Bugungi murakkab vaziyatda tanlab olingan va azaliy milliy manfaatlarimizga, xalqimizning tabiatiga, ongiga ma’qul bo‘lgan yo‘ldan adashmaslik chorralari haqida, O‘zbekistonning porloq istiqbolga yetish yo‘li xususiyatlari to‘g‘risida gaplashib olishimiz zarur deb o‘layman”<sup>100</sup>. “Hozir bizning jamiyatimiz tarixiy chorrahada turibdi. Respublikani milliy davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy kamol toptiruvchi o‘z taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqishimiz zarur. Bu murakkab va mas’uliyatli palladir. Hozirda yashab turganlarning taqdirigina emas, balki ularning farzandlari, nevaralarining ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog‘liq bo‘ladi. Respublika tang holatlarni qay darajada tezroq bartaraf etishi, yakkahokimlik tizimining illatlarini batamom tugatishi, rivojlangan madaniyatli mamlakatlar darajasiga chiqib olishi shu narsa bilan belgilanadi. Biz hozir uzoq yo‘lning boshida turibmiz”<sup>101</sup>. Shunday “murakkab va mas’uliyatli pallada” Yurtboshimiz milliy mustaqil davlatni shakllantirish uchun o‘zbek davlatchiligining genezisini o‘rganishni va uning shakl-shamoyilini, to‘laqonli ishlashini ta’minlaydigan zamonaviy institutlarini hamda mexanizmlarini yaratishni kun tartibiga qo‘ydi. Yangi o‘zbek davlati sho‘rolar tomonidan tashkil etilgan, markaz amrini bajarishga qaratilgan, milliy manfaatlaridan uzoqlashtirilgan respublikadan farq qilishi shart edi. Yangi o‘zbek davlati ham mohiyatan, ham shaklan eski siyosiy tuzumdan, institutdan farq qilishi kerak e di.

Tarixiy-arxeologik topilmalar ko‘rsatdiki, O‘zbekiston hududida ilk odamlar miloddan 500-400 ming yillar ilgari paydo bo‘lgan. Tosh davriga oid eng qadimiy manbalar Toshkent viloyatidagi Ko‘lbuloq makoni va Farg‘ona

<sup>100</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.: Ўзбекистон, 1996. - 200 б.

<sup>101</sup> Ўша асар. – 39 б.

vodiysidagi Selengur qishlog‘idan topilgan<sup>102</sup>.

A.Sagdullaevning yozishicha, o‘rtal tosh (mezolit) va yangi tosh (neolit) davrlarida ovchilik, baliqchilik, dehqonchilik yuzaga keldi, natijada o‘sha davrlardan boshlab “Markaziy Osiyo tarixida yangi madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, paxsa va xom g‘isht qurilishda ishlatildi, qishloqlarda binokorlik ishlari, ko‘chalar, maydonlar, guzarlar barpo etish, ko‘p xonali uylar va katta-katta inshootlar qurish ishlari amalga oshirildi. Sug‘orma dehqonchilik vujudga kelib ariqlar ochildi, unumdar yerlardan keng foydalanib turli o‘simliklar (arpa, bug‘doy, javdar) ekildi, sabzavot ekinlari yetishtirish va mevachilik rivojlandi, kulolchilik va temirchilik vujudga keldi, zargarlik, to‘quvchilik, yigirish hamda to‘qimachilik rivojlandi”<sup>103</sup>. Bu ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar mulkiy munosabatlarning kelib chiqishini, siyosiy institatlarning paydo bo‘lishini tezlashtirgan. Ota urug‘i – patriarxat davrida “urug‘ jamiyatni ichida mulkiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Kulolchilik va temirchilik buyumlari ayrboshlash savdo mahsulotiga aylanadi. Ba’zi oilalarning qo‘llarida hunarmandchilik buyumlari, don va chorva mollaridan iborat boylik to‘plana boradi. Shu jarayonlarning o‘sib borishi va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida shahar va davlatlar paydo bo‘ladi”<sup>104</sup>. A.Sagdullaevning qayd etishicha, o‘lkamizdagи xalqlarning ijtimoiy-siyosiy birlik sifatida ajralishi, viloyatlarning ma’muriy, hududiy chegaralanishi ahmoniylardan ancha oldingi davrlarda ro‘y bergen<sup>105</sup>.

Mazkur fikrlarga Gerodot Strabon, Periegit, Aleksandriyskiy, Elian, Efor, Diodor, Kursiy Ruf, Arman va Ya.G’ulomov, V.M.Masson, E.A.Monchadskaya, I.V.Pyankov, E.V.Rtveladze, Iso Jabborov kabi olimlar o‘rgangan tarixiy-arxeologik manbalar<sup>106</sup> asos qilib olingan. Biroq yevropotsentrizmga moyil tarixchilar, mutaxassislar o‘zbek davlatchiligin XV asrning 20-yillarida Dashti Qipchoqning Sharqiy hududlarida tashkil topgan ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati bilan chegaralaydilar. Natijada, o‘zbek davlatchiligi haqida va o‘zbek xalqining shakllanishi, genezisi haqida ham tarixiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, noto‘g‘ri qarash yuzaga kelgan<sup>107</sup>.

O‘zbek davlatchiligin maxsus tadqiq etgan A.Ziyo tariximizga noto‘g‘ri yondashish sabablarini yevropotsentrizm, o‘lkamizni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bilan bog‘liq “buyuk davlatchilik shovinizmi” va kommunistik mafkuraning tazyiqi va milliy xalqlar o‘tmishining soxtalashtirilishi bilan

<sup>102</sup> Қаранг: Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларида. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –56.

<sup>103</sup> Ўша асар. –8 б.

<sup>104</sup> Ўша асар. –5 б.

<sup>105</sup> Ўша асар. –11. б.

<sup>106</sup> Қаранг: Древние авторы о Средней Азии (VI в. до н.э. – III в. н.э.) Хрестоматия. –Т.: Госиздат, 1940; Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиши тарихи. –Т.: Ўздаврнашр, 1959; Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. –М-Л.: Госиздат, 1964; Мончадская Е.А. О правителях Бактрии и Согда VI-IV вв. до н.э. –М., 1961; Ртвеладзе Э.В. Сайдов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси. –Т.: Адолат, 2001; Жабборов Исо. Антик маданият ва маънавият хазинаси. –Т.: Ўзбекистон, 1999 ва б.

<sup>107</sup> Мазкур муаммо Б.Ахмедовнинг “Ўзбек улуси” тадқиқотида батафсил муҳокама қилинган, “ўзбек давлати”, “ўзбек” атамалари этиологияси ва генезиси борасида зарур маълумотлар берилган. Қаранг: Ахмедов Б. Ўзбек улуси. –Т.: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашр., 1992.

bog‘laydi<sup>108</sup>. U kommunistik maqkuraning davlat fenomeniga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashilganini tanqid qilib yozadi: “Davlatchilik taraqqiyot va bosqichlariga ham baho berishda sinfiylikdan kelib chiqilgan, ya’ni “quldorlik” davlati, “feodal” davlat, “kapitalistik” davlat, “sotsialistik” davlat. Kommunizmga borib esa davlat degan tushuncha go‘yo yo‘qolib ketadi. Xullas, bunday qarashlarda hamma narsa bor, ammo eng asosiysi, davlatchilikning manbai xalq ekanligi tushunchasi yo‘q. Natijada o‘zbek davlatchiligi miloddan avvalgi VII asrdayoq qaror topgan bo‘lsada, ammo marksizm-leninizm ta’limoti bo‘yicha yurtimizdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum melodiy VI asrga qadar quldorlik, 1924 yilga qadar feodal, 1991 yilgacha esa sotsialistik mazmunga ega bo‘lib kelganligi sovet tarixshunosligida doimo uqtirib borilgan”<sup>109</sup>. Ushbu negativ holni, soxta yondashishni bartaraf etish uchun yangi tarixiy tafakkur zarur edi. O‘zbek davlatchiligiga ob’ektiv yondashmay, yevrotsentrizm va shovinizmni milliy demokratik taraqqiyot konsepsiysi bilan almashtirmay, xullas, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi quruq yerda paydo bo‘lmaganini, o‘zbek xalqi boy davlatchilik tarixiga va ijtimoiy-siyosiy tajribasiga ega ekanini ochib bermay yangi davlat qurish amri mahol edi. Shuning uchun gap yevropotsentrizm va shovinizmni tanqid qilishdangina iborat emas, tarixiy haqiqatni bilish yangi jamiyat barpo etish uchun lozim edi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning ushbu qonuniyatini to‘g‘ri va o‘z vaqtida ilg‘agan I.A.Karimov xalqimizni, millatimizni haqqoniy tariximiz bilan qurollantirish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu o‘rinda eng avvalo uning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asariga murojaat etish lozim.

Mazkur asarda o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini, ma’naviyatini, davlatchilagini o‘rganishga qaratilgan yaxlit ilmiy konsepsiya ishlab chiqilishi zarurligi qayd etiladi. Shu maqsadda I.A.Karimov tarixchi olimlarga, ijod ahliga murojaat etadi: “bir savol tug‘iladi: davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o‘zimizning zamon va makondagi o‘rnimizni aniq belgilab olishimiz kerakmi-yo‘qmi? Ya’ni, yurtimizda faol mehnat qilayotgan muhtaram akademiklar, olimlar, adiblar, noshirlar, avvalambor tarixchilarimiz birqalashib, mana shu savollarga javob topishi kerakmi-yo‘qmi?...”<sup>110</sup>

Xalq tarixinining, davlatchiliginining yaxlit konsepsiyasini yaratish ob’ektiv zaruriyatdir. Xalq, millat yangi jamiyat yaratishni maqsad qilib qo‘yar ekan o‘zining ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-madaniy tajribalariga murojaat etishi, ulardagi pozitiv jihatlardan ibrat, andoza olishi tabiiydir. Mashhur tarixchi va faylasuf A.Toyntobi ta’kidlaganidek, “tarixiy faktlar ushbu faktlarga bo‘lgan qiziqishni qondirish uchun emas, balki oxir natijada ijod uchun o‘rganiladi”<sup>111</sup>. Bu o‘rinda “ijod” so‘zini keng “ijtimoiy ijod” ma’nosida talqin qilish lozim. Demak, o‘zbek xalqi yangi jamiyat qurishga kirishgan, “ijtimoiy ijod” bilan shug‘ullanishga ahd qilgan ekan o‘zining etnomadaniy, etnosotsial va etnosiyosiy tajribasiga murojaat qiladi. Chunki, “O‘tmish uni anglagangagina xizmat qiladi, kelajak esa uning

<sup>108</sup> Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихини ўрганиш масалаларига доир // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам. №2. –Т.: “Шарқ”, 1999. –6-8 б.

<sup>109</sup> Ўша асар –9 б.

<sup>110</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999. –133 б.

<sup>111</sup> Тоинби А.Дж. Постижение истории. Сборник. –М.: Прогресс, 1991. –С.634.

haqiqiy bunyodkorigagina tegishlidir”<sup>112</sup>. Shuning uchun ham tarixchilar oldidagi vazifa “davlatchiligidan ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir”.

Ushbu fundamental ahamiyatga ega fikr tarixchilarimiz va butun ijod ahlini xalqimiz o‘tmishiga, uning ijtimoiy-siyosiy tajribasiga, ayniqsa er.avv. II-I minginchi yilliklardagi Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazm davlatlari tarixini, Amir Temurning markazlashgan kuchli davlat tashkil etishiga oid e’tiborli ilmiy tadqiqotlar olib borishga undadi. Bu borada B.Ahmedov, A.Asqarov, E.V.Rtveladze, T.Mahmudov, A.X.Saidov, H.B.Boboev, I.Jabbarov, A.Otaxo‘jaev, R.Muqminova, S.Hasanov, Sh.O‘ljaeva, A.Ziyo, T.Karimov kabi tadqiqotchilarining izlanishlarini<sup>113</sup> eslash mumkin.

I.A.Karimov o‘zbek davlatchiligi tarixi to‘g‘risida gap ketganda eng avvalo “Avesto”ni, ushbu o‘lmas asarda ilgari surilgan g‘oyalarni esga oladi. Bu bejiz emas, chunki “Avesto” mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz sifatida XXX asr muqaddam o‘lkamizda “buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beradi”<sup>114</sup>. U O‘zbekistonda davlatchilik bo‘limgan deb tashviqot qiluvchi G‘arb adiblariga qarata deydi: “...Biron-bir xorijiy jurnalnistning, umuman G‘arb adiblarining “Avesto”ni eslashganini bilmayman. Xulosa shuki, olis-olis joylarda xalqimiz, mamlakatimiz o‘tmishi haqida aytilayotgan mulohazalarning aksariyat qismi soxta, g‘ayri ilmiydir”<sup>115</sup>. Haqiqatan ham H.B.Boboev va S.Hasanovlarning qayd etishicha, “Avesto”da o‘lkamizda o‘n oltita davlat – So‘g‘d, Xorazm, Balx, Nisol, Hirot, Parfiya, Iyron-Vij, Vanta Girta, Avrava, Xninta, Xaravayata, Hiyrmand, Ray, Chapra, Varina, Haftrud, Panjob yoki Yettisuv bo‘lgani tilga olinadi<sup>116</sup>. Ushbu manbaning o‘zi o‘zbek davlatchiligining negizi qaerga va qanday boy ijtimoiy-siyosiy tajribaga borib taqalishidan guvoh beradi.

I.A.Karimov davlatchiligidan asosini yaratishda jahon tarixiga, ayniqsa kreatologiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temurning nomini va u qoldirgan tarixiy-madaniy merosni alohida qayd etadi. U Amir Temurni, komil inson, buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor, fan, madaniyatga homiylik qilib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan shaxs, deb ataydi. Shuning uchun u, “davlatchiligidan asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g‘ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, elparvarligi bilan bizga hamisha ibrat nomusi bo‘lib qolg‘usidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz”<sup>117</sup>.

Maxsus tadqiqotlar ko‘rsatadiki, Amir Temur bir yarim asr davomida

<sup>112</sup> Жўраев Н. Тарих фалсафаси. Тушунча, моҳият ва сиёsat. –Т.: “Маънавият”, 1999. –22 б.

<sup>113</sup> Ахмедов Б. Ўзбек улуси. –Т.: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашр., 1992; Уники. Амир Темур. –Т.: F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1998; Ртвеладзе Э.В., Сайдов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси. – Т.: Адолат, 2001; Аскаров А. Амир Темур ва Хоразм. –Т.: Ўзбекистон, 1996; Бобоев Ҳ.Б. Амир Темур ва темурийлар салтанати. –Т.: Камалак, 1996; Жаббаров И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. –Т.: Ўзбекистон, 1999; Муқминова Р. Ўзбек давлатчилиги тарихига оид айrim маълумотлар. –Т.: Шарқ, 1999; Бобоев Ҳ., Ҳасанов С. “Авесто” – маънавиятимиз сарчашмаси. –Т.: Адолат, 2001 ва б.

<sup>114</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. –: Ўзбекистон, 1999. –138 б.

<sup>115</sup> Ўша жойда.

<sup>116</sup> Бобоев Ҳ., Ҳасанов С. “Авесто” – маънавиятимиз сарчашмаси. –Т.: Адолат, 2001. –48-51 б.

<sup>117</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –142 б.

mo‘g‘ullar zulmidan holdan toygan, parokanda yurtda ozodlik bayrog‘ini ko‘tarib, tarqoq Movarounnahrni birlashtirdi va qisqa vaqtida yigirma yetti davlatni o‘z ichiga olgan ulkan sultanat tuzdi... Qisqa vaqt ichida Movaraunnahrni katta sultanatga aylantirishning o‘ziyoq millat tariximizdagi eng katta burilishini boshlab berdi. Amir Temur nafaqat buyuk davlat tuzdi, u avvalo qonunlar va adolatga asoslangan davlat boshqaruv asoslarini qurib, uning yaxlitligini saqlash bilan birga kuchli mudofaa tizimini yaratdi... Yagona makon g‘oyalarini ilgari surdi”<sup>118</sup>.

Hukumatimizning 1994 yil 29 dekabrdagi “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”, 1995 yil 26 dekabrdagi “1996 yilni Amir Temur yili deb e’lon qilishi to‘g‘risida”gi qarorlari, 1996 yil martida “Temuriylar tarixi” davlat muzeyini va “Amir Temur” ordenini ta’sis etish to‘g‘risidagi farmonlari nafaqat buyuk bobomiz xotirasini ulug‘lash, xuddi shuningdek, uning obrazi, hayoti va faoliyati orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kuchli davlat barpo etish, adolatli jamiyatni shakllantirish qaratilgan hamdir. Sohibqironning davlatchilikka oid qarashlarini, boshqarish usullarini, markazlashgan idorani mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish ishlari bilan uyg‘unlashtirish borasidagi siyosiy tajribalarini keng o‘rganish yo‘lga qo‘yildiki, ular<sup>119</sup> I.A.Karimov davlat asoslarini yaratish mamlakatimizda yashovchi turli millatlarni, xalqlarni birlashtirishga, markazlashgan boshqarish bilan mahalliy boshqarishni uyg‘unlashtirishga bevosita bog‘liq ekanini juda yaxshi biladi. Uning birorta asari yoki ma’ruzasi yo‘qki, unda ahillikka, birodarlikka, mustaqillikni mustahkamlashga da’vat etilmagan bo‘lsin. U o‘zbek davlatchiligi tarixiga nazar tashlaganda ham ushbu g‘oyadan kelib chiqadi. Bu o‘rinda uni Xo‘ja Ahror va islom dini, buyuk allomalar, fiqhshunoslar haqidagi fikrlarini keltirish mumkin. Aslida bu xalqimizning ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-madaniy tajribasini, ulardagi pozitiv jihatlarni mustaqil davlat qurishga proeksiya qilish, ya’ni yo‘naltirishga intilishdir.

“Yaqinda televidenieda, – deydi I.Karimov, – Xoja Ahror Vali haqida ko‘rsatuv berildi. Bu mutafakkir zot o‘z davrida 25-30 yil mobaynida Markaziy Osiyodagi xalqlarni birlashtirish, siyosatchilarning boshini qovushtirish orqali har xil to‘qnashuvlarning oldini olish uchun bor kuch-g‘ayratini sarflagan, uning yuksak obro‘-e’tibori bunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. “Shayxlar shayxi” deb nom olgan bu ulug‘ zotning gapini biror hukmdor, hokim, shahzoda ikki qilmagan. Nega deganda, xalq uni boshiga ko‘targan. Biz ham bunday aziz ajdodlarimizni boshimizga ko‘tarishga tayyormiz”<sup>120</sup>.

Jamiyat bir bosqichdan ikkinchi, ayniqla mutlaq yangi, qarama-qarshi paradigmaga asoslangan bosqichga o‘tayotganida, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar va siyosiy, ma’naviy ikkilanish odatiy hol bo‘lganida kishilarni, xalqlarni birlashtirish

<sup>118</sup> Ўлжаева Ш. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. –Т.: Фан, 2005. –4 б.

<sup>119</sup> Қаранг: Азamat Зиё. Амир Темур даврида давлат бошқаруви. –Т.: Ўзбекистон, 1996; Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. –Т.: Ўзбекистон, 1996; Азимов Э. Амир Темур салтанати. –Т., 1996; Каримов С.К. Амир Темур: дин ва тасаввуф. –Т.: Фан, 1997; Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. –Т.: Мир, экономика и право, 1999; Муқимов З.Ю. Ўзбекистон давлати ва хукуки тарихи (тарихий-хукукий тадқиқот). I-қисм. –Самарқанд, 1998; Мухамаджанов А.Р. Темур ва темурийлар салтанати. –Т.: Фан, 1996; Фойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. –Т.: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 2001 ва б.

<sup>120</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –148 б.

kechiktirib bo‘lmaydigan bosh vazifaga aylanadi. Milliy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan pozitiv tajribalar va izlanishlarga ehtiyoj uyg‘onadi. Xoja Ahror Vali hayoti va faoliyati xalqqa, vatanga, ma’naviy go‘zalikka intilish va xizmat qilish timsoli sifatida o‘z davrida buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Bobur yuqori baholanganlar. Hoja Ahrorning birgina Samarqand viloyatida 35 ming, Qarshi vohasida 28 ming hektar yeri va millionlab chorvasi bo‘lgani holda o‘zi juda kamtar yashagan, topgan narsalarini muhtoj xalqqa sarflagan. O‘z hisobiga u Samarqand, Buxoro, Hiro, Qobul kabi shaharlarda madrasa va machitlar qurdirgan. Uning so‘zlariga, xalqning og‘irligini yengillashtirish va o‘zaro nizolarni to‘xtatish haqidagi da’vatlariga nafaqat Movarounnahr, shuningdek Misrdan to Xitoy va Hindiston hukmdorlarigacha quloq tutgan<sup>121</sup>.

I.A.Karimov tarix fani va siyosat chambarchas bog‘liqligini uqtirib, ushbu qonuniyatni unutish milliy taraqqiyotga xizmat qilmasligini, davlatimizni boshqa siyosiy kuchlar tazyiqiga tushib qolishi mumkinligi qayd etadi. Chunki tarix fani shunchaki qiziqish mahsuli emas, u oxir natijada kishilarda o‘zligini anglash, xalqi tarixini yaxshi bilish, tashqi mafkuraviy hujumdan milliy istiqlol g‘oyasini, milliy demokratik taraqqiyot maqsadini himoya qilishga o‘rgatadi. “Tarix tarix uchun” da’vati “san’at san’at uchun” da’vati kabi bema’nidir, har qanday bilim, ilmiy tafakkur, ayniqsa tarixiy ilm va tafakkur borliqni ob’ektiv o‘rganish, kishida hayot, o‘tmish, jamiyat taraqqiyoti haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirishi lozim<sup>122</sup>. “Zero, fan, – deydi I.A.Karimov, – masalan, tarix fani o‘z yo‘liga, siyosat o‘z yo‘liga, ularning bir-biriga aloqasi yo‘q, deguvchilar ham topiladi. O‘ylab ko‘raylik, tarix fani mahsuli – uning xulosalaridan avvalo kim foydalananadi? Siyosatchilar emasmi? O‘z siyosatini oqlash, uni olg‘a surish, targ‘ib etish, uzviyligini ta’minlash, obro‘sini ko‘tarish uchun ular tarix fani xulosalariga murojaat etadi... Fan davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligini unutishga aslo haqimiz yo‘q”<sup>123</sup>. Demak, har bir siyosatchi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarish bilan shug‘ullanadigan kishi, ijtimoiy taraqqiyot masalalari bilan qiziquvchi fuqaro o‘z davlatining, xalqining tarixini bilishi shart. Chunki ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-madaniy tajribadan yaxshi xabardor kishi, siyosatchi xalqi manfaatlarini to‘g‘ri anglaydi, ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga amal qiladi.

Mutaxassislarining qayd etishicha, jamiyat va davlatni boshqarishda uch omil muhim rol o‘ynaydi, ular – hokimiyat, mulk, g‘oyadir<sup>124</sup>.

“Hokimiyat – odamlarni bo‘ysundirish va ular ustidan hukmronlik qilish munosabatlaridir. Biroq, uning bo‘lishi ob’ektiv zaruriyatdir, shuning uchun ham ko‘pincha ijobiy tusga ega bo‘ladi. Chunki, jamiyatni barqarorlashtirish, uning tashkiliy uyushqoqligini ta’minlashga xizmat qiladi”<sup>125</sup>. Albatta, hech bir uyushma, kishilar birligi tashkilotchisiz, yadrosiz uzoq yashay olmaydi, shunday kuchga ega

<sup>121</sup> Қаранг: Березиков Е. Святке лики Туркестана. –Т.: Камалак, 1992. –С. 132-135.

<sup>122</sup> Қаранг: Тойнби А.Дж. Пережитое. Мои встречи. –М.: Айрис-Пресс, 2003. С.130-141.

<sup>123</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурдиклаб. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –150 б.

<sup>124</sup> Қаранг: Давлат ва хукуқ назарияси. –Т.: ТДЮИ, 2000. –40 б.

<sup>125</sup> Ўша жойда.

bo‘limgan uyushma tezda tarqab ketadi. Jamiyat, ayniqsa o‘tish davrida ana shunday tashkilotchi, yadroga o‘ta muhtoj bo‘ladi. Ijtimoiy taraqqiyotning ushbu talabini to‘g‘ri anglagan Yurtboshimiz yozadi: “Ayni zamonda, agar kuchli ijrochilik hokimiyati bo‘lmas ekan, eng odil va eng oqil qonunlar va qarorlar ham bajarilmay, shunchaki qog‘ozda qolib ketishi mumkin. Bu hol qonunlarni joriy etishga, fuqarolar huquqlarini va erkalarini muhofaza qilishga, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishga qodir prezidentlik hokimiyatini kuchaytirishni taqozo etadi”<sup>126</sup>.

O‘zbekiston prezidentlik boshqaruviga asoslangan davlatdir. Kuchli prezidentlik va ijroiya hokimiyatining zarurligi, M.Mirxamidov ko‘rsatkanidek: a) xalq o‘zining orzu tilaklarini davlat bilan bog‘lashi va uning kishilar manfaatlariga xizmat qilishiga ishonishi; b) totalitar tuzumdan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish xususiyatlari; v) bozor iqtisodiyotiga o‘tishni jamiyatda barqarorlikni ta‘minlash zaruriyati bilan bog‘liqligi; d) xalqimizning mentaliteti, demografik xususiyatlari, ijtimoiy himoyaga muhtojligi; jamiyatni evolyusion rivojlanishga moyilligi kabilar bilan bog‘liqdir<sup>127</sup>.

“Ayni paytda, hokimiyat salbiy xususiyatlarni ham o‘zida mujassamlashtirishi mumkin. Zero, uning tabiatida o‘z-o‘zini o‘stirib borish, qat’iy markazlasha borish va hatto zo‘ravonlikka intilish mayllari bo‘ladi”<sup>128</sup>. Shunday salbiy hollar mahalliy hokimiyat organlarida tez-tez ko‘zga tashlanib turadi. Bu masala tez va adolatli hal etilishini talab qilgani uchun prezidentimiz tomonidan munosib qoralanib kelinadi. Masalan, uning 1993 yil 3 aprelda Jizzax, 1993 yil 13 aprelda Surxandaryo, 1995 yil 21 noyabrda Samarcand, 1995 yil 29 noyabrda Qashqdaryo, 1996 yil 16 martda Xorazm viloyatlari deputatlari kengashlarida bildirgan e’tiroz va fikrlarini e sga olish mumkin. Mazkur viloyatlarda rahbar xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari, uquvsizligi, xalq manfaatlarini mensimasligi kabi illatlar sababli boshqarish ishlari yaxshi olib borilmadi, davlat mablag‘alarini talon-taroj qilish, urug‘chilikni qo‘llab-quvvatlash, kishilarning shikoyat va arizalarini tinglamaslik, islohotlarga turli to‘silalar uyushtirish hollari uchragan. Shuning uchun ham prezident ularda qat’iy choralar ko‘rishga majbur bo‘ldi. Agar ushbu illatlarga chek qo‘yilmaganida ular yanada chuqur ildiz otardi. Natijada kishilarning yangi davlatga, u amalga oshirayotgan islohotlarga ishonchi qolmasdi.

“Mulk – narsalarga bo‘lgan munosabat, narsalar ustidan hukmronlikdir. Biroq, mulk xususiy bo‘lganidagina jamiyat uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi”<sup>129</sup>.

Bu o‘rinda shuni aytishimiz mumkin, I.A.Karimov mulkchilik shakllarini rivojlantirishni iqtisodiy islohotlardan ko‘zlayotgan bosh maqsadlardan biri deb biladi. U iqtisodiy islohotlar haqida to‘xtalib ta‘kidlaydi: “Mulkchilikning barcha shakllariga erk beriladi, shaxsiy tashabbus va ishbilarmonlikka keng yo‘l

<sup>126</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –15 б.

<sup>127</sup> Мирхамидов М. Институт президента Республики Узбекистан. –Т., 2007. –С.26-28.

<sup>128</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси. –Т.: ТДОИ, 2000. –40 б.

<sup>129</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси. –Т.: ТДОИ, 2000. –42 б.

ochiladi”<sup>130</sup>. Ushbu o‘zgarishlar pirovard natijada iqtisodiy demokratiyani qaror toptirishga va xalqning moddiy farovonligini yuksaltirishga olib keladi.

G‘oya jamiyatni birlashtirish, kishilarning ongi va qalbini ma’lum bir ideallar bilan to‘ldirishga hizmat qiladi. prezidentimiz deydi: “Milliy g‘oya, milliy iftixor mashaqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g‘ayratimizga g‘ayrat qo‘sib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag‘ishlab, ruhimizni baland, belimizni baquvvat qiladi.

Milliy mafkura vositasida elu yurt birlashadi, o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi va ularni ado etishga qodir bo‘ladi”<sup>131</sup>. milliy g‘oyadagi ushbu pozitiv kuch, quvvat davlatchilikni mustahkamlashga, kishilar qalbida milliy demokratik taraqqiyotga ishonch uyg‘otadi. I.A.Karimov ilgari surgan Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish milliy g‘oyamizning bosh maqsadi sifatida ijtimoiy taraqqiyot qonunlari va talablariga muvofiqdir.

## **6-MAVZU: O‘zbekiston Konstitutsiyaviy davlat yaratilishi: falsafiy-huquqiy tahlil**

### **Reja**

- 1. Demokratiya va Konstitutsiya: uyg‘unlik va ziddiyatlar**
- 2. Demokratiya va Konstitutsionalizm**

**Tayanch so‘z va iboralar :** Konstitutsiyaviy davlat; Konstitutsionalizm; “yuridik dogma”; Platon; hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi; fuqarolik jamiyati; ijtimoiy muomala sub’ektlari; Davlat; shaxs; huquq..

Falsafiy-huquqiy ta’limotlarda demokratiya va Konstitutsiya uyg‘unlikda qaraladi, davlatning vazifasi esa ushbu uyg‘unlikni, qabul qilinadigan qarorlar, qonunlar va rejalarda xalq manfaatlarining ifoda etilishiga erishishni ta’minalashdan iboratdir<sup>132</sup>. Demokratiya va konstitutsianing uyg‘unligi yo‘q joyda ijtimoiy taraqqiyot haqida so‘z yuritish qiyin, chunki umuminsoniy demokratiya milliy konstitutsiyalarning shakllanishiga qanday ta’sir qilsa, milliy konstitutsiyalar ham inson huquqlarini ta’minalashga, xalqning qonunlar qabul qilish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokiga erishishga shunday zamin yaratadi.

Shu bilan birga siyosiy-falsafiy adabiyotlarda demokratiya va konstitutsionalizm o‘rtasida ma’lum bir ziddiyatlar borligi, agar davlat

<sup>130</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –23 б.

<sup>131</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан курамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –92 б.

<sup>132</sup> Қаранг: Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Т.1. –М.: Юристъ, 1993. –С.177.

boshqarishida ular hisobga olinmasa, g‘ayridemokratik hollar yuzaga kelishi, oxir natijada jamiyatda soxta demokratik qarashlar, qadriyatlar shakllanishi qayd etiladi<sup>133</sup>. Demokratik taraqqiyotning murakkab, ziddiyatli shakllanishini, mavjud qarama-qarshiliklarini o‘z paytida ilg‘ab, ularni konstruktiv voqelikka aylantirishni ta’minlash uchun ushbu muammolardan xabardor bo‘lish darkor.

Demokratiya, mumtoz ta’rifga ko‘ra, xalq hokimiyatchiligidir, ammo konstitutsion tartib davlatni, hokimiyatni aniq shaxslar boshqarishini taqozo etadi. Qabul qilinadigan qarorlar, rejalar, dasturlar va ularning bajarilishi uchun aniq shaxslar javobgardir. Hokimiyat uchun javobgarlik ushbu shaxs xatti-harakatlarini personilizatsiyalashtiradi, xalq esa qabul qilingan qarorlar, rejalar, dasturlar uchun javob bermaydi. To‘g‘ri, xalq mazkur xatti-harakatlarda ishtirok etadi, lekin u ularning bajarilishi uchun javobgar emas. Bizning fikrimizcha, bu o‘rinda demokratiya va konstitutsionalizmni bir-biriga qarama-qarshi voqelik sifatida emas, balki jamiyat va davlatni boshqarish talablariga mos keluvchi bir-birini to‘ldiruvchi, bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi hodisalar sifatida qarash to‘g‘ridir.

Demokratiya barchaning iqtisodiy hayotda teng huquqli ishtirok qilishini, xususiy mulkka ega bo‘lishini nazarda tutadi. Bozor demokratiyasida qatnashish har bir shaxsning huquqidir. Ammo Konstitutsiya hammaga ham bunday huquq bermaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasiga muvofiq “ prezident o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi mumkin e mas”<sup>134</sup>.

Demokratik tamoyilga ko‘ra, jamiyatning har bir a’zosi jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda erkin ishtirok etadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsisiga muvofiq saylovda 18 yoshga to‘lgan fuqarolar saylovda qatnashish huquqiga e ga<sup>135</sup>. Shuningdek, Konstitu siyaning 77-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zosi bo‘lishi uchun fuqaro O‘zbekiston Respublikasi hududida kamida besh yil muqim yashayotgan va saylov kuni yigirma beshga to‘lgan bo‘lishi lozim<sup>136</sup>. 90-moddada esa “O‘zbekiston Respublikasi prezidenti lavozimiga o‘ttiz yoshdan kichik bo‘lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasining prezidenti bo‘lishi mumkin emas”, deb ko‘rsatilgan<sup>137</sup>. Agar shaxs 14 yoshdan mehnat qilish va iqtisodiy demokratik jarayonlarida qatnashish, 16 yoshdan fuqarolik huquqiga ega bo‘lsa, uning saylovda qatnashishini 18 va 35 yoshda qilib belgilash o‘rinlimi? Bir hududda 5-10 yil yashayotganligidan kelib chiqishni demokratik tamoyillarga mos keladi deyish qiyin. Bundan tashqari prezidentlikni

<sup>133</sup> Қаранг: Wolin S.S. The Presence of the Past. Essays on the State and the Constitution. –Baltimore, 1990; Лэйн Я.Э. Демократия и конституционализм //Полис, 1998, №10. –С.32-42.

<sup>134</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2003. –23 б.

<sup>135</sup> Ўша асар. –32 б.

<sup>136</sup> Ўша асар. –15 б.

<sup>137</sup> Ўша асар. –22 б.

ikki muddat bilan chegaralab qo'yish ham demokratik tamoyillar nuqtai nazaridan savollar uyg'otadi. AQShda T.Ruzveld prezidentlikka uch marta saylangan, vaholanki, AQSh Konstitutsiyasiga ko'ra u ikki marta saylanishi mumkin edi. Respublikamiz aholisi I.A.Karimovning ham uchinchi muddatga vakolatini cho'zishga ovoz berdi. Bizning fikrimizcha, agar xalqi qo'llab-quvvatlasa, olib borayotgan siyosiy faoliyatini demokratik taraqqiyot talablariga mos keladi deb bilsa, prezidentlik muddatini chegaralash lozimmi? Axir saylash-saylamaslik xalq xohishi, irodasi e masmi? Agar prezidentlikka da'vogarning sog'ligi lavozimni kerakli saviyada olib borishga monelik qilmasa, ikki-uch muddat qo'yilishi zarurmi? Shuni alohida qayd etishimiz zarurki, davlat boshlig'ining almashtirilishi jamiyatda, boshqarish ishlarida bezovtalik, ikkilanish, hatto ba'zi destruktiv kuchlarda hokimiyat almashishidan foydalanib qolish istagini kuchaytiradi. Bundan xalq ham bezovta bo'ladi. prezidentning uzoq, muqim faoliyat ko'rsatishi ijtimoiy hayotda barqarorlikni, kishilardagi kelajakka umidni mustahkamlaydi. Ushbu ijtimoiy-ruhiy va siyosiy omil o'tish davri uchun muhim ahamiyatga e gadir.

Bizning fikrimizcha, demokratiyadagi "mutlaq"qa intilishni Konstitutsiya, qonunlar yordamida cheklash ijtimoiy taraqqiyot talabidir. Konstitutsionalizmdan eng avvalo demokratiyaning o'zi yutadi, qonunlar demokratik qadriyatlarni ijtimoiy hayotdan chuqur joy olishiga yordam beradi, barchani bir-birining insoniy huquqlarini hurmat qilishga o'rgatadi va oxir natijada esa demokratiyaning hayot tarziga aylanishiga yordam beradi. Ya.E.Leynning ta'kidlashicha, konstitutsiyaviy davlat ijtimoiy qarorlarning barqarorligini ta'minlovchi immunitet (qayta ko'rib chiqilmaydigan, o'zgartirilmaydigan, "yuridik dogma"ga aylangan qonunlar majmuasi) va inersiya (qonunlarni qabul qilishda ko'pchilikning, masalan quyi va yuqori palatalar, xalq muhokamasi, prezident tasdig'i va b.) mexanizmlariga ega bo'lgani uchun demokratiyani tor doiralarga taalluqli voqelikka aylanishiga yo'l qo'ymaydi<sup>138</sup>. Kuchli davlat ushbu mexanimlardan keng foydalanadi, zaif davlatda inersiya mexanizmi ko'proq amal qiladi, bu esa jamiyatda beqarorlikni, siyosiy kuchlar o'rtasida, masalan, Rossiya, Tojikiston va Qирг'изистондагидек, hokimiyat uchun kurashni avj oldiradi. Esda tutish lozimki, konstitutsion davlatlar va konstitutsiyalar demokratik davlatlar va demokratik qadriyatlardan oldin paydo bo'lgan, ularda ijtimoiy demokratik taraqqiyotga xizmat qiladigan pozitiv jihatlar ko'p. Shuning uchun "konstitutsion davlat demokratik bo'lishi lozim bo'lganidek"<sup>139</sup>, demokratik davlat ham konstitutsiyaviy bo'lishi kerak. Ammo demokratiyaning "mutlaq"qa intilishi konstitutsionalizmni mudom izlanishlar olib borishga undashini unutib bo'lmaydi.

Mustaqil O'zbekiston davlat tizimining asoslarini yaratish "uzoq va murakkab ish edi. Unga oxirgi yillardagi konstitutsion tajriba asos qilib olindi. Asta-sekin tajribada sinab ko'rish orqali harakatdagi konstitutsion institutlar (prezident, hokimlar, Konstitutsion nazorat qo'mitasi va boshqalar) tashkil etildi"<sup>140</sup>.

<sup>138</sup> Лэйн Я.Э. Демократия ва конституционализм. //Полис, 1998, №10. –С.45.

<sup>139</sup> Лэйн Я. Э. Демократия ва конституционализм// Полис , 1998. №10 – С. 45

<sup>140</sup> Мирхамидов М. Государственный суверенитет и становление современной узбекской национальной

Yangi Konstitutsiya yaratish g'oyasi Oliy Sovetning 1990 yil martdagi o'n ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida tilga olingandi. Akademik Sh.Z.O'razaevning yozishicha: "O'sha paytda mustaqil davlatning birinchi Konstitutsiyasini yaratish zarurligi hali ko'pchilikning hayoliga kelmagandi"<sup>141</sup>. 1990 yil iyunida Respublika Oliy Soveti o'zining ikkinchi sessiyasi O'zbekiston Respublikasining prezidenti I.A.Karimov rahbarligidagi Konstitutsiya komissiyasini tashkil etib mamlakatimizda konstitutsiyaviy demokratik davlat qurishga qadam tashladi. Aslida, deb yozadi M.Mirxamidov, O'zbekistonda konstitutsion davlat qurishga kirishish ancha oldin, ya'ni O'zbekiston Oliy Sovetining o'n ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida respublika prezidenti lavozimini joriy etish va uning konstitutsiyaviy-huquqiy statusini belgilab berishga qaratilgan normativ hujjatlar qabul qilish bilan boshlangan edi. Ushbu qadam ketidan ijroiya hokimiyatini, ma'muriy idoralarini, Vazirlar Mahkamasini qayta tuzish, viloyat va tumanlarda hokim lavozimlarini joriy etish kabi yangiliklar amalga oshirildi<sup>142</sup>. 1991 yil 31 avgustda esa O'zbekiston mustaqil Respublika deb e'lon qilindi va ushbu mustaqillikni qonuniy tarzda mustahkamlovchi Konstitutsion qonun qabul qilindi.

Turli yondashuvlar va loyihalar qiyoslangach, ulardagi milliy demokratik taraqqiyot talablariga mos keluvchi jihatlar umumlashtirilgach Konstitutsiya loyihasi 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Ushbu muhokama jarayonida xalqdan 6 mingdan ziyod taklif va mulohazalar tushdi. 1992 yil 8 dekabrda Respublika Oliy Soveti mustaqil davlatimizning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Eng muhim jihat shundaki, O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi o'zbek xalqining mustaqillikka erishganini yuridik mustahkamlab demokratik huquqiy davlat qurish, mamlakatimizni ilg'or madaniyatli davlatlar darajasiga ko'tarishning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy asoslarini belgilab berdi<sup>143</sup>. Shuning uchun ham O'zbekiston yangi Konstitutsiyasini qabul qilishi orqali "o'z hayotini ratsional tashkil etishga birinchi qadam tashladi"<sup>144</sup>.

Konstitutsiyamizning yaratilishi tarixi, I.A.Karimovning qo'shgan hissasi, turli muhokamalardan o'tib sayqallashib borgani, har bir so'z, modda, ta'rif uchun bahs, fikr almashish ketgani adabiyotlarda keng yoritilgan<sup>145</sup>. Shuning uchun biz ularni takrorlab o'tirishga hojat yo'q deb bilamiz. Konstitutsiyamizning milliy demokratik taraqqiyotga qo'shayotgan ilmiy-fundamental ahamiyatga ega jihatlari,

---

правовой государственности. –Т.: Фан, 1994. –С.19.

<sup>141</sup> Уразаев Ш. Как создавалась Конституция независимого Узбекистана //Человек и демократия, 1992, №1. – С.4-5.

<sup>142</sup> Мирхамидов М. Государственный суверенитет и становление современной узбекской национальной правовой государственности. –Т.: Фан, 1994. –С.21.

<sup>143</sup> Уразаев Ш. Как создавалась Конституция независимого Узбекистана //Человек и демократия, 1992, №1. – С.4-5.

<sup>144</sup> Мирхамидов М. Государственный суверенитет и становление современной узбекской национальной правовой государственности. –Т.: Фан, 1994. –С.21.

<sup>145</sup> Қаранг: Ўразаев Ш.З. Мустақил Ўзбекистон Конституцияси. –Т.: Адолат, 1993; Адилқориев Х. Новая Конституция – великий символ суверенитета Узбекистана. –Т.: Адолат, 1993; Уники. Конституция ва фуқаролик жамияти. –Т.: Шарқ, 2002; Рахимов Ф. Истиқлол яралиб, мустақилликни мустаҳкамлаган Асосий Қонун. –Т.: Адолат, 1994; Шарифхўжаев Н., Шодиев Н. Ўзбекистон – конституциявий давлат. –Т.: Ўзбекистон, 2003 ва б.

I.A.Karimov asarlaridagi qarashlar, ilmiy adabiyotlarda va chet el mutaxassislarining chiqishlarida bildirilayotgan fikrlar biz uchun qiziqarli, muhimdir.

Falsafiy-huquqiy nuqtai nazardan Konstitutsiyamizda hal etilgan muammolarni uch – davlat (hokimiyat), shaxs (inson) va huquq yo‘nalishida qarash, tadqiq etish mumkin. Aynan ushbu uch ob‘ekt barcha ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning asosini tashkil etadi va bahs, mulohaza, tortishuv ular o‘rtasidagi aloqalarga borib taqaladi.

Platon davridan beri davlat (hokimiyat) masalalari ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar, kreatologik izlanishlar markazida bo‘lib keladi. Shuningdek uning shakllari va ko‘rinishlari haqidagi bahs, tortishuvlar hali tugamagan<sup>146</sup>. Biroq, O‘zbekiston xalqi uchun eski totalitar davlatdan yangi, milliy demokratik manfaatlarga xizmat qiladigan davlat shakliga o‘tish muhim ahamiyatga ega edi. Ushbu davlat shakli Konstitutsiyamiz muqaddimasida “insonparvar demokratik huquqiy davlat” deb belgilangan. Bu o‘rinda yangi davlatga insonparvarlik, demokratiya va huquqa asoslanish xosligi qayd etilmoqda. Shuning uchun ham I.A.Karimov ushbu konstitutsion tamoyildan kelib chiqan holda davlatning tub vazifalarini quyidagicha belgilaydi: “...Davlat butun xalqning manfaatlarini ko‘zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo‘lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo‘nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro‘yobga chiqarishi kerak”<sup>147</sup>. “Ushbu tanlangan yo‘limiz, – deb ko‘rsatadi Yurtboshimiz, – konstitutsion asosga ega. Bu yo‘l O‘zbekistondagi barcha aholi manfaatlariga har jihatdan mos tushadi. Aynan shunday yo‘l o‘zbekistonliklarning munosib turmush kechirishi uchun kafolat bo‘la oladi, milliy an’analar va madaniyatning rivojlanishini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning qayta tiklanishini ta’minlaydi”<sup>148</sup>.

Albatta, davlat (hokimiyat)ning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini qayd etish bilan muammo to‘la tadqiq etilmaydi. Davlatning butun ijtimoiy o‘zgarishlardagi o‘rnini, u amalga oshirgan islohotlarning kishilar, xalq hayotida aks etishini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotdagi yangiliklarni ham ochib berish darkor.

Falsafiy-huquqiy va siyosiy adabiyotlarda demokratik davlat quyidagi belgilarga ega ekanligi qayd etiladi:

- davlat–hokimiyat boshqaruvi barcha afzalliklarining davlat institutlari tizimida uyg‘unlashuvi;
- hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi va amalda ularning bir-biridan mustaqilligi;
- fuqarolik jamiyatining mavjud ekanligi;

<sup>146</sup> Қаранг: Хропонюк В.Н. Теория государства и права. Хрестоматия. –М.: Интерстиль, 1998. –С.231-271; Власть: очерки современной политической философии Запада. –М.: Наука, 1989; Гаджиев К.С. Политическая философия. –М.: Экономика, 1989; Исламов З.М. Общество. Государство. Право. –Т.: Адолат, 2001 ва б.

<sup>147</sup> Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. –Т.: “Ўзбекистон”, 1996. –177 б.

<sup>148</sup> Ўша асар. –176 б.

- hokimiyat vakolatlarining u yoki bu jabhada yoxud institutda to‘planib qolishiga yo‘l bermaydigan antimonopol mexanizmlarni yaratish;
- konstitutsiyaviy qonunning ustunligi va bevosita faoliyati;
- qonunlarda davlatning mustaqilligini rasmiylashtirish va uni amaliy ta’minlash;
- saylash huquqi normalari asosida qonun chiqaruvchi organlarni shakllantirish va qonunlarda davlat irodasini shakllantirish hamda ifodalash;
- ichki qonunchilikning xalqaro huquqning umum tan olgan normalari va prinsiplariga mosligini ta’minlash;
- ijtimoiy muomala sub’ektlarining hammasini u yoki bu shaxs tazyiqidan huquqiy himoya qilish;
- huquqiy davlatning namunasi, andozasi va barpo etish vositasi bo‘lmish sudning maqomini ko‘tarish;
- qonunlarning huquqiyligini ta’minlash, davlat hokimiyatlari tizimlarini huquqiy tashkil etish;
- fuqarolar huquq va burchclarining mushtarakligi;
- davlat va shaxsning o‘zaro mas’ulligi<sup>149</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va mustaqillik yillarda o‘tkazilgan islohotlar natijalariga nazar tashlasak, ushbu belgilar ijtimoiy hayotda, boshqarish tizimida, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida aks etishiga guvoh bo‘lamiz. Bu o‘rinda I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasining 16 va 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimlardagi ma’ruzalarini kuzatish yetarlidir. U deydi: “Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini barpo etish bo‘yicha eng muhim tamoyillar, qoida va me’yorlarni o‘zida mujassamlashtirib, jamiyatimiz hayotining asosiy huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda”<sup>150</sup>. prezidentimiz Konstitutsiyamizni falsafiy-huquqiy va siyosiy jihatdan ta’riflar ekan, uning ijtimoiy demokratik taraqqiyotga ko‘rsatib kelayotgan ta’sirini yuqori baholaydi. “Asosiy qonunimizning – deydi u, – negizini tashkil etadigan qoida va talablar asosida mamlakatimizni tub isloh qilish va modernizatsiya qilishning o‘zbek modeli qabul qilindi. Bu modelning mazmun-mohiyatini ifoda etadigan beshta asosiy tamoyil hozir ham o‘z dolzarbliji va ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Bugun, vaqt o‘tishi bilan, hayotning o‘zi, mamlakatimiz erishayotgan yuksak marralar Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan, xalqimizning orzu-umidlari, bugungi va kelajak manfaatlariga javob beradigan qoida va prinsiplarning naqadar to‘g‘ri ekanini isbotlamoqda”<sup>151</sup>.

Shu bilan birga Yurtboshimiz shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatida

---

<sup>149</sup> Қаранг: Шарифхўжаев М., Шодиев Н. Ўзбекистон – конституциявий давлат. –Т.: Ўзбекистон, 2003. –81-82 б.; Шунингдек қаранг: Латфуллин Г.Р., Новичков Н.В. Политическая организация. –СПб.: Питер, 2007. – С.296-327; Апресян Р.Г. Гражданское участие: ответственность, сообщество, власть. –М.: Аслан, 1997; Атаманчук Г.В. Теория государственного управления. –М.: Юрид. лит-ра, 1997; Исломов З.М. Давлат ва хукуқ: умумназарий масалалари (давлат назарияси). –Т.: Адолат, 1997 ва б.

<sup>150</sup> Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий максадимиз. –Т.: Ўзбекистон. 2209. –29 б.

<sup>151</sup> Ўша асар. –30-31 б.

xalqimizning, kishilarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshgan holda asta-sekin davlat rolini kamaytirib borish lozimligini uqtiradi. “Xususan, bu maqsad-vazifalarni amalga oshirish yo‘lida davlatning rolini izchil ravishda kamaytirib borish va ayni paytda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallaning faoliyat ko‘lamni hamda vakolatlarini kengaytirish, aholi turli qatlama va guruhlarining tub manfaatlarini ifodalaydigan va himoya qiladigan siyosiy va ijtimoiy institutlar, nodavlat, nohukumat tuzilmalar rolini kuchaytirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi”<sup>152</sup>. Ammo fuqarolik institutlarining rivojlanishi davlat (hokimiyyat) mavqeini, uning ommaviy tashkilotlardan tubdan farq qiluvchi, kuchli siyosiy tashkilot bo‘lishini inkor qilmaydi. Bu eng avvalo odamzodning xattiharakatlari egoizm, kuch ishlatish – agressiya, buzg‘unchilikka, axloqsizlikka moyillik saqlanib qolayotgani bilan izohlanadi<sup>153</sup>. Bundan tashqari, yosh, zaif davlatlarni, xalqlarni o‘ziga bo‘ysundirishga intilayotgan tashqi kuchlar ham bor ekanini unutib bo‘lmaydi. Yuridik fanlari doktori, professor Z.M.Islomov yozganidek, “fuqarolik jamiyati institutlari ham poraxo‘rlik, sansolarlik illatlariga duchor bo‘lishi, pul bo‘lgan joylarga esa jinoyatchilik kirib borishi mumkin”<sup>154</sup>. Ushbu illatlardan kuchli davlatsiz (hokimiyyatsiz) qutulish qiyin. Shuning uchun ham prezidentimiz ta’kidlaydi, “...har qanday davlat tizimi, uning apparati va ma’muriy organlari demokratik andozalarga qanchalik javob bermasin – baribir o‘z kuchini, qolaversa, o‘z zo‘ravonligini o‘tkazishga harakat qiladigan tizim bo‘lib qolaveradi”<sup>155</sup>.

Shaxs (inson) manfaatlari Konstitutsiyada bosh maqsad, butun ijtimoiy-siyosiy voqelikning to‘laqonli ishlashi va mavjudligining sharti qilib qo‘yilgan. Ma’lumki, sho‘rolar davrida qabul qilingan Konstitutsiyalar sinfiy-guruhiy va sotsialistik davlat manfaatlariiga xizmat qilishni bosh maqsad qilib qo‘ygan, butun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy-madaniy institutlarni ushbu maqsadga xizmat qilishga qaratgan edi. Shaxs (inson) sotsialistik davlat deb atalgan mashinaning bir “vinti” ediki, uning shaxsiy hayoti va manfaatlari ushbu “mashina”ning to‘xtovsiz, kechayu kunduz ishlashiga qaratilgan. Bu borada u “Sotsialistik mehnat qahramoni”, “Kommunistik brigada”, “Mehnat qizil bayroq ordeni”, “Staxanovchi”, “Besh yillik ilg‘orlari” kabi ko‘plab unvonlar, soxta qahramonlar, mehnat ilg‘orlari kashf etgan. Sirdan qaraganda ushbu sa'y-harakatlar shaxs (inson) manfaatlari uchun, uni ulug‘lash o‘z faolligini munosib taqdirlash uchun qilingandek ko‘rinadi. Vaholanki, shaxs (inson) mehnatining asosiy mahsuli, yaratgan boyliklari dunyoda kommunizmni qaror toptirishga sarflangan. Xalq boyliklarini KPSS nimaga sarflaganini Igor Bunich “Partiya oltinlari” kitobida asosli dalillar va misollar bilan ochib bergen<sup>156</sup>. Sho‘rolar Konstitutsiyalaridagi qusur va illatlarni qayd etib M.Sharifxo‘jaev va N.Shodiev yozadi: “O‘zbekistonga partapparat mustaqil siyosiy kuch sifatida mutlaq hukmga

<sup>152</sup> Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий максадимиз. –Т.: Ўзбекистон. 2209. –32 б.

<sup>153</sup> Қаранг: Назоретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. –СПб.: Питер, 2004; Лебон Г. Психология народов и масс. –СПб: Питер, 1995 ва б.

<sup>154</sup> Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. –Т.: ТДЮИ, 2002. –36 б.

<sup>155</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –325 б.

<sup>156</sup> Қаранг: Бунич И. Партия олтинлари. Озод Шароғиддинов таржимаси. –Т.: Маънавият, 1999. –230-240 б.

ega sobiq totalitar o‘tmishdan biron-bir qonun bilan bog‘liq bo‘lman, tamaddun demokratik rivojlanishga, fuqarolik jamiyatiga, millatning demokratik kayfiyatdagi ilg‘or vakillari qarashlariga, yaxlit milliy madaniyatga zid, ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidan ham past iqtisodiyot, aholi qashshoqligi meros qoldi”<sup>157</sup>. Shaxs (inson) manfaatlari sho‘rolar hukumatining qonunlarining bosh maqsadi bo‘lganida bunday ayanchli ahvol yuzaga kelmasdi.

I.A.Karimov Asosiy qonunimizning 16 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida deydi: “Eng muhimi, islohotlarning asosiy sub’ekti bo‘lmish inson mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarish va yangilanishlarning zarurligiga, ulardan aniq manfaat topishiga o‘z hayotiy tajribasi misolida ishonch hosil qilishi zarur”<sup>158</sup>.

Huquq, qonun ustuvorligini ta’minalash fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat qurishning hal qiluvchi omillaridan biridir. Shuning uchun huquq va qonun ustuvorligini ta’minalmay milliy demokratik taraqqiyot ga erishish qiyin. Ilg‘or davlatlarning tajribasi va demokratik taraqqiyot yo‘li ko‘rsatadiki, ular ikki-uch yuz yildan beri huquq va tenglik uchun tinmay kurash olib borganlar, hatto qon to‘kkalar. Davlat, g‘ayridemokratik kuchlar xalqa erkinlik berishni, uni o‘zi bilan teng huquqli ko‘rishni, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga jalb qilishni lozim deb bilmagan. Bu g‘ayrihayotiy va g‘ayriinsoniy hol goho revolyusiyalarni, qo‘zg‘olonlarni keltirib chiqargan. O‘zbekiston davlati esa, aksincha, fuqarolarining teng huquqligini tan oladi, ularning siyosiy-huquqiy madaniyatini mudom yuksaltirib borishni asosiy vazifasi deb qaraydi. Asosiy qonunimiz ana shu huquqlarni ta’minalash uchun barchaga teng imkoniyat yaratib berilishini kafolatlaydi. “Huquqiy davlatning asosiy belgisi, – deb ta’kidlaydi I.A.Karimov, – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minalishidir. Inson va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari sohasida Konstitutsiyada talaygina ijobiylar mavjud. Bu borada loyiha Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalarini o‘ziga singdirgan. Insonning hayoti, shaxsi va erkinligi daxlsizdir”<sup>159</sup>.

Davlat (hokimiyat) – shaxs (inson) – huquq (qonun) bir-biriga bog‘liq sub’ekt va ob’ekt sifatida demokratik taraqqiyotning nafaqat maqsad va mexanizmlarini belgilab, ta’minalab keladi, shuningdek, ular uyg‘unligi ijtimoiy o‘zgarishlarga, rivojlanishga impuls, turki beradi, oxir natijada esa demokratik taraqqiyot ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ulardan birortasi ham e’tibordan chekkada qolmaydi, ular o‘rtasidagi uyg‘unlik, dialektik bog‘liqlik, bir-birini mudom taqozo etib kelish demokratik jamiyatni jonli, dinamik rivojlanishga moyil qiladi. Ushbu rivojlanish mudom davom etadigan jarayondir, jamiyat bir joyda muqim, turg‘un to‘xtab qolmaganidek demokratik taraqqiyot ham davr talablariga muvofiq rivojlanib, hayotiy, siyosiy tajribalar bilan boyib boradi. Demokratik taraqqiyotning tugal shakli yo‘q, u jamiyatning qismlari bo‘lgan davlat (hokimiyat)

<sup>157</sup> Муродхўжаев М., Шодиев Н. Ўзбекистон – конституциявий давлат. –Т.: Ўзбекистон, 2003. –13 б.

<sup>158</sup> Каримов И.А. Ватанимизнинг боскичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. –Т.: Ўзбекистон, 2009. –34 б.

<sup>159</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –125-126 б.

– shaxs (inson) – huquq (qonun)ning o‘zaro munosabatlarining ifodasi, in’ikosidir. Ushbu munosabatlar qanchalik konstruktiv, ijodiy va maqsadli bo‘lsa demokratik taraqqiyot ham shunchalik yuqori, ibratli, yetuk bo‘ladi.

## **7-MAVZU: Davlat hokimiyati mahalliy organlari va ijtimoiy-siyosiy islohotlar mohiyati**

### **Reja**

- 1. Davlat hokimiyati organlarini demokratlashtirish**
- 2. Davlat hokimiyati organlarining strukturaviy va funksional o‘zgarishlarning mazmun va mohiyati**

**Tayanch so‘z va iboralar :** Qonuniylik; huquqiy tartibot; Bozor iqtisodiyoti; demokratik munosabatlar; yagona axloqiy qoidalar; sotsial sub’ektlar; egoizm; Fuqarolik institutlari; Demokratik taraqqiyot.

Davlat hokimiyati organlarini demokratlashtirmay jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar umumiyligi voqelik sifatida barcha institutlarni teng demokratlashtirishni taqozo qiladi, chunki ushbu jarayonlardan birorta qism – institut, ob’ekt, organ chekkada qolsa, tub o‘zgarishga qaratilgan islohotlar kutilgan natija bermaydi. Falsafa fanlari doktori V.M.Mejuev haqli ravishda savol qo‘yadi: “Hech qachon demokratiyada yashamagan mamlakatda qanday qilib demokratik hokimiyatni shakllantirish mumkin? Hatto siyosiy tizimda demokratik hokimiyat institutlari va organlari rasmiy tarzda borligida ham demokratiya bo‘lmashigi mumkin. Chunki demokratik normalar va tamoyillarga muvofiq fikrlash va harakat qilish odati hamda an’analari yo‘q”<sup>160</sup>. Demokratiya an’analari yo‘q mamlakatda demokratiyani qaror toptirish g‘ayrihayotiydir, uni demokratik an’analariga ega chet ellik mutaxassislarining kelib o‘rnatishi yanada g‘ayrihayotiydir. Faylasuf, bozor iqtisodiyoti ham, siyosiy partiylar ham, ayniqsa ularning siyosiy dasturi bir-biriga mutlaq zid (Rossiya nazarda tutilayabdi) kelayotganida mamlakatda demokratiyani qaror toptirish mushkul. Shuning uchun demokratik islohotlarni o‘tkazishga qodir hokimiyat yoki shaxsga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Ushbu hokimiyat yoki shaxs demokratik qadriyatlarni e’zozlashi, hokimiyatni suiste’mol qilishga yo‘l qo‘ymay liberal siyosat olib borishi lozim, deb hisoblaydi<sup>161</sup>.

Ijtimoiy-siyosiy islohotlar ko‘rsatadiki, demokratik qadriyatlar va qarashlar o‘zidan o‘zi hokimiyat organlari faoliyatida shakllanmaydi, hatto Konstitutsiya va qonunlar ham ularni qaror topishiga yordam berolmaydi. AQSh Konstitutsiyasining qabul qilinganiga ikki yuz yildan oshdi, biroq jamiyatda hatto 90-yillarda ham tom ma’nodagi demokratiya qaror topmagan. Masalan, 1986 yili 490 ming saylanadigan lavozimlarni qora tanli aholining atigi 1,3%, ayollarning esa 1,5% egallagan, qolgan 98,7%ni oq tanli, 98,5% oq tanli erkaklar egallagan<sup>162</sup>.

<sup>160</sup> Қаранг: Бюрократия, авторитаризм ва будущее демократии //Вопросы философии, 1992, №2. –С.3.

<sup>161</sup> Ўша асар. –С.6.

<sup>162</sup> Қаранг: Скидмор М.Дж., Трипп Маршалл Картер. Американская система государственного управления. –

Inson huquqlari bo‘yicha ko‘p qonunlar qabul qilgan mamlakatda o‘tgan asrning o‘rtalarida ham avtobuslarda “oq tanli uchun”, “qora tanli uchun” degan yozuvlarni ko‘rish mumkin edi. Shuning uchun ham I.A.Karimov ta’kidlaydi: “Tepadan turib, maxsus farmon yoki dekret bilan jamiyatda adolat va demokratiyani o‘rnatib bo‘lmaydi. Bu barchaning birdek ishtiroki, birinchi navbatda peshqadam ziyolilarimiz, turli siyosiy partiya lar, jamoat tashkilotlari namoyondalarining, mas’ul xizmatchilarimizning g‘ayrati, jasorati, aql-zakovati bilan ro‘yobga chiqadigan murakkab ishdir”<sup>163</sup>. U demokratiyani chekkadan keltirib bo‘lmasligini, buning uchun xalqimizning siyosiy-tarixiy tajribasidan, an’analari va hokimiyat tizimlarini xalq manfaatlariga xizmat qildiradigan milliy mexanizmlardan, qadriyatlardan unumli foydalanishga da’vat etadi: “Bu boradagi eng muhim va og‘ir masalalardan biri shuki, demokratik tamoyillarni joriy etishda asrlar sinovidan o‘tgan, bugungi hayotimiz talablariga xizmat qiladigan, tanlab-saralab olingan milliy qadriyatlar va umumbashariy tajribalarni tabiiy ravishda uyg‘unlashtira olishimiz lozim”<sup>164</sup>.

Mustaqillik yillarida davlat hokimiyat mahalliy organlarining siyosiy-huquqiy mavqeい, ular faoliyatini yuksaltirish va demokratlashtirish, ayniqsa ularning jamiyatni demokratlashtirishga qo‘shayotgan hissalarini o‘rganishga qaratilgan qator monografiyalar, kitob va to‘plamlar, maqolalar yuzaga keldi. Tadqiqotchilar diqqatini mahalliy organlarning aholi bilan ishlashi, kishilarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini uyushtirishdagi tajribalari qiziqtirmoqda<sup>165</sup>. Haqiqatan ham bugun jamiyatni demokratlashtirish davlat hokimiyat mahalliy organlarining faoliyatiga, demokratik qadriyatlarni bevosita qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liqidir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (XXI bob) mahalliy davlat hokimiyat asoslari belgilab berilgan. Ularga viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari va ular boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari kirishi ko‘rsatilgan. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- joylarda qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minalash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minalash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi

М.: СП “Квадрат”, 1993. –С.30.

<sup>163</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –244 б.

<sup>164</sup> Ўша жойда.

<sup>165</sup> Қаранг: Адилқориев Х.Т. Новая конституция – великий символ суверенитета Узбекистана. –Т.: Адолат, 1994; Ниятуллаев С.Д. Государственное строительство в Республике Каракалпакстан. –Нукус: Каракалпакстан, 1993; Жалилов Ш. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари ислоҳоти: тажриба ва муаммолар. –Т.: Ўзбекистон, 1994; Джавакова К.В. Институт народовластиия в Республике Узбекистан. –Т.: О‘qituvchi, 2006; Тўлаганов А. Давлат ҳокимиятининг вакиллик ва ўзини ўзи бошқариш органлари. –Т.: ТДЮИ, 2002 ва б.

Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish<sup>166</sup>.

"Bozor iqtisodiyotiga o'tish, mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligini kengaytirish hududlarni boshqarish tizimida tub o'zgarishlar yashashni talab etadi. Yangicha sharoitlarda mehnatkashlar manfaatlarini ifodalovchilar sifatidagi boshqaruv idoralari bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasidagi o'zaro munosabatlar yangicha prinsiplarga, ko'proq o'zaro foydali asosdagi iqtisodiy manfaatlar prinsiplariga asoslanadi. Bu yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar asosida rahbarlik qilish sohasini k eskin toraytirib, iqtisodiy tayanchlar va manfaatlar ta'sirini o'tkazishning barcha manfaatdor tomonlar orasidagi shartnomaviy munosabatlarga asoslangan bilvosita usullarni jiddiy kengayib borishiga olib keladi"<sup>167</sup>. Demak, iqtisodiy manfaatdorlik, xo'jalik sub'ektlarining kengayishi, shartnomaviy munosabatlar joylarda demokratik boshqarishga olib keladi. Shu bilan birga yuridik fanlari doktori, professor Sh.Jalilov yozadi: "Albatta, boshqarishning iqtisodiy usullari o'z-o'zidan ma'muriy ta'sir vositalarining o'rmini egallaydi yoki demokratik munosabatlari shakllantiradi (tagiga chizilgan bizniki – B.T.), deb o'ylash o'ta soddalik bo'lar edi, bu iqtisodiy usullarning amal qilishi uchun ishbilarmonlik faoliyatining ma'lum darajadagi haqiqiy erkinligi, qonun bilan belgilangan yagona axloqiy qoidalar, bozor infrastrukturasi mavjud bo'lgan boshqacha iqtisodiy muhit kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan ta'kidlab o'tish lozimki, o'tish davridagi bozor munosabatlari shakllanib borayotgan sharoitlarda boshqarishning turli usullaridan foydalanish zarur bo'ladi"<sup>168</sup>. Haqiqatan ham, bozor munosabatlari kishilar va sotsial sub'ektlar o'rtasidagi aloqalarga ta'sir etmay qolmaydi, biroq u egoizm, korporativ manfaatlarga xizmat qilish, hatto boshqalarning huquqlarini paymol qiluvchi hollarni keltirib chiqarishi, natijada demokratiyani emas, balki oligarxiyani, teng huquqlikni emas zo'ravonlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bu o'rinda I.Karimovning 1998 yil 9 noyabrda Samarqand va 1998 yil 11 noyabrda Navoiy viloyatlari xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarida qilgan ma'ruzalaridan misollar keltirsa bo'ladi.

I.Karimov 1995 yili Samarqand viloyatiga A.Mardievni hokim etib tayinlayotganida uni shu yerda to'plangan muammolardan xabardor va ularniadolat, qonun va xalq manfaatlari nuqtai nazaridan hal etishiga ishonch bildirgan edi. Ammo viloyat hokimi boshqacha yo'l tutdi, ya'ni lavozimlarni aniq "shaxs", buyurtma orqali tarqatdi, qarindosh, oshna og'aynichilikni avj oldirdi. "Viloyat davlat apparatining o'zagini layoqatsiz, siyosiy saviyasi past, axloqiy jihatdan nopol, ammo rahbarning ishongan og'aynilari, eski qadrdonlari, bir hovuch laganbardor kimsalar tashkil etsa, odamlar e'tirozini kimga aytishi mumkin? Bunday hol xizmat vazifasini suiiste'mol qilish, davlat va jamoat mulkini talontaroj etish uchun qulay sharoit yaratadi... Eng yomoni, rahbarlarga nisbatan keng

<sup>166</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2003. –27-28 б.

<sup>167</sup> Жалилов Ш. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари ислоҳоти: тажриба ва муаммолар. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –58 б.

<sup>168</sup> Жалилов Ш. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари ислоҳоти: тажриба ва муаммолар. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –58 б.

jamoatchilikning ishonchi yo‘qoladi. Bunday jamiyatdan baraka ketadi, ish yurishmaydi, aholi o‘rtasida turli tortishuvlar va noroziliklar paydo bo‘ladi.

Darhaqiqat, bunday muhitda rahbarga yaqin bo‘lgan, ishongan, suyangan kadrlari bir-birlarini qo‘llab-quvvatlaydi, sodir bo‘lgan qonunbuzarlik va jinoyatlarni yashiradi. Jamiyatdaadolat yo‘qoladi. Bunday holda xalq arz-dodini, faryodini kimga aytishi kerak?”<sup>169</sup> prezidentimiz mahalliy hokimiyat duchor bo‘lgan illatlar negizini oolib beradi: “Tabiiy ravishda bunday ahvolning tomiri-negizi qaerda, degan savol tug‘iladi. Avvalambor, bunday hollarning zamini-tomiri eskidan qolgan salbiy, suyak-suyagimizga singib ketgan odat va asoratlarda bo‘lishi darkor. Qolaversa, yana bir sababi – yangi qabul qilinayotgan qonun va farmonlar, demokratiya va adolat talablarini mensimaslikda, bugungi hayotimizdagi o‘zgarishlarni his etmaslikda, kamsitishdadir”<sup>170</sup>. Demak, davlat hokimiyatni mahalliy idoralarining o‘zida demokratik o‘zgarishlarga intilish va faoliyatida adolat bo‘lmas ekan, ular kishilarning dunyoqarashida, hayot tarzida demokratik qadriyatlarni shakllantira olmaydi. Jamiyatni demokratlashtirish hokimiyat institutlarini, davlat organlarini demokratlashtirishdan boshlanadi.

Buni o‘zimiz o‘tkazgan sotsiologik so‘rovnoma natijalari ham ko‘rsatadi. “Oxirgi viloyat deputatlari xalq kengashlarida kimga ovoz berganingizni eslay olasizmi?” degan savolga respondentlarning 61% “yo‘q”, 25% “aniq eslay olmayman”, 4% “ha”, 10% javob bermagan. Hayratli tomoni shundaki, “yo‘q” deb javob bergenlarning 82% ni 35 yoshgacha bo‘lgan saylovchilar tashkil etadi. Ular kimga va qachon ovoz bergenini eslay olmaydilar. Vaholanki, sotsial muammolarga qiziquvchi, jamiyat va davlat boshqaruvi institutlari faoliyatiga yuqori talablar qo‘yadigan aholi qatlamlari ichida yoshlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. “Oxirgi marta viloyat yoki tuman hokimiyatni rahbarlari bilan qachon uchrashgansiz?” degan savolimizga respondentlarning 76% “uchrashmaganman”, 20% “ko‘p vaqt bo‘ldi”, 3% “ko‘p vaqt bo‘lmadi” deb javob bergen. Ko‘rinib turibdiki, mahalliy hokimiyat organlarining aholi bilan bevosita muloqoti kerakli darajada emas. Natijada davlat hokimiyatni mahalliy organlari aholi tashvishlaridan, orzu umidlaridan yaxshi xabardor bo‘lmaydi, ularning imkoniyatlaridan, kuchlaridan foydalanish, mavjud muammolarni hal etishga aholining o‘zini jalb etish kabi usullarni bilmaydi.

Davlat hokimiyatni mahalliy organlari O‘zbekiston Respublikasi prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlar o‘tkazishni tashkil qiladilar. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyatni to‘g‘risida” (1993 yil sentyabr) va “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlar to‘g‘risida”gi (1994 yil may) qonunlarga ko‘ra, xalq deputatlarini saylash bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiya viylik asosida o‘tkaziladi<sup>171</sup>. Saylovlarni bunday tashkil qilish, hozirgi demokratiya talablariga to‘la mos kelishi bilan birga, eng

<sup>169</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –213 б.

<sup>170</sup> Ўша асар. –215 б.

<sup>171</sup> Қаранг: “Махаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1993, №9; “Халқ депутатлари вилоят, туман ва шахар Кенгашларига сайловлар тўғрисида” //Ўша жойда, Ахборотнома, 1994, №5.

munosib nomzodlarning, saylovchilar manfaatlarini sidqidildan himoya qila oladigan kishilarni saylash uchun keng imkoniyatlar tug‘diradi... Viloyat, tuman va shahar Kengashlariga maxsus saylov komissiyalari tashkil etish, fuqarolarni o‘z ishlarining borishi to‘g‘risida xabardor qilib turish, ya’ni fuqarolarni saylov uchastkasi tashkil etilganligi, saylov komissiyasi tarkibi, saylovchilar ro‘yxati bilan tanishtirish, deputatlikka nomzodlar haqidagi ma’lumotlar bilan va ovoz berish, saylov natijalari bilan tanishtirib borish vazifasi yuklanadi. Istagan fuqaro yoki ommaviy axborot vositalari, nomzodlar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar ushbu vazifaning qay ko‘lamda bajarishini kuzatish, nazorat qilish huquqiga e ga<sup>172</sup>. Ushbu tartib inson huquqlari umumjahon deklaratasiysi va 1990 yilda qabul qilingan Kopengagen konferensiyasining yakuniy hujjatida bayon etilgan saylovlarning umumiylig, oshkoraliq, teng huquqlik, ixtiyorilik va ovoz berishda yashirinlik tamoyillariga to‘la to‘g‘ri keladi. F.Musaevning keltirishicha, chet ellarda bu borada turli yondashuvlar qo‘llaniladi. Masalan, Belgiyada saylovda ishtirok eta olmaydigan fuqaro zarur sabab-dalillarini barvaqt sudyaga taqdim etishi kerak. Saylovchi bu qoidani buzsa, fuqaroga birinchi marta 3 frank, ikkinchi marta 3 frankdan 25 frankkacha jarima solinadi. Qoidani uchinchi bor buzgan shaxsning ismi, familyasi maxsus joylarga yozib qo‘yiladi. Agar mazkur shaxs saylovda qatnashish tartibini to‘rtinchi marta buzsa, u 15 yilga saylovda qatnashish va 10 yil davomida davlat muassasalariga va mahalliy davlat organlariga ishga qabul qilinmaydi<sup>173</sup>. Bu misol biz uchun g‘ayrihayotiy ko‘rinadi, chunki o‘zbek saylovchiligi huquqida birovni saylovda qatnashishga majbur etish yo‘q. Bizning fikrimizcha, saylovda qatnashish yoki qatnashmaslik insonning konstitutsion huquqidir, agar saylovchi nomzod faoliyati yoki boshqa fazilatlaridan yaxshi xabardor bo‘lsa, u ushbu munosabatini boshqacha, ya’ni ommaviy axborot vositalari orqali ham bildirishi mumkin. Shuning uchun G‘arbda “hozirgi kunda saylovchilardagi absentizm (saylovlarda qatnashmaslik, unda ishtirok etishdan bo‘yin tov lash, qochish) ko‘pchilik mamlakatlarga xos ko‘rinishdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, saylovlarda ishtirok etishdan bo‘yin tov lash hollari barcha mamlakatlarda oshib bormoqda”<sup>174</sup>.

I.A.Karimovning mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti konsepsiyasida markazlashgan boshqaruvdagagi asosiy vazifalarga joylarga, viloyat, tuman va shaharlardagi davlat hokimiyati organlariga o‘tkazish g‘oyasi jamiyatni demokratlashtirishda muhim ahamiyatga e ga. prezidentimiz bu borada quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini, – deydi u, – markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar va tumanlardagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralariga o‘tishni ta’minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o‘zini o‘zi boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi”<sup>175</sup>. Demak, prezidentimiz konsepsiyasiga ko‘ra, markaziy boshqaruv idoralarining asosiy iqtisodiy, ma’naviy-madaniy va ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalari mahalliy

<sup>172</sup> Жалилов Ш. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари ислоҳоти: тажриба ва муаммолар. –Т.: Ўзбекистон, 1994. –102-103 б.

<sup>173</sup> Мусаев Ф. Демократик хуқуқий давлат қуришнинг фалсафий-хуқуқий асослари. –Т.: O‘zbekiston, 2007. – 182 б.

<sup>174</sup> Ўша жойда.

<sup>175</sup> Каримов И.А. Ватан саҷдагоҳ каби мукаддасдир. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –11 б.

hokimiyatlarga asta-sekin o'tkazilishi, shu tariqa davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etadigan sub'ektlar doirasi kengaytirilishi zarur. Bu fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidir. "Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati va boshqaruva organlari umummilliy manfaatlarga daxldor eng muhim vazifalarnigina amalga oshiradi. Mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish shular jumlasidandir"<sup>176</sup>. Biroq bu markazlashgan boshqaruvdan mutlaq voz kechish kerak degan fikrga olib kelmaydi. Davlat mavjud ekan u mudom markazlashgan boshqaruvga ehtiyoj sezadi. Bu o'rinda gap davlat boshqaruvini demokratlashtirish, boshqarish sub'ektlarining doiralarini kengaytirish ustida ko'rishi mumkin.

Davlat hokimiyati mahalliy organlari faoliyatining jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni ularning siyosiy partiya lar va nodavlat tashkilotlarining samarali ishlashi uchun zarur sharoitlar yaratib bergenida, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlaganida aks etadi. Biroq mahalliy hokimiyat institutlarining umumiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda hali faol ishtirok etayotgani sezilmaydi. Shuning uchun Qoraqalpog'iston Respublikasidagi, davlat hokimiyati organlarining faoliyatini o'rgangan siyosatshunos A.Ko'jageldiev, "bugungi kunda mahalla va mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari faqat mahalliy, hududiy ishlar bilan mashg'ul bo'lib, ularning siyosiy jarayonlardagi roli sezilmaydi"<sup>177</sup>, degan xulosaga keladi. U yozadi: "Bugungi kunda Xalq deputatlari kengashi hokimlarga bo'ysunadi. Hatto Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida "tuman va shahar hokimi o'z vakolatlarini yagona boshqaruv tamoyillarida amalga oshiradi va o'zi boshqarayotgan organlar qarorlari va harakatlari uchun shaxsiy javobgardir", deb belgilab qo'yilgan. Bunday holat, bizning fikrimizcha, xalq vakillarining siyosiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga imkon bermaydi, ularni hokimning yakka hokimligi ostida ishlashga majbur qiladi va o'z demokratik mohiyatini yo'qotadi"<sup>178</sup>. Haqiqatan ham mahalliy hokimiyat organlari huquqiy mustaqil bo'lgan siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlarni o'ziga bo'ysundirish, ularni funksiyalariga kirmaydigan ishlarga jalb etishga urinislari uchrab turibdi. Bu esa demokratik institutlarning shakllanishiga ham, faoliyatiga ham xalaqit beradi. Bugun davlat hokimiyati mahalliy organlarini zamonaviy, demokratik tafakkurga va boshqarish usullariga ega yosh kadrlar bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Yurtboshimiz ta'kidlab deydi: "Eng avvalo, bizning ongu tafakkurimizga, ma'naviyatimizga kishan bo'lib turgan eski asoratlardan xoli bo'lgan. Zamonning ilg'or talablariga javob beridigan g'ayrat-shijoatli, mard, insof-diyonatli yoshlarimizning hal qiluvchi vazifalarga kelishi uchun yo'lni keng ochib berish kerak... Birinchi galda sog'lom fikrlovchi, shu aziz Vatan qismatini o'z shaxsiy qismati deb biladigan, mamlakatning ertasi uchun bor mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir, jafokash xalqimiz uchun, demokratiya vaadolat uchun o'zini baxshida etadigan, fidoyi, izlanuvchi yosh avlodning boshini qovushtirish,

<sup>176</sup> Ўша асар. –12 б.

<sup>177</sup> Кўжагелдиев А. Коракалпогистон Республикаси сиёсий институтларининг вужудга келиши ва ривожланиши. –Т.: Янги аср авлоди, 2009. –81 б.

<sup>178</sup> Кўжагелдиев А. Коракалпогистон Республикаси сиёсий институтларининг вужудга келиши ва ривожланиши. –Т.: Янги аср авлоди, 2009. –81 б.

uning maqsad va intilishlariga qanot berish zarur”<sup>179</sup>.

Falsafiy-huquqiy adabiyotlarda hokimiyat umumiy bilan xususiy manfaatlarini, individ g‘oyalari bilan xalq g‘oyalarini uyg‘unlashtiruvchi, sintezlashtiruvchi siyosiy institut sifatida qaraladi<sup>180</sup>. Hokimiyatning ushbu funksiyasi ayniqsa mahalliy organlar faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo ushbu qiziqish, manfaat va g‘oyalarni uyg‘unlashtirish hokimiyat, davlat uchungina zarur emas, u eng avvalo jamiyat taraqqiyoti uchun kerak. Demokratik taraqqiyot esa uyg‘unlashtirish jarayonida barchani, davlat institutidan tortib to oddiy fuqarogacha faol ishtirok etishni taqozo qiladi. Davlat, hokimiyat ushbu jarayonni uyg‘otishi, yo‘naltirishi va qo‘llab-quvvatlashi zarur. Har doim ham kishilar birlashishga, manfaatlarini uyg‘unlashtirishga intilavermaydi. Ayniqsa liberal-demokratik qadriyatlar kishini o‘z maqsadlaridan kelib chiqib raqobatga, kim o‘zdiga da’vat etadi. Fuqarolik institutlarida esa korporativ manfaatlar ustunlik qiladi, bu, shubhasiz, kishilarning manfaatlari va g‘oyalarni uyg‘unlashtirishga xalaqit beradi. Aynan shu o‘rinda demokratik taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlovchi kuchlar manfaatlarni, g‘oyalarni birlashtirish, uyg‘unlashtirish dasturlari bilan chiqishi lozim bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati shakllantirishni strategik maqsadi qilib qo‘yan hokimiyat, davlat, shu jumladan, mahalliy hokimiyat institutlari ana shunday vazifani o‘z ustiga olishi shart. Hokimiyat institutlaridan pozitiv tashabbuslar chiqmasa, kishilarni milliy istiqlol g‘oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan ezgu da’vatlar bo‘lmasa boshqarish tizimlarida ham, kishilarda ham yaratishga, pokdamon, iymon, diyonat bilan yashashga intilish shakllanmaydi. Xalqimizda “Katta arava qaerdan yursa, kichik arava ham shu yerdan yuradi” degan maqol bor. Davlat, hokimiyat – katta arava, ya’ni yangi-yangi tashabbuslar vaadolatni qaror toptirishga da’vat etilgan institutlardir. 1998 yil 11 noyabr kuni Navoiy viloyati xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqida, viloyatda avj olgan oshna-og‘aynichilik, korrupsiya, g‘ayriqonuniy harakatlarning bois-negizi bitta – “viloyat rahbari, achchiq bo‘lsa ham aytish joizki, viloyatning aksariyat faollarida uzoqni ko‘zlab ishlash, izlanish bo‘limganidadir”<sup>181</sup>, deb ko‘rsatdi.

Demokratik taraqqiyot butun jamiyat izlanishlarining, mehnatining pirovard natijasi bo‘ladi. Davlat hokimiyati organlari, institutlari ushbu izlanishlarni tezlashtirishi ham, ularga to‘sinq bo‘lishi ham mumkin. Ammo ayrim olgan viloyat yoki tuman hokimlari faoliyatidagi to‘sqliar, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar butun xalqning, jamiyatning demokratik istaklariga g‘ov bo‘lolmaydi. Demokratik taraqqiyot butun insoniyatning, taraqiyparvar kuchlarning istagi, irodasi, ifodasi, hayotiy maqsadiga aylangan ekan ushbu global voqelikdan O‘zbekiston Respublikasi va uning xalqi ham chekkada qololmaydi. Bizda demokratiyani hayot tarziga aylantirishga qodir huquqiy institutlar va mexanizmlar ham, xalqni demokratik taraqqiyotga bo‘lgan intilishini amalda qo‘llab-quvvatlovchi siyosiy institutlar ham tashkil etilgan. Hozirgi vazifa ushbu mexanizmlar va institutlarni ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga xizmat qilishini ta’minlashdir. Aslida I.A.Karimov

<sup>179</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –242, 246 б.

<sup>180</sup> Гаджиев И.С. Политическая философия. –М.: Экономика, 1999. –С.271.

<sup>181</sup> Каримов И.А. Биз ўз қелажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –234 б.

rahbarligida Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar mohiyati ham mavjud mexanizmlar va institutlarni modernizatsiyalashayotgan ijtimoiy hayot talablariga muvofiq faol ishlashiga erishishdir.

## **8-MAVZU: Siyosiy partiya lar va ijtimoiy harakatlarning milliy demokratik taraqqiyotdagi o‘rni**

### **Reja**

- 1. Milliy demokratik taraqqiyotda siyosiy partiya larning tutgan o‘rni.**
- 2. Nodavlat va notijorat tashkilotlarining mamlakatni demokratlashtirish jarayonidagi o‘rni.**

**Tayanch so‘z va iboralar :** Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot; dinamizm; siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar; “o‘zbek modeli”; “siyosiy partiyalar fraksiyalari”; qonun ustuvorligi; Jamoat birlashmali.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotni siyosiy partiyalar va xalq harakatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Aynan ushbu fenomenlar demokratiyaga hayot, yashovchanlik, hokimiyat va aholi o‘rtasidagi aloqalarga dinamizm bag‘sh etadi, kishilarni jamiyat va davlat ishlaridan xabardor yurishga, ular faoliyatini nazorat qilishga imkon beradi.

“Bugungi kunda siyosiy partiyalar siyosiy jarayonlarning bosh harakatlatiruvchi kuchi sifatida yuzaga chiqmoqda. Shuning uchun siyosiy jarayonlar – bu, eng avvalo, siyosiy partiya lar faoliyati, ularning siyosiy maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy institutlar, guruhlar yoki shaxslar bilan o‘zaro hamkorligidir. Bundan kelib chiqadiki, “siyosiy jarayon hokimiyat sohasidagi institutlashgan va institutlashmagan sub’ektlarning o‘ziga xos funksiyalari (disfunksiyalari)ni amalga oshirish borasidagi harakatlari yig‘indisi bo‘lib, ular oxir oqibatda jamiyat siyosiy tizimini rivojlantirishga yoki tanazzulga olib keladi”<sup>182</sup>.

Falsafa fanlari doktori Sh.O.Mamadalievning yozishicha, siyosiy partiyalar, substansional mohiyatiga ko‘ra, “davlat yakkahokimligi va uning mutlaqligini cheklash maqsadida yuzaga kelgan”<sup>183</sup>. Shuning uchun “siyosiy partiya lar – bu o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan emas, balki ongli ravishda shakllanadigan birlikdir. Siyosiy partiyalarga mazkur birlikka jamoaviy mansubligini anglashga asoslangan jipslik xos. Ushbu birlik vazifaviy va maqsadli tabiatga ega, chunki muayyan maqsadlarga erishish uchun tuziladi. Bu maqsadlar shunday xususiyatga egaki, ularga erishish uchun ko‘plab kishilarning intilishlarini birlashtirish talab etiladi. Siyosiy partiyalar boshqa ijtimoiy tashkilotlardan farqli o‘laroq, hokimiyatni

<sup>182</sup> Қаранг: Кўжагелдиев А. Коракалпогистон Республикаси сиёсий институтларининг вужудга келиши ва ривожланиши. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2009. –83 б.; Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. – М.: Аспект-Пресс, 1999. –С.383.

<sup>183</sup> Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. –Т.: ИИВ Академия, 2003. –162 б.

egallash va undan foydalanish uchun bevosita kurash olib borishga mo'ljallangan<sup>184</sup>. Biroq esdan chiqarmaslik zarurki, hokimiyat uchun kurash siyosiy partiya larning bosh maqsadi emas, balki bosh maqsadga yetish yo'lidir. Shuning uchun ba'zi adabiyotlarda uchraydigan, siyosiy partiyalar xususiy manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi, degan fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Ba'zi mutaxassislar esa siyosiy partiyalar "alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy tabaqa va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'taradi"<sup>185</sup>, deb uqtirishadi. Ayrim olingan fuqarolar va guruhlarning manfaatlarini "siyosiy manfaatlar majmuasi" (chamasi muallif umumxalq manfaati yoki siyosiy tuzum manfaati demoqchi) darajasiga ko'tarishni tasavvur qilish qiyin. Bu holda ushbu guruhlar o'z manfaatlarini boshqalarga, butun jamiyatga zo'r lab singdirishga majbur bo'ladilar. Bizning fikrimizcha, siyosiy partiyalar ijtimoiy birlik sifatida o'zining maqsad va vazifalariga ega bo'lsada, ularning hokimiyatga kelishini umumxalq, umum davlat manfaatlarini ifoda etgani belgilaydi. Demokratik jamiyatda tor, ayrim guruhlar emas, balki ko'pchilik manfaatlarini, irodasini ifoda eta olgan partiya lar hokimiyatga kelishi yoki davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga ta'sir etishi mumkin.

Faylasuf va adabiyotshunos R.Z.Jumaevning yozishicha, bugun respublikamizda o'tkazilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar "siyosiy va iqtisodiy tuzilmalarning quyi bo'g'ini mustaqilligi chegarasini muqim kengaytirish yo'li bilan markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari nisbatini mukammallashtirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bunda uning ishonchli himoyasi mexanizmini o'y lab chiqish zarur. Bunday mexanizmning ayrim unsurlari bugungi kunda harakatlanmoqda. Huddi shuningdek, O'zbekiston siyosiy tizimning moslashuv qobiliyatini oshirishning qat'iy usuli o'laroq siyosiy tizim yaxlitligini saqlab qolgan holda bosqichma-bosqich zamonaviy andozalarga o'tmoqda. Mahalliy hokimiyat tuzilmalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, jamiyat va ijodiy uyushmalarining mustaqillik darajasi kengayib, erkinlik darajasi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Ularning faoliyatini jonlantirish, umumdemokratik o'zgarishlar jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash O'zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir"<sup>186</sup>. Shu bilan birga R.Z.Jumaevning quyidagi fikri siyosiy partiya lar va ijtimoiy harakatlarning demokratik taraqqiyotdagi, davlat bilan hamkorlikdagi o'rnini aniqlab olishga yordam beradi. "Siyosiy partiya muxolifat mohiyatidan kelib chiqib, – deb yozadi u, – bir tomonidan fuqarolar jamiyatni manfaati va siyosiy hokimiyat uchun bo'lgan xatti-harakatini chegaralangan sferada (doirada) ifoda etib, boshqa tomonidan, ularning bir-biriga muvofiqligi va hamjixatligini ta'min etadi. Bu esa siyosiy partiya taraqqiyoti va mustahkamligining manbai bo'lib xizmat qiladi... Gap shundaki, partiya

<sup>184</sup> Кўжагелдиев А. Коракалпогистон Республикаси сиёсий институтларининг вужудга келиши ва ривожланиши. –Т.: Янги аср авлоди, 2009. –84 б.; Мейтус В.В., Мейтус В.Ю. Политическая партия: стратегия и управление. –Киев, Ника-Центр, 2004; Дюверже М. Политические партии. –М.: Академ.проект, 2005; Джавакова К.В. Институтқа народовластия в Республике Узбекистан. –Т.: О'qituvchi, 2006 ва б.

<sup>185</sup> Қаранг: Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ килиш йўлида. –Т.: "Akademiya", 2005. –102 б.

<sup>186</sup> Жумаев Р. Давлат ва жамият. Демократлаштириш йўлида. –Т.: Шарқ, 1998. –33 б.

